



FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI



“O‘ZBEKISTONDA
DEMOKRATIK, FUQOROLIK
JAMIYATI ASOSLARINING
SHAKLLANISHI, AMALGA
OSHIRILGAN SIYOSIY
ISLOHOTLAR”

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**FARGONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O'ZBEKİSTONDA DEMOKRATİK, FUQOROLIK JAMIYATI
ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN
SIYOSIY ISLOHOTLAR”**

MODULI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

FARGONA – 2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **S.Yo‘ldoshev** - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Taqrizchi: **B.Usmonov** – tarix fanlari doktori (DcS), professor.

*Ishchi o‘quv dasturi FarDU Ilmiy Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan
(2024 yil 27 dekabrdagi 5- sonli bayonnomasi).*

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| I. ISHCHI DASTUR | 5 |
| II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI | 15 |
| III. NAZARIY MATERIALLAR | 24 |
| IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI | 100 |
| V. GLOSSARIY | 153 |
| VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... | 158 |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, O‘zbekistonda

demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlarini mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Modulning maqsad va vazifalari

Tinglovchilarda Milliy davlat boshqaruvi tizimi, Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati, Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlari, O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar, Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar, O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni, O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi, Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari, Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel), Konstitutsiya XXI asr zamонави O‘zbekistonining asosiy qonuni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari, “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. O‘zbekiston-2030 strategiyasi, Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarining ochilishi. 2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar, Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati va O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamонави munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar masalalarining ahamiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etish va baholash, bu borada zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni yanada shakllantirish modulining maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga

oshiriladigan masalalar doirasida modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari qo‘yiladigan talablar:

Tinglovchi:

Milliy davlat boshqaruvi tizimi, Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati, Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlari;

O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar, Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar, O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki;

Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni, O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi, Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilishda belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to‘g‘risidagi muhim ma’lumotlarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar sohasidagi muammo va masalalarni tahlil etish;

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati;

O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel), Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari;

“Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarining ochilishi, 2017-yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar;

Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati va O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘lijni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq

ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy innovasion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tadbiq etish;

fanlarni o'qitishda ta'lif berishning modulli tizimidan kengroq foydalanish;

O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;

fanni o'qitishda amaliyot materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;

fan doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta'lifni tashkil etishda video ma'ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;

O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar bilan bog'liq tegishli amaliyot materiallarini o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bilan bog'liq turli mamlakatlarda qabul qilingan rivojlanish dasturlari, yo'l xarita va dasturlar, istiqbolli rejalgarda oid xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy qonunchilik va amaliyot bilan qiyosiy tahlil qila olish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar shuningdek ta'lifning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha Tinglovchilarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

o'quv jarayoni nazariy tayyorgarligini amaliyot bilan uzviy bog'liqligini, Tinglovchilarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo'llashni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovasion texnologiyalar asosida tashkil etish;

O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar o'quv jarayoniga ilmiy ishlamalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar moduli ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

O‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhrilar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezентasion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modul doirasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar nazarda tutilib, bu borada davlat va jamiyat hayotida katta amaliy ish tajribasiga, obro‘-e’tibor va nufuzga, yuksak lavozim va martabaga, ilmiy yutuq va unvonlarga ega bo‘lgan shaxslar, ilmiy jamoatchilik va akademik soha vakillari, davlat boshqaruvi organlari xodimlari va boshqa mashhur shaxslar bilan adabiy va ma’naviy-ma’rifiy o‘chrasuvlar tashkil etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi
O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar o‘quv rejadagi “Oliy ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar” va “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” va boshqa modullar bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlardan xabardorlik va ularga daxldorlik tuyg‘ularini oshirishga, shuningdek jamiyatning ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan **O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar** asosiyo yo‘nalish va maqsadlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitusionalizmi hamda “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasiga doir kasbiy bilim va malakalarga ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | | | |
|-------------|--|--------------------------------------|----------------------------|----------|-------------------|--------------------|-----------------|
| | | Hammasi | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | | jumladan | |
| | | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot | Mustaqil ta’lim |
| 1. | Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyati va parlament tizimi va undagi islohotlar. | 2 | 2 | 2 | | | |
| 2. | Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish. | 2 | 2 | | 2 | | |
| 3. | “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati. | 2 | 2 | 2 | | | |
| 4. | O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y.30-aprel). Konstitutiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni. | 2 | 2 | 2 | | | |
| 5. | 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. | 4 | 4 | 2 | 2 | 6 | |
| 6. | Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish. | 8 | 8 | | 2 | | |
| 7. | Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar. | 8 | 8 | | 2 | 6 | |
| Jami | | 20 | 20 | 8 | 8 | 12 | |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyati va parlament tizimi va undagi islohotlar (2 soat).

Reja:

1. Milliy davlat boshqaruvi tizimi
2. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi
3. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati
4. Siyosiy partiyalar faoliyati va parlament tizimi va undagi islohotlar

2-mavzu: “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati. (2 soat).

Reja:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi.
2. Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.
3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati.

3-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).

Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni. (2 soat).

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).
2. Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.
3. Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

4-mavzu: 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.
O‘zbekiston-2030 strategiyasi.

(2 soat).

Reja:

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.

2. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.
3. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-sherikchilik.

O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

Reja:

1. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.
2. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-sherikchilik.
3. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.
4. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

2-amaliy mashg‘ulot: 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.

O‘zbekiston-2030 strategiyasi.

Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlari.

Reja:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.

2. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati.
3. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).
4. Konstitutsiya XXI asr zamонави O‘zbekistonining asosiy qonuni.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

5. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarining ochilishi va Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar.

3-amaliy mashg‘ulot: Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Reja:

1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati.
2. O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.
3. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

4-amaliy mashg‘ulot: Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

Reja:

- 1.Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat.
2. Ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalardagi o‘zgarishlar.
3. Turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

Ko‘chma mashg‘ulotlar

1-ko‘chma mashg‘ulot. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekiston-2030 strategiyasi.

2022-2026 йилларга мўлжалланган "Янги Ўзбекистон" тараққиёт стратегияси ва "Ўзбекистон-2030" стратегиясининг мазмун-моҳиятини ўрганиш.

- Давлатнинг устувор йўналишлари ва ислоҳотларининг аҳамиятини тушуниш.
- Ҳар бир йўналиш бўйича амалга оширилаётган ишлар ва келгуси режаларни таҳлил қилиш.

Вазифалар:

Ислоҳотларнинг хуқуқий ва иқтисодий асосларини тушуниш. "Янги Ўзбекистон" стратегиясининг бешта устувор йўналишини чуқур таҳлил қилиш.

"Ўзбекистон-2030" стратегиясида келажак учун белгиланган мақсадлар ва вазифаларни **ўрганиш**.

Иштирокчилар ўртасида таҳлилий мунозара ва амалий баҳслар ўтказиш.

2- ko‘chma mashg‘ulot. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun tashkil etilgan ushbu ko‘chma mashg‘ulot ijtimoiy sohadagi islohotlarning mazmun-mohiyatini o‘rganish, ularning natijalari va ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tinglovchilar jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etayotgan ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar bilan bevosita tanishadilar. Mashg‘ulot davomida davlat siyosatining ijtimoiy yo‘nalishlari, sohalardagi islohotlar, ularning natijalari va kelajak istiqbollari muhokama qilinadi. Zamonaviy innovatsiyalar, ilg‘or loyihalar, xalqaro hamkorlik tajribasi va ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ishtirokchilar real obyektlarga tashrif buyurib, amaliyot bilan nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur mashg‘ulot oliy ta’lim o‘qituvchilarining malakasini oshirishga xizmat qiladi va ularning kasbiy mahoratini yanada rivojlantirishga ko‘maklashadi. Ko‘chma mashg‘ulot doirasida tinglovchilar arxiv va muzeylarga tashrif buyurib, ijtimoiy sohalardagi islohotlarning tarixiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi holati bilan bevosita tanishadilar.

O‘QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta’lim berish ko‘zda tutilgan:

- binar ma’ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- On-line ma’ruza;
- trening, videotrening;
- kichik ma’ruzalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi);
- klaster, kichik guruhlarda ishslash, bumerang (materialni mantiqan tizimli,

muammoli bayon etishni rivojlantiradi);
blits o‘yin, qora cuti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yo‘l-yo‘lakay aniqlashga yo‘naltiriladi).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha Tinglovchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plib, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga Tinglovchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Tinglovchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga Tinglovchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalangan Tinglovchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan Tinglovchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Tinglovchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi Tinglovchilarda turli g‘oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu metod Tinglovchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Tinglovchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib

qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.


3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir Tinglovchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Tinglovchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi;
2. Tinglovchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Tinglovchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi Tinglovchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- Tinglovchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- Tinglovchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

- Tinglovchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- O‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- O‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.


“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI - Tinglovchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda Tinglovchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi quyidagilardan iborat:




«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda **Baholash** (Basing) shartlari shartligi sababli kuchli Tinglovchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha Tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan Tinglovchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir Tinglovchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va Tinglovchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir Tinglovchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan Tinglovchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa Tinglovchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. O‘qituvchi Tinglovchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir Tinglovchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha Tinglovchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir

javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Tinglovchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Tinglovchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan Tinglovchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi Tinglovchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan Tinglovchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi Tinglovchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan Tinglovchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan Tinglovchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali Tinglovchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda Tinglovchilar o‘zлari bergan savollariga guruhdagi boshqa Tinglovchilar bergan javoblarini baholashlari va o‘qituvchi ham Tinglovchilarni ob’yektiv baholashi mumkin.

“ISHBOP O‘YIN” METODI - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta’lim oluvchilarni o‘yining maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.
5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.


Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

“ROLLI O‘YIN” METODI - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

“BAHS-MUNOZARA” METODI - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“LOYIHA” METODI - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirot etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak. Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyati va parlament tizimi va undagi islohotlar (2 soat).

Reja:

1. Kirish. Milliy davlat boshqaruvi tizimi
2. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi
3. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati
4. Siyosiy partiyalar faoliyati va parlament tizimi va undagi islohotlar

Tayanch tushunchalar: xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati, Milliy davlat, boshqaruvi tizimi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. ko‘ppartiyaviylik tizimi, Siyosiy partiyalar, parlament tizimi, islohotlar, fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat hokimiyati, demokratik jamiyat, demokratik davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi.

1. Kirish. Milliy davlat boshqaruvi tizimi

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda shu kabi jamiyat asoslarining yaratilish tajribasi, bu sohadagi islohotlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarining shakllantirilishi, ularga doir nazariy ishlanmalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu insoniyat uchun muhim bo‘lgan ijobiy jihatlari (tamoyillari va va yashash muhiti) o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash va huquqiy davlat sari rivojlanish sari intilishiga doir islohotlarida muhim tajriba sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazaridan qaraganda, fuqarolik jamiyatiga doir fanni oliv ta’lim tizimida o‘qitish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Fuqarolik jamiyati fani jahonda bir necha minglab yillar davomida yig‘ilgan umuminsoniy qadriyatlarni hozirgi umuminsoniy va demokratik qadriyatlar ilan uyg‘un holda o‘rganishi va ulardan xulosalar chiqarishi tufayli yosh avlodni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan insoniyatning eng so‘ngi taraqqiyot bosqichi va insoniy birligi to‘g‘risidagi ta’limotlarni hozirgi davr bilan mustahkam bog‘liqlik holida o‘rganadi, isonni jamiyat qonuniylari va qadriyatlari asosida yashashga undaydi, bu yo‘ldan inson manfaatdorligini asoslaaydi. Bu jarayonda Fuqarolik jamiyati fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan hamkorlik qiladi. Umuman olganda, bu fan insonni hozirgi davrning so‘nggi sivilizatsiyasi – fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonuniylari, tamoyillari va uning shaxsni kamolga yetkazishdagi roliga doir bilimlar bilan qurollantiradi.

Hozirgi davrga kelib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining qurilganligi, mazkur jamiyat siyosiy instituti sifatida huquqiy davlat bonyod etilganligi, bu kabi jamiyat va davlatlar muhitida inson va uning faoliyati uchun erkinlik yaratilishi, inson huquqlarini himoyalashning miqyosi nihoyatda keng ekanligi kabi omillar demokratiya qurish yo‘ldan ketayotgan davlatlarni qiziqtimoqda. Shuning uchun ham o‘tish davrida yashayotgan mamlakatlar siyosiy elitasi fuqarolik jamiyatini nafaqat ijtimoiy model sifatida, balki uni ta’lim tizimiga joriy etish asnosida yosh avlodni shakllantirish omili sifatida ham e’tirof etmoqda.

O‘zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan keyin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mustaqil fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlarini qondirish, ular huquq va erkinliklarini ta’minalash, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish asnosida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga va adolat prinslarini amal qilishiga erishish kabi ezguliklarga asoslanadigan muhitni yaratish uchun fuqarolik jamiyati qurishni asosiy strategik maqsad sifatida e’lon qildi.

Shuning uchun ham birinchi Prezident I.A.Karimov mustaqillikning ilk davridayoq «bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat» degan g‘oyani ilgari surgan edi.

2016 yilning so‘nggi choragidadan boshlab mamlakatimizda davlat rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshlagan Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlanishi uchun muhim kuch-qudrat manbai - “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oyani ilgari surishi, unga monand bo‘lgan huquqiy asoslar va jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishi natijasida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari avj oldi, unga nisbatan xalqimizning ishonchi yuksala boshladи. U Prezidentlikni bajarish uchun kirishgan dastlabki kundayoq quyidagi konseptual g‘oyani ilgari surdi: “Mustaqil taraqqiyot

yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi – insoniyatning bir necha asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib, u inson huquqlari va erkinliklarining ta’minlash darajasining naqadar yuksalganligi darjasini mezoni sifatida namoyon bo‘ldi. Fuqarolik jamiyatining poydevori va asoslarini yaratish uchun avvalombor u haqdagi g‘oyalarning genezisini va rivojlanishini bilishga zarurat tug‘iladi. Fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun uning asoslari (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy) yaratilishi lozim. Fuqarolik jamiyatining asoslari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko‘p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari; jamiyatning har bir a’zosini o‘z mulkiga ega, u bu mulknini o‘z xohishi bilan tasarruf eta olish erkinligining mavjudligi, bu mulkdan foydalanish va uni sarflash huquqiga ega bo‘lishi, xususiy mulk daxlsizligi, har bir shaxsning davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste’mol faoliyati erkinligi bilan ta’minlanganligi.

ijtimoiy-siyosiy asos – fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatning mustaqil va suveren ekanligi, iqtisodiy va siyosiy hokimiylarining bir-biridan ajratilganligi; fuqarolarning o‘z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma’lum nodavlat tashkilotlarga birlashgan bo‘lishi, hokimiyatni uchga bo‘lini prinsipi amalda o‘z aksni topganligi, hokimiyatlarni turli markazlar, guruhlar yoki shaxslar qo‘lida to‘planib qolmasligi; siyosiy plyuralizmning mavjudligi; davlat hokimiyati vakolati funksiyalarining sekin-asta sekinlik bilan quyi vakillik organlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berib borilishi;

huquqiy asosi – jamiyatda insonning yashashi va rivojlanishi uchun muhim zarurat bo‘lgan erkinlik, tenglik,adolat qadriyatlarining qaror topganligi, shaxslar va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro tenglikning ta’minlanganligi, ularning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan to‘liq ravishda e’tirof etilishi; adolat prinsiplariga amal qilinishi; bir shaxsning erkinligi ikkinchi shaxsning erkinligiga daxl etsa, uning erkinligi shu yerda to‘xtalishi, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari o‘zaro mushtarkligining shakllanishi;

ma’naviy asos – insonlar o‘z qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan himoya qila olish qobiliyatini shakllanganligi, xalqning jamiyat qadriyatlarini himoya qila olish salohiyatining mavjudligi, vijdon erkinligining amal qilishi, jamiyatda ahloqiy meyorlarga amal qilish urf-odatlarining shakllanganligi, biron-bir mafkuraning yakka hokimlik qilishga urinishlarining cheklab qo‘yilganligi, fuqarolarning ma’naviy va

ijtimoiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlarning mavjudligi, har bir fuqaroning o‘z mustaqil fikrashi va qarashiga ega ekanligini namoyon qilish uchun barcha sharoitlarning mavjud ekanligi, ma’naviy jarayonlarni faqat jamiyat va fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi, har bir fuqaroning qanday dunyoqarash yoki dinga kirishi uning o‘zi tomonidan hal etilishi, diniy erkinlik, barcha dinlar va mafkuralarning o‘zaro hamkorlikda yashashlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning yaratilganligi.

Umuman olganda “fuqarolik jamiyat” atamasi turli xorijiy adabiyotlarda umumiy mohiyatga ega, shu bilan birga, har bir mamlakatning milliy an’anlarini ham uyg‘unlashtiradigan tushuncha bo‘lib, u hozirgi davrdagi talqinlarda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolari hal etish bilan chambarchas tarzda o‘zaro bog‘likdir.

Ba’zi olimlarning fikricha, demokratik jamiyat – bu «eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni — shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg‘unlantirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi». Fuqarolarning davlat hayotida ishtirok etishi jarayoni ancha kuchayib bormoqda va siyosiy partiylar, nohukumat tashkilotlar faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, shu jumladan inson huquqlari sohasida ham organlar va mansabdor shaxslar faoliyatining ijtimoiy nazoratini hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining faollashuvida o‘z aksini topmoqda.

Fuqarolik jamiyati — bu, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlatning bedodligi va aralashuviga yo‘l qo‘ymaydigan huquq hukmron bo‘lgan, fuqarolar va davlat hamkorlik asosida ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatiga ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e’tirof etilgan, ularning davlat bilan o‘zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan.

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi, har bir milliy davlatda fuqarolik jamiyati qaror topishining umumiy, o‘ziga xos qonuniyatlarini va tamoyillari, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo‘nalishi o‘rganiladi. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti – kishilik tarixida insonlarning o‘zaro munosabatlari natijasida yuksak jamiyatga doir qadriyatlar va tuzilmaviy unsurlarning shakllanishi, ularning rivojlanib borishi natijasida ideal jamiyatda insonlar o‘zaro aloqalarining qonuniyatlarini shakllanishi, rivojlangan mamlakatlarda uzoq tarixiy rivojlanish natijasi o‘laroq shakllangan yuksak insoniy birlik – fuqarolik jamiyatining institutlari

faoliyati, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo'nalishilarini amalga oshirish nazariy va amaliy jihatlari tizimli o'rganishni tashkil etadi. Fannining obekti – bu insoniy jamiyatning oddiydan murakkabga, o'zini o'zi takroran yaratib turadigan insoniy birlikka o'sib o'tishi, va nihoyat, rivojlangan mamlakatlarda shakllangan fuqarolik jamiyati va uning institutlari hisoblanadi. Ana shu tarixiy voqeliklarga uyg'un tarzda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati unsurlariga doir g'oyalarning rivojlanishi, mustaqillik davriga kelib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, undagi tamoyillarning rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlillari hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talaba yoshlar ongida fuqarolik jamiyatiga doir tasavvurlarni singdirish, ularda jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo'nalishilari, Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini yuksaltirish kabilardan iboratdir.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

-jahon tajribasi va milliy voqeliklarni o'rganish asnosida fuqarolik jamiyatiga doir klassik va zamonaviy konsepsiylar mazmun-mohiyatini ochib berish;

-tinglovchilarga fuqarolik jamiyatiga doir tushunchalarni tahlil qilishda, unga doir nazariyalarni o'rganishda har tomonlama ko'maklashish, ularning jamiyatga doir qarashlarini boyitish; O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishilari bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish;

-fuqarolik jamiyati qurish islohotlarida shaxsning rolini ochib berish asnosida tinglovchilarda shaxsiy fuqarolik nuqtai nazarlarni shakllantirishga yordamlashish;

-tinglovchilar ongiga fuqarolik jamiyati qurish jarayonida paydo bo'ladigan muammolar va ularning yechimlariga doir bilimlarni singdirish;

-tinglovchilarga fuqarolik jamiyatiga doir nazariy ishlanmalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishlarida ularga har tomonlama ko'maklashish;

-taraqqiyotning "O'zbek modeli" va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslariga doir bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashish;

-tinglovchilarga huquqiy davlat vafuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va o'zaro ta'sir etish mexanizmlariga doirtushunchalar, bilimlar berish;

-fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy asoslarini ochib berish;

-fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi –davlat va xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga doir bilimlar berish;

-tinglovchilar ongini fuqarolik jamiyatining ma'rifiy va ruhiy asosi – milliy ma'naviyatni tiklash va uni rivojlantirishga doir bilimlar bilan boyitish;

"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

-"Adolat – qonun ustuvorligida" tamoyilining mohiyati va ahamiyatiga doir bilimlar berish;

- Inson manfaatlarining hamma narsadan ustunligi;
- Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir konseptual maqsadlarning mazmun-mohiyati;
- Prezidentning “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qiladi” degan g‘oyasini ahamiyatini ochib berish;
- saylov huquqi erkinligi - fuqarolik jamiyatining muhim mezoni ekanligini asoslash;
- fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishida jahon tajribasining o‘rnini ochib berish;
- ijtimoiy innovatsiyalarning fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri to‘g‘risida bilimlar berish;
- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarni erkinlashtirish islohotlarini fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish;
- jamiyatda fuqarolar manfaatlari muvozanatini ta’minlash masalasi haqida tushunchalar berish;
- fuqarolarning moddiy farovonliginioshirish bo‘yicha “xalq boy bo‘lsa, davlat boy bo‘ladi” tamoyilining mohiyatini tushuntirish;
- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o‘rnini ochib berish;
- ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga doir bilimlar berish;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yoritib berish;
- ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida;
- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlanish masalalarini yoritish;
- yoshlarda faol fuqarolik pozisiyalarini shakllantirish mexanizmlariga doir bilimlar berish.
- talaba yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash intelektlarini shaklantirish.

Fuqarolik jamiyati fanini tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish jarayonida ularda quyidagi bilim, ko‘nikma shakllantirish mo‘ljallanadi:

-tinglovchilarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini anglagan holda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ulardan samarali tarzda foydalanish; “O‘zbek modeli” asosida erishilgan natijalarni bilish va ularni aholi o‘rtasida targ‘ib etish; Harakatlar strategiyasi vazifalarini amalga oshirish, unga doir islohotlarning mohiyatini o‘zlashtirish, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga doir o‘z mustaqil munosabatlarini bildira olish qobiliyatini egallash; mamlakatimizning jahon

integratsiyasiga kirib borish jarayonlari, bu sohadagi yutuqlarni erkin tahlil qila olish malakalariga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi

Barcha fanlar qatori O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyatni fanining ham o‘ziga hos qonuniyatlari, tushunchalari mavjud. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan qonuniyatlarni 2 guruhga ajratish mumkin.

1-guruh. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga doir umume’tirof etilgan qonuniyatlar.

- mulkiy munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi;
- inson haq-huquqlari va erkinliklarining real va amalda ta’minlanishi;
- davlat hokimiyati boshqaruv organlarining nomarkazlashuvi;
- jamiatning plyuralistik g‘oyalar asosida rivojlanishining ustuvorligi;
- fuqarolarning davlat boshqaruviga oid qarirlarni qabul qilishda ta’siri va mavqeining oshib borishi;
- fuqarolik jamiyati intitutlarining ijtimoiy hayotidagi mavqeining oshib borishi;
- fuqaroviylilik va fuqaro faolligining jamiat hayotiga ta’sirini kuchayib borishi va b.q.

2-guruh. Har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o‘ziga xos jihatlarini xisobga oladigan qonuniyatlar.

- O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi asosiy yo‘nalishilarining tizimli rivojlanishi;
- o‘rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi;
- o‘z-o‘zini boshqarish institutlarining jamiat boshqaruvidagi o‘rni va rolining oshib borishi;
- ijtimoiy himoyaning manzilli tashkil etilishi va amalga oshirilishi;
- ma’naviy yetuklikka erishish imkoniyatlarinning oshirib borishi va yoshlarning bunyodkor kuchga aylanishi va b.q.

Fanning asosiy tushunchalari: fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, jamiatining ijtimoiy tuzilmasi, jamiatining iqtisodiy asoslari, demokratik institutlar, qonun ustuvorligi, saylov, saylov huquqi, fuqaroviylilik, fuqaroviylilik, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, yurt tinchligi, vatan ravnaqi daxldorlik hissi, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish, Millatlar va konfessiyalararo totuvlik, bag‘rikenglik jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik kabilardir.

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fanini o‘qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalilanildi.

Ilmiylik – fuqarolik jamiyatni to‘g‘risidagi g‘oyalar, nazariyalar, zamonaviy konsepsiyalarni tahlil qilish asosida uning metodologik nazariy asoslarini ko‘rsatish.

Tarixiylik - fuqarolik jamiyatining shakllanishining tarixiy bosqichlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan holda jahon tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalanish asosida tahlil etish.

Mantiqiylik – fuqarolik jamiyatni shakllanishining genezisidan to bugungi holatigacha bo‘lgan jihatlarini (asosiy belgilari, omillari, tamoyillari, funksiyalari) uzviylik asosida tahlil qilish.

Tizimlilik – fuqarolik jamiyatini bir butun tizim sifatida va har bir belgilarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va tizimdagisi o‘rni va rolini aniqlash.

Qiyosiy tahlil – fuqarolik jamiyatni shakllanish va rivojlanish tajribalarini solishtirish, har bir davlatdagisi o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish.

Fuqarolik jamiyatni fani bakalavriat bosqichi o‘quv rejasidagi O‘zbekiston tarixi, Falsafa, Milliy g‘oya, Iqtisodiyot nazariyasi, Dinshunoslik kabi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqidir. Bu fanlarda fuqarolik jamiyatni shakllanishi va rivojlanishining turli yo‘nalishlaridagi holati, qonuniyatlarini, tamoyillari o‘rganiladi. Fuqarolik jamiyatni fanning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u jamiyatni rivojlanib boruvchi bir butun yaxlit tizim va tizimning tarkibiy qismlari sifatida o‘rganadi. Ijtimoiy fanlarning xulosalari asosida fuqarolik jamiyatni fani jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

Fuqarolik jamiyatni fanining metodologik funksiyasi ijtimoiy fanlarning rivojlanishi ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishning umumiyo‘nalishlarini belgilashda, ishlab chiqilgan meyorlarning dasturil amal sifatida foydalanishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Fuqarolik jamiyatni fanining prognostik (bashorat qilish) funksiyasi jamiyatning rivojlanish istiqibollarini oldindan ko‘rishga inson huquqlari va erkinliklarining namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Jamiyatning har bir fuqarosi o‘z kasbi-kori va ixtisosligidan qa’tiy nazar jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi bilimlari chuqr egallashi orqaligina yon atrofida ro‘y berayotgan voqealarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilishi, ularni boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtiroy etish, bunyodkor kuchga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda “fuqarolik jamiyat” va “davlat” tushunchalari uzoq davrlar bir-biridan unchalik farqlanmay keldi, ular aynan bir mazmundagi tushunchalar sifatida ishlatildi. Biroq, XVII asr o‘rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, nodavlat o‘zini o‘zi boshqarish unsurlarini shakllanishi, ba’zi fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini qo‘lga kiritishi, erkin fikrlaydigan va mustaqil individni shakllanishi jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyilini yuzaga keltirdi. Ular endi fan obekti sifatida o‘rganila boshlandi.

1.2. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi

Davlatda hokimiyatning uchga bo‘linish prinsipini asoslanishi, siyosiy partiylar, manfaatlar guruhlari (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo‘lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiyligini maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsata boshladi.

O‘zbekistonda prezidentlik institutining shakllanishi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. Bugungi kunda BMTga a’zo bo‘lgan 193 ta davlatdan 143 tasida Prezident lavozimi ta’sis etilgan. Mamlakatimizda Prezident lavozimi Oliy Kengash tomonidan 1990 yilning 24 martida “O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni)ga o‘zgartirishva qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan joriy etildi. Qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimi demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitusiotuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o‘zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida ta’sis etildi hamda uning konstitutsiyaviy maqomi O‘zbekiston Respublikasining boshlig‘i etib belgilandi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIX bobi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti haqida bo‘lib, 89-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi”, - deb yozib qo‘yilgan



Mustaqillik qo‘lga kiritilgan dastlabki kunlardayoq O‘zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan parlamentni shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Demokratik tamoyillar va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining uchinchi tamoyili – davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo‘linishi nuqtayi nazaridan O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va

sud hokimiyatlariga bo‘linishi qonunlashtirildi. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo‘lib, ayni vaqtida bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

1995–2004-yillarda Oliy Majlis nomi bilan atalgan 250 deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi. Bir mandatli hududiy saylov okruglaridan saylangan deputatlar tarkibida Xalq demokratik partiyasidan, «Adolat» sosial-demokratik partiyasidan, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan, «Milliy tiklanish» partiyasidan deputatlar bo‘lib, ilk bor parlament fraksiyalari tashkil etildi. 2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi. Bu 2002- yil 27-yanvarda o‘tkazilgan referendum va shu asosda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida» va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun asosida amalga oshirildi.

Parlamentda 250 kishi, jumladan, Quyi palata – Qonunchilik palatasida 150 deputat, Senatda 100 nafar senator faoliyat ko‘rsatadi. Senatga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 nafardan, jami 84 kishi saylanadi. Prezident tomonidan tayinlanadigan 16 nafar elyurtda obro‘-e’tibor qozongan kishilar Senatning a’zosi bo‘lishadi.

Mamlakat parlamentining bosib o‘tgan yo‘lini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etar ekanmiz, uni shartli ravishda uchta asosiy davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davr – 1991–1994-yillar, ikkinchi davr – 1995–2004-yillar, uchinchi davr – 2005-yildan hozirgi paytgacha.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirdi, O‘zbekistonga xos va mos fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vujudga keldi. Xususan, hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida bu institut mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish deb atalsa, O‘zbekistonda esa fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi deb ataladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining huquqiy zamini mustahkamlandi.

Konstitutsianing 105-moddasiga ko‘ra, «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi».

1999-yil «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida», 2004-yilda esa “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. 2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi Shunday qilib fuqarolar yig‘ini ma’lum muddatda to‘planib ish yuritadigan o‘zini o‘zi boshqarish vositasi bo‘lsa, rais, uning maslahatchilari doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi tuzilmadir. Prezidentning 2017-

yildagi farmoni asosida fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi belgilandi.

 **MILLIY DAVLAT BOSHQARUV HOKIMIYATI**
TIZIMINING SHAKLLANTIRILISHI 

Mustaqillik yillarda davlat boshqaruv hokimiyati tubdan isloh qilindi. Avvalo, sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O‘zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi - Ministrler Sovetining maqomi tubdan o‘zgartirildi. 1990- yil 24-martda O‘zbekistonda prezidentlik lavozimi ta’sis etilgandan keyin hayotning o‘zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o‘zgartirishni talab qildi. 1990- yil 15- noyabrda O‘zbekiston Prezidentining "O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to‘g’risida" farmoni chiqdi. Unga muvofiq O‘zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo‘ldi. Respublikada Vitse- Prezident lavozimi ta’sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi.



Fuqarolik jamiyat tushunchasi absolyutizm rejimi ag‘darilganidan so‘ng shakllangan yangi hayotni, ya’ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettira boshladi. Fuqarolik jamiyat unsurlari davlatning jamiyatdagi nodavlat ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, nodavlat ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqillikka erishishi natijasi o‘laroq paydo bo‘ldi. Fuqarolik jamiyat shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga monand ravishda huquqiy davlat shakllana boshladi.


Vazirlar Mahkamasi. Uning vazifalari:

-davlat budgetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi hamda uning bajarilishini ta'minlaydi;

. Oliy Majlisga davlat budgetining bajarilishi haqida hisobot beradi;

. yagona moliya, kredit va pul siyosati yuritilishini ta'minlaydi;

-iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'nayiy sohalarning samarali faoliyatiga rahbarlik qiladi;



. madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasidagi yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlaydi;

- mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklарини та'minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.



O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslariini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishini uch bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining asoslari yaratildi.

Ikkinchi bosqich 2000-2010 yillarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi.

Uchinchi bosqich 2011-2016 yillar. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurishga doir huquqiy asoslar rivojlantirildi, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tayanchi – o'rta ijtimoiy qatlama yanada mustahkamlandi.

To'rtinchi bosqich 2017 yilda boshlanib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amaliy jihatlarini namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurish g'oyalari "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiysi"da yanada rivojlantirilib, bu sohadagi tub burilish davrini boshlab berdi. Bu bosqichda fuqarolik jamiyati shiddat bilan rivojlanib, o'zini har tomonlama namoyon eta boshladi. Bu davrda Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar mazmuni yangi bosqich boshlanganidan dalolat bermoqda.

1.3.O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati

- O‘tgan asrning 90 yillari boshida totalitar tuzumdan endigina xalos bo‘lgan, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekistonda yangi jamiyat va davlatni bunyod etish islohotlarning jahon tajribasining qanday yo‘lidan borishi hali aniq bo‘lmagan bir sharoitda O‘zbekiston Respublikasi birinchi birinchi Prezidenti I.A Karimov tomonidan mamlakat rivojining bosh yo‘li tanlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq birinchi Prezident I.A. Karimov quyidagi maqsadni ilgari surdi: “ Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyat bunyod etish-bosh vazifadir... Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tarzini erkin tanlab olishni kafolatlashi kerak”.
- Shu asosda demokratik tamoyillar va huquqiy davlat qurish nazariyasi hamda amaliyoti fuqarolik jamiyatining mazmun – mohiyati, shakllanish qonuniyatlariga uzviy bog‘liq bo‘lgan omillar hisoblanib. “O‘zbek modeli” asosida huquqiy davlatning institusional zaminlarini shakllantirish quyidagilardan iborat deb belgilandi:
- Davlat hokimiyatining uchga bo‘linishi prinsipiga asoslanish;
- Demokratik Konstitutsianing qabul qilinishi va qonun ustuvorligi tamoyilini ro‘yobga chiqaruvchi mexanizmlarini yaratilishi;
- Erkin demokratik saylov tizimini kafolatlanishi.
- Davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda kuppartiyaviylik tizimining yaratilish
- Jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi;
- Fuqarolar o‘z- o‘zini boshqarish institutlarini rivojlantirilishi;
- Fuqarolar huquq va erkinliklarini, manfaatlari va extiyojlarini ta’minlashning samarali zaminlarini vujudga keltirilishi, ularni fuqarolik jamiyatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda barpo etilishi

1.3. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati

Bu masalalarni bevosita amaliyotda tadbiq qilish uchun birinchi Prezident I.A. Karimovning “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz” risolasida (2000 y.) 7 ta ustuvor vazifadan birinchi va ikkinchi vazifa qilib siyosiy sohada quyidagi masalalar belgilab berildi.

Siyosiy sohada:

- siyosiy hayotning barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;
- ko‘ppartiyaviylik muhitini ta’minlash;
- fikrlar xilma - xilligiga erishish, Ommaviy axborot vositalarini tom ma’nodagi “to‘rtinchchi hokimiyati” darajasiga ko‘tarish;

inson huquq va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni qaror toptirish;

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

hokimiyat organlarining konstiusiyaviy asosda bo‘linishini ta’minlash;

- ma’muriy sohadagi amalag oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish;
- kadralarni tanlash, joy - joyiga qo‘yish, yangilash tizimini takomillashtirish

Prezident Sh.M.Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va bu sohadagi muammolar to‘g‘risida to‘xtalib, “Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni va roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlash joiz. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim sa’y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o‘rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta’minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig‘ilishlar o‘tkazish bilan mashg‘ul bo‘lib qolmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, o‘z faoliyatida burilish yasaydi, deb ishonamiz” - deb ta’kidlagan edi.

Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy prinsiplaridan eng muhimi davlat hokimiyati organlarining umumxalq saylovleri asosida shakllantirilishi hamda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida bevosita yoki o‘zları tomonidan saylab qo‘yilgan vakillari orqali ishtirok etishi hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, jamiyat bilan davlat o‘rtasida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini o‘tovchi va fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo‘lgan – siyosiy partiyalar asosiy rol o‘ynaydi.

Siyosiy partiya – bu qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi fuqarolarning ko‘ngilli birlashmasidir. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

Partiya so‘zi lotincha “partio” so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘lak, bo‘laman, ajrataman”degan ma’noni anglatadi, ya’ni butunning bir bo‘lagi, jamiyatning bir bo‘lagi degan tushunchalarni beradi. Shuningdek, partiya deganda “g‘oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo‘lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi”ni tushunish mumkin.

Ekspertlarning fikriga ko‘ra, siyosiy partiya – bu siyosiy ambisiyaga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan tuzilgan va boshqariladigan hamda umumiy mafkura asosida birlashgan tarmoqdir (networks). Siyosiy partiyalar, eng avvalo, o‘z elektorati manfaatlaridan, siyosiy mafkurasi va pozisiyasidan kelib chiqib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga yetarlicha ta’sir o‘tkazishlari hamda o‘zining vakillari orqali davlatning markaziy va mahalliy ijroiya organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda qatnashishlari lozim.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, erkin fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan mamlakatimizda ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tildi.

Aynan ko‘ppartiyaviylik tizimi tanlanishini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12- moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi” mazmunidagi qoida mustahkamlangan va uning mazmuni ko‘ppartiyaviylik tushunchasi bilan mutanosibdir;

ikkinchidan, salmoqli aholi soniga ega bo‘lgan bu davlatda fikrlar, qarashlar ham xilma-xil bo‘lishi tabiiy edi. Shuning uchun ham jamiyatda mavjud turli qatlamlar, guruhlarning manfaatini ifodalovchi hamda uni davlat boshqaruvida amalga oshishiga zamin yaratuvchi ko‘ppartiyaviylik tizimi zarur deb tanlandi; uchinchidan, jamiyatdagi barcha siyosiy kuchlar, ijtimoiy tabaqalarning keng ishtirokini ta’minlovchi ko‘ppartiyaviylikka asoslangan saylov davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etishning demokratik ko‘rinishi hisoblanadi.

Shunday ekan, mamlakatda fuqarolik jamiyatni institutlarinnig muhim qismi bo‘lgan siyosiy partiyalarning faoliyatiga oid yetarli tashkiliyhuquqiy asoslari mustahkamlangan. 1991-yil 15-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning birinchi moddasida: “O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yogga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assosiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e’tirof etiladi”, degan qoidada o‘z ifodasini topgan.

1.4. Siyosiy partiyalar faoliyati va parlament tizimi va undagi islohotlar

Siyosiy partiyalarning huquqiy asosi sifatida yana O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba

uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega”ligi to‘g‘risida qoida belgilandi. Asosiy qonunning 58-moddasida davlat siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlashi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi lozimligi, shuningdek, davlat organlari va mansabdar shaxslar tomonidan siyosiy partiyalar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘ymasligi ham mustahkamlangan.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning ajralmas belgisi hisoblanar ekan, siyosiy partiyalar muhim konstitutsiyaviy institut ekanini namoyon qiladi. Buning asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar huquqiy maqomini belgilab beruvchi alohida “Jamoat birlashmalari” deb nomlangan XIII bobning mavjudligi, unda jamoat birlashmalari turi sifatida siyosiy partiyalar haqidagi tegishli moddalarning kiritilishi Asosiy Qonunning hayotiyligidan, jamiyatdagi mavjud munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Asosiy Qonunning 13 ta (ya’ni 10, 12, 32, 34, 56, 57, 58, 60, 62, 106, 108, 112, 120) moddalarida siyosiy partiyalar bilan bog‘liq normalar haqida so‘z yuritiladi. Siyosiy partiyalar huquqlari O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasida mustahkamlangan, ya’ni:

- O‘z faoliyati to‘g‘risida axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ‘ib etish;
- saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunlarda belgilib qo‘ilgani kabi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;
- partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiylar va boshqa tadbirlar o‘tkazish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta’sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlarini o‘rnatish;
- qonunlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanish mumkin.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, siyosiy partiyalarning boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlardan farqi hech bir NNTi yoki jamoat tashkiloti o‘z oldiga hokimiyatga erishishni maqsad qilmaydi. Bunga faqat siyosiy partiyalar haqli.

Siyosiy partiyalarning o‘ziga xos muhim belgilari quyidagilardan iborat:

- muayyan rasmiy tashkilot sifatida mavjudligi;
- ma’lum bir faoliyat dasturiga egaligi ;

- alohida ijtimoiy maqomga egaligi;
- jamiyat siyosiy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi;
- o‘z nomzodlari bilan saylov kompaniyasini tayyorlash va o‘tkazishdagi muhim roli;
- davlat boshqaruvchini shakllantirish va uning amal qilishidagi ishtiroki;
- muayyan ijtimoiy bazaning mavjudligi;
- muayyan iqtisodiy asosga ega ekanligi;
- o‘zining ramziy belgisiga egali va h.k.

Ma’lumot uchun aytish mumkinki, demokratik rivojlanish yo‘lini tanlagan davlatlarda mingdan ortiq siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi. Agar siyosiy partiyalarning vujudga kelish tarixiga qisqacha to‘xtalib, tushuncha hosil qilsak, zamonaviy partiyalar Angliyada XVII asrda vujudga kelganiga guvoh bo‘lamiz. Ammo 1832-yil saylov islohotidan keyingina hozirgi ko‘rinishni olgani ham ma’lum. AQSHda partiyalar 1830-yillarda, prezident Jekson davrida tashkil topgan. Fransiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida parlament guruhlari va siyosiy klublarning ommaviy tashkilotlarga aylanishi 1848-yil inqilobi bilan bog‘liqdir. Sharq mamlakatidan esa Yaponiyada vujudga kelgan.

O‘zbekiston hududidachi? Mustaqillik uchun kurash jarayonida vujudga kelgan bir qator siyosiy harakatlarga to‘xtalib o‘tsak, ular “Birlik” harakati, “Erk” partiyasidir. Ularning faollari, asosan, yozuvchi va olimlardan iborat bo‘lgan. Xususan, 1988-yil 11-noyabrd Daurov, Abdurahim Po‘latov, Muhammad Solih tomonidan asos solingan edi. Chunki o‘scha vaqtda sobiq ittifoqning g‘arbiy hududlarida ijtimoiy harakatlar faollashgan edi. Xususan, Boltiqbo‘yi respublikalarida “Sayudis” va boshqa harakatlar paydo bo‘lgan edi. “Birlik” harakati dastlab til, milliy ma’naviyat kabi masalalarni ko‘tarib chiqsada, so‘ngra siyosiy liderlari “shaxsiy manfaati yo‘lida” kurash boshlab, davlat va jamiyat faoliyatiga xavf tug‘dira boshladi. So‘ngra ularning faoliyati tugadi.

Keyin esa davlat va jamiyat rivojini ko‘zlab siyosiy partiyalar tashkil topa boshladi. Ulaning aniq maqsad va dasturlari mavjud edi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda beshta siyosiy partiya rasman ro‘yxatdan o‘tgan holda faoliyat olib bormoqda, bular: O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi; “Adolat” sosial-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston Ekologik partiyalaridir.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O‘zXDP) – 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng tashkil qilingan birinchi siyosiy partiya. Mazkur partiyani ko‘p jihatdan sobiq kommunistik partianing merosxo‘ri sifatida ham e’tirof etadilar. O‘zXDP 1991-yil 1- noyabrd rasman ro‘yxatga olingan. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda bugungi kunda partianing a’zolari soni 500 minga yaqin.

Joylarda partiyaning 11 mingdan ortiq boshlang‘ich partiya tashkilotlari faoliyat olib boradi. O‘zXDP markaziy kengashi raisi – Ulug‘bek Inoyatovdir.

Partiya ustavida uning asosiy maqsadi – davlat hokimiyatining vakillik organlarida davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Partiyaning matbuot organi – “O‘zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetalari.

“Adolat” sosial-demokratik partiyasi – 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. Bugungi kunda 400 ming a’zosi bor. Respublika hududlarida 5 minga yaqin boshlang‘ich partiya tashkilotlariga ega. Partiya siyosiy kengashining raisi – Bahrom Abdurahmonov. Matbuot organi – “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiya ustavida belgilangan asosiy maqsadi – huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta’minlangan ma’naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish deya belgilangan.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 2008-yil 20-iyunda Milliy tiklanish va Fidokorlar partiyalarining birlashuvi asosida shakllangan. Partiyaning a’zolari soni 490 minga yaqin. “Milliy tiklanish” partiyasi markaziy kengashi raisi – Alisher Qodirov.

Partiya ustaviga muvofiq asosiy maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi, milliy g‘urur, vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish ekanligi ta’kidlanadi. Siyosiy partiyaning matbuot organi – “Milliy tiklanish” gazetasi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberaldemokratik partiyasi (O‘zLidep) – 2003-yilning 15-noyabrida tuzilgan. Partiya o‘zining asosiy maqsadi sifatida – tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta’minlash ekani qayd etiladi. O‘zLidepning a’zolari soni 700 ming nafarni tashkil etadi. Partiya siyosiy kengashi raisi – Aktam Xaitov. Matbuot organi – “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi – dastlab harakat ko‘rinishida faoliyat olib borgan bo‘lsada 2018-yildan siyosiy partiya sifatida ro‘yxatdan o‘tib, 2019-yildagi ilk saylovlarda ishtirok etdi. Uning markaziy kengash raisi – Narzulla Oblomurodovdir. Partiya toza ekologik muhit yaratish, tabiatni asrash va uning sofligini ta’minlashni maqsad qiladi.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish borasida yetaricha huquqiy asoslar yaratildi deyishimiz mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to‘g‘risida”gi, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksini alohida ta’kidlash lozim.

Bundan tashqari 2018-yilning 4-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Saylov jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, respublikada Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatini shakllantirish hamda barcha darajadagi saylovlar tizimiga Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish va joriy qilish vazifalari belgilab berildi.

Chunki siyosiy partiyalar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun saylovlarda munosib ishtirok etishi lozim.

Siyosiy partiyalar va saylov tushunchalari o‘zaro bir-biriga bog‘liq, bir-birini taqozo qiladigan tushunchalardir. Chunki siyosiy partiyalar aynan saylovlar orqali o‘z tarafdarlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g‘oya va dasturlarini qo‘llab-quvvatlayapti bularning barchasini amalda ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi. Siyosiy partiyalarning fuqarolarni o‘z dasturiy g‘oyalariga ishontira olgani, kimning manfaatlarini ifoda qilgani, shu bilan birga, kimning ularga ergashayotgani, kimlar ishonch bildirgani faqat saylov natijalariga ko‘ra ayon bo‘ladi. Aynan saylov paytida siyosiy partiyalar o‘zlarining asosiy va ustuvor qarashlari, islohotlarni qanday amalga oshirish borasidagi g‘oyalarini ilgari suradilar.

Shuningdek, 2021-yilda Saylov kodeksiga tegishli o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi qonun bilan prezident saylovlari bo‘lib o‘tadigan kun dekabr oyidan oktyabr oyiga ko‘chirildi. Shundan kelib chiqib 2021-yil 24- oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan mustaqil O‘zbekiston tarixidagi oltinchi prezident saylovida saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan 20 million 158 ming 907 nafar saylovchidan 16 million 212 ming 343 nafari (80,4 foizi) qatnashdi.

Shuningdek, shu yildagi prezident saylovida 887 ming 686 nafar yoshlar hamda uncha og‘ir bo‘limgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan jinoyatlarni sodir etgan 8 203 nafar mahkum ham birinchi marta ovoz berishi ma’lum qilindi.

Ovozlar berilishi quyidagicha taqsimlandi: Shavkat Mirziyoyev (O‘zLiDeP) – 80,12 foiz ovoz, Maqsuda Vorisova (XDP) – 6,63 foiz ovoz, Alisher Qodirov (“Milliy tiklanish” DP) – 5,48 foiz ovoz, Narzullo Oblomurodov (Ekopartiya) – 4,14 foiz ovoz, Bahrom Abduhalimov (“Adolat” SDP) – 3,39 foiz ovoz bilan yakunlandi.

MSK joriy yilgi prezident saylovini yigirmaga yaqin xalqaro tashkilotlardan va ellikka yaqin xorijiy davlatlardan jami mingga yaqin xalqaro kuzatuvchi hamda mahalliy va xorijiy mamlakatlar ommaviy axborot vositalarining 1 ming 672 nafar vakili bevosita kuzatib va yoritib borganini qayd etib, bu O‘zbekistonda o‘tgan saylovlar tarixidagi rekord ko‘rsatkich ekanini ta’kidladi.

Bunda fuqarolar faol va munosib ishtirok etdi. Bu ham jamiyatda fuqarolik institutlarining rivojidan darak beradi.

Nazorat savollari:

- 1.O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obekti.
- 2.Faninig asosiy vazifalari.
- 3.Xarakatlar strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va ustuvor vazifalari.
- 4.O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishining bosqichlarining xususiyatlari.
5. “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari halqimizga xizmat qilsin” konseptual g‘oyasining amalga oshirish jarayonlari.

2-mavzu: “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati. (2 soat).

Reja:

- 1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi.**
- 2. Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.**
- 3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati.**

Tayanch so‘zlar: O‘z-o‘zini boshqaruv, organlarining faoliyati, jamiyatni demokratlashtirish, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, Inson haq-huquqlari, himoya qilish. Harakatlar strategiyasi, Milliy tiklanish, milliy yuksalish, rivojlanish, innovatsiya, texnologiya, strategiya, taktika, tamoyillar, invistisiya, davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligi, sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish, xavfsizlik, xalqaro totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tashqi siyosat, logistika, tadbirkorlik, davlat idoralari, geosiyosat, turizm, soliq va bojxona siyosati, qurolli kuchlar, milliy xavfsizlik, ta’lim, valyuta bozori, inson huquqlari, budjet siyosati, ijtimoiy himoya.

2.1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yo‘nalishi.

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o‘zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg‘un, or-no‘muslari ustun, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo‘lishi kishilik jamiyatni tajribalarida o‘zining isbotini topgan. Inchinun, bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligidan qiziqishiga, ma’naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviga tatbiq qilish bilan jahon hamjamiyatni integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko‘rvuchi siyosatchilar, tom ma’nodagi xalqning haqiqiy xizmatkorlari jamiyatda sodir bo‘ladigan muommolarni oldindan ilg‘ab, ularning samarali va istiqbolli yechimlarini topa bilganlar. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas’uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir “arxitektor”larning vujudga kelishi ham davrning taqoza bilan bog‘lanadi. Trumen, Cherchil, Yaponiyada Makartur, Singapurda Li Kuan Y, Xindistonda M.Gandi, Xitoyda Mao Sze-Dunlarning uzoqni ko‘ra bilishi millatning farovon kelajagini ta’minalashga erishish salohiyatlari bilan baholanadi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari ikkinchi jahon urushlari talato‘plaridan so‘ng xalqning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishda misli ko‘rilmagan ommaviy safarbarlik va jasorat na‘munalarini namoyon qilishi bilan barcha xalqlarga ibrat bo‘ldilar.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to‘g‘ri muljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O‘zbekiston ham o‘z tarixining ana shunday mas’uliyatli chorrahasida turibdi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g‘oyaga aylanmoqda. Shu ma’noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o‘rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan, o‘z-o‘zidan sovol tug‘iladi? Rivojlanish nima va u qanday ta’milanadi? Uning barcha jamiyatlar uchun umumiyoq yoxud qandaydir alohida qonuniyatlari mavjudmi? Rivojlanishni ta’minlovchi qanday ijtimoiy omillar va talablar hukmronlik qiladi? Ta’limotlarga ko‘ra, rivojlanish – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o‘tishda tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron

tasavvurlariga ko‘ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg‘unligi e’tirof etilsada, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o‘sib boradi. Ya’ni u rivojlanish obektning o‘zida mavjud bo‘lgan harakatlarga asoslanadi. Biz buni jamiyat rivojiga daxldor bo‘lgan “innovatsiya”lar, “konsepsiya”lar kabi g‘oyalar orqali ta’minlaymiz.

Bundan tashqari har qanday rivojlanish jarayoni ijtimoiy o‘zgarishdan boshlanadi. O‘zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, siyosiy soholar orqali amalga oshiriladi. Ya’ni har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinuvi natijasida sifat ko‘rsatgichlar vujudga keladi. Lekin, har qanday o‘zgarishlar rivojlanishni ta’minlamaydi. O‘zgarishlar ijtimoiy-ommaviy yaxlitlikda rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, rivojlanish jamiyat tizimining murakkablashib, takomillashuvi jarayonida tashqi sharoitlarga samarali moslashuvchanligida, voqelik ko‘laming kengayishida, biron bir sohadagi son o‘sishida va uni amalda ta’minlashning strukturaviy qurulmalarning vujudga kelishida namoyon bo‘ladi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Shuning uchun tabiiy rivojlanish jarayonlarini bosib o‘tish barcha xalqlarga xos, ammo o‘tish yo‘llarini tanlash, amalga oshirish va ta’minlash jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya’ni bu maqsadlar davlatning strategik yo‘nalishlarida o‘z ifodasini topadi. Xo‘sh shunday ekan, strategiya nima? U davlatning qanday jabhalarini qamrab oladi? Strategiya davlat va xalq manfaatlarini uyg‘unlashtirishning qanday istiqbollarini belgilab beradi?

“Strategiya” tushunchasi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib aslida “jang san’ati” ma’nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib “strategiya” keng tushuncha bo‘lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo‘llanilmoqda. Jumladan, “Davlat strategiyasi” siyosiy termenologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o‘zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo‘lib;

O‘zoqqa muljallangan rejulashtirish san’ati.

Boshqaruv va rahbarlik mahorat san’ati.

Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san’ati.

Aholini ma’lum maqsadlar sari safarbar etish san’ati.

Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san’ati.

Taqsimlash va samaradorlikni ta’minlash san’ati kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvoffaqiyatni

ta'minlaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuisiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o'zidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi. Strategiya bu – kelajak va no'malumlik parokandaligi orqali sinovdan o'tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo'naltiruvchi g'oyalar majmuasi. Bu resurs cheklanganligini baholash orqali harakatlarning to'g'ri tanlangan yo'nalishi bilan boyitilgan donishmandlik.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqiyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartarf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi. Ya'ni, "siyosat", "doktrina", "milliy manfaatlar", "milliy xavfsizlik", "modernizatsiya", "innovatsiya"lar davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, davlatning strategiyasi aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash assosida samarali boshqaruv ta'minlash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks harakatlar majmui bo'lib hisoblanadi.

Strategianing mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iborat: strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qubul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obektning yo'l ko'rsatuvchisiga, mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Boshqacha aytganda: **Strategiya + Taktika= Siyosatga teng¹.**

Davlatning strategik boshqaruvi boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusha olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos tarixi, siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy vaziyatilari mavjud. Aynan shu ijtimoiy omillar ma'lum ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltiradi. Shunga ko'ra, davlat strategiyasining universal formulasini shakllantiradigan muassasalar mavjud emas. Barcha davlatlar uchun xos bo'lgan umumiylar tajribalar ham yo'q. Ular uchun maxsus strategik komandalar, komissiyalar, tezkor guruuhlar tuziladi. Strategiya siyosiy partiyalarning dasturiy g'oyalarida yoki davlat apparati

¹ Квингт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; "TASVIR". 2018й.44 б.

tomonidan shakllantiriladi. Strategiya jamiyat tafakkur mahsuli sifatida ochiq va ommaviy yoki qattiq nazorat ostiga olingan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin. Barcha uchun muvoffaqiyatli tartibot jamiyatda turli qarashlarning shakllanishiga imkoniyat va tanqid qilishga sharoit yaratgan muhitning mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Ma’lumki, har qanday davlat mazkur vazifalarni hal etishning strukturaviy mexanizmlariga muhtoj bo‘ladi. Davlat strategiyasi – bu davlat idoralari o‘z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan maqsadlarga erishish yo‘lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir.

2.2.Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.

Davlat strategiyasi o‘z mazmuniga ko‘ra, nazariy va metodologik asoslariiga ega, rivojlanib kelayotganlar fanlardan. Bugungi kunda davlat strategiyasini amalga oshirishning tamoyillari, strukturaviy funsional asoslari rivojlangan mamlakatlar ta’limotida nazariy jihatdan muqim shakllanganligiga guvohmiz. Mazkur nazariy metodologik asoslar islohotlarning izchil yo‘nalishlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Strategik maqsadlar qanday omillar orqali erishiladi? Bu vazifa umumiy va xususiy, birlamchi va ikkinlamchi omillarni o‘zaro bog‘liq harakat qonuniyatlarini idrok etish va uyg‘un faoliyatiini ta’minalashga erishishdan boshlanadi. Hukumatlar aksariyat hollarda milliy strategik muvoffaqiyatlarni YAIMning o‘sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida deb qaraydi. Yaqin o‘tmishda davlatning birlamchi vazifalari hududlarini kengaytirish, hosildorlikni o‘stirish, oltin-neftni ko‘paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Bugun milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarlarning g‘oyaviy e’tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligi birlamchi omil sifatida qaraladi. G‘oyaviy iroda jamiyatni harakatga keltiradi. Harakasiz harajat nolga teng. Bu nomoddiy resurlarning kengayishi bilan moddiy imkoniyatlarning rivojiga xizmat qiladi. Ya’ni, ilm yangi bilimlarni vujudga keltiradi. Barqaror institutlar iqtisodning rivojiga, jamiyat institutlarining takomillashuviga, provard natijada ijtimoiy farovonlikka olib keladi. Strategik xatoga yo‘l qo‘ygan davlatlar islohotlarni iqtisodiy omillardan boshlaydi.

Davlat strategiyasining metodologik asoslari amaliy faoliyatni rejalashtirishda ma’lum nazariy meyorlarga amal qilishni taqoza qiladi.

Birinchidan, ijtimoiy voqelik va vaziyatni anglash. Davlat strategik vazifalarni qabul qilgunicha jamiyatda turg‘unlik, mavhumlik yoxud inqiroziy holatlar mavjud bo‘ladi. Strategik rejalarining qabul qilinishi bilan mazkur vaziyatning murakkab jihatlari aniqlanadi va maqsadga erishish yo‘lidagi mavjud resurslar imkoniyati baholanadi. Shunday qilib, sog‘lom pragmatik qarashlar ijtimoiy vaziyatni tan olish orqali strategik maqsadlarga olib keladi.

Ikkinchidan, vorisiylik an'anasiga amal qilish. Hukumat amaldorlarining o'zgarishi vorisiylik kafolatlarini ta'minlansa, unda jarayonlar rivojlanmaydi. Davlat organlari amaldorlarining tez-tez o'zgarishi strategik maqsadlarining shakllanmaganligidan dalolat beradi. Zero, davlat strategiyasi shu maqsadlarga muvoffiq yetakchilarni tanlashni taqozo etadi. Madomiki, shunday ekan, dastavval kadrlar tizimini shakllantirish strategik maqsadning keyingi amaliy bosqichga o'sib o'tish imkoniyatini ta'minlaydi. Inchinun, boshqaruvni samarali maqsadga xos tashkil etish strategiyaning garovi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, agar davlat e'lon qilgan strategiyasiga sobit bo'lsa, u fuqarolarda hukumatga nisbatan ishonchni uyg'otadi, mutlaqo yangi ijtimoiy qadriyatlarni taklif qiladi, jamiyatda ijtimoiy xamjihatlikning asoslarini belgilab beradi. Ya'ni barcha uchun birdek maqbul bo'lgan g'oya kerak. Bu o'z navbatida fuqaroviy safarbarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Aslida strategiya davlat va jamiyat o'rtasida o'tish davri uchun kelishuv shakli sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, davlat strategiyasi siyosiy kuchlarning faoliyatini strategik vazifalar asnosida birlashtirishni taqoza etadi. Rasmiy va oshkora yakdillik jamiyatda kuchlar muvozanatini yagona maqsad yo'lida uyg'unlashtiradi. Bundan tashqari jamiyatda guruhlar, toifalar, qatlamlar ham mushtarak maqsadlarga intilishlarini ta'minlab beradi. Muvoffaqiyasizliklarga duch kelgan tajribalardan ma'lumki, ijtimoiy o'zgarishlar yuqorida hokimiyat va mulk taqsimoti doirasidan tashqariga chiqa olmay qolib ketadi.

Beshinchidan, jamiyatda e'lon qilingan strategiya albatta tanqidga olinishi tabiiy. Faqat tanqid konstruktiv, sog'lom va asosli muammolarga qaratilishi lozim. Strategiya mavjud ekan, tanqid taktik masalalarning mohiyatiga qaratiladi va bunday holatni to'xtatish yoki unga tusiq qo'yish boshqa illatlarning kelib chiqishiga olib keladi. G'oyalar xilma-xilligi, konstruktiv muholifat, sog'lom raqobat strategik harakatlar jarayonini muolaja qolib turadi.

Zamonaviy strategiyalarning aksariyati aynan, investisiyalar orqali inson kapitaliga va u orqaliadolatli qonunlarning, ijtimoiy institutlar qoidalarini tashkil etilishiga qaratiladi. Muammo shundan iborat bo'ladiki, davlatning strategik vazifasini jamiyat a'zolari tomonidan idrok eta olmasligi yoxud aksincha jamiyat talablariga da'vatan davlat boshqaruvi tayyor bo'lmasligi natijasida millatning rivojlanish istiqbollari ro'yoga aylanadi. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning ta'mal toshi mustahkamlanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev - "Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi", deb davlat strategiyasining ustvor vazifalarini ochib beradi.

Davlat strategiyasini boshqarish tizimlarining nazariy va metodologik asoslari belgilangan uzoq va yaqin muddatli dasturlarning puxta va mukammal rejalar bilan ta'minlashda izohlanadi. Tanlangan maqsadlarning strategik rejasi, tamoyili, izchil va o'zaro bog'liq ijrosi, strukturaviy integratsiyalashuvini talab qiladi. Mazkur jarayonlar starategik boshqaruv rejasi va tamoyillari asosida ta'minlanadi. Strategik vazifalarni rejalashtir qanday me'zonlarga asoslanadi? Ular;

- tashkilot missiyasini aniqlash; tashkilotning mavjudlik mazmunini belgilash, muljallangan, yuklangan mas'uliyatlarni ifodalaydi.

- tashkilot maqsadi va vazifasini shakllantirish; xizmat ko'rsatish turining soni va sifat darajasi rag'batlantirish tizimiga asoslanib faoliyat samaradorligini belgilaydi.

- tashqi muhit ta'sirini baholash va tahlil qilish; ichki xulq-atvorning tashqi munosabatlarga kirish darajasi va natijalari, kommunakovativ holat ifodasi. U obektning holati, resurlarning mavjudligi, huquqiy-meyoriy asoslarning ta'minlanganligi, ilmiy-texnikaviy baza, ijtimoiy-madaniy muhit va infrastrukturaning layoqatlilagini tahlil etadi.

- ichki strukturani baholash va tahlil qilish; belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida ichki imkoniyat va salohiyatlarni o'rganish, hisobga olish orqali tashkilot missiyani aniq belgilash mumkin bo'ladi. Ular kadrlar salohiyati, boshqaruvni samarali tashkil etish, rejani to'g'ri moliyalashtirish va marketing bilan bog'liq bo'ladi.

- muqobil strategik tavsiyalarni ishlab chiqish va qiyoslash; mazkur yo'nalish strategik rejalashtirishning yuragi hisoblanadi. Zero, unda muqobil tavsiyalardan eng samaralisi tanlanib, maqsadga erishishning maqbul variantlari joriy etiladi.

- strategiyani amalga oshirish; bu yo'nalish eng mas'uliyatli hamda tahlikali jarayon. Agar u real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lsa, uning muvoffaqiyati ta'minlanadi. Moboda boshqacha bo'lsa, unda turg'unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto'g'ri tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, ko'tilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalan olmaslikdir.

- strategiyani baholash va nazorat qilish; bu jarayon strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omil bo'lib hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanish siklini ta'minlash jarayonida strukturaviy bo'g'indargi bog'lanish imkoniyatlarini ko'zatadi, tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zarurotda strategik rejalarни korrektirovka qiladi.²

Davlat strategik rejalarini aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysindirilishi muhim. Ular islohotlarning bir ma'romda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan;

² Шамгун Р.Н. Стратегическое планирование или управление - что выбрать?. www.cfin.ru.

1. Ilmiylik.
2. Maqsadlilik.
3. O‘zgaruvchanlik.
4. Birlik.
5. Sharoit yaratish.

Ilmiylik. Rahbar o‘z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma’lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog‘i, bundan tashqari improvizatsiya qilmog‘i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi.

Maqsadlilik. Strategiyani shakllantirish va strategiyaviy tahlillar maqsadli bo‘lishi lozim. Ya’ni davlatning ustuvor maqsadlarini bajarishga yo‘naltirilishi lozim.

O‘zgaruvchanlik. Mazkur tamoyil oldin qabul qilingan qarorni o‘zgartirish ehtimoli yoki o‘zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib xohlagan damda qayta ko‘rib chiqishi demakdir.

Birlik. Strategik dastur va rejaning uyg‘unligi. Turli darajada qarolarning mustahkam bog‘liqligi va xamjihatliligi muvoffaqiyatning shartli kafolatidir. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bug‘inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funsional bo‘lim rejalarining kelishivi bilan ta’milanadi.

Sharoit yaratish. Strategiyani amalga oshirish imkoniyatini to‘g‘diradi. Strategik rejaning mavjudligi hali muvoffaqiyatli amalga oshishini kafolatlamaydi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy sharoit yaratilishi lozim. Ular mustahkam tashkiliy struktura, rag‘batlantirish tizimi va boshqaruv tizim samaradorligini oshirishga qaratiladi.³

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past so‘ratlariga, shaxsiy mas’uliyasizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajdasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan ta’minalashga xizmat qiladi. Eng muhimi strategik yo‘nalishlarni belgilashning mavhum va noma’lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga xizmat qiladi. Bu masalalar quyidagi tamoyillar bilan aniqlashtiriladi.

- **Maqsad** – nega u yoki bu harakatlar birlamchi bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni nima uchun dolzarb va real vaziyatda, turli ijtimoiy ehtiyojlar talabida, qo‘rquv va ikkilanish sharoitida muhim vazifalarni ajratib olish kerak?

- **Tashqi sharoit** - qaysi nuqtada maqsadga erishish ko‘zda tutilmoqda. Zarur resurslar mavjudligini aniqlash va amalga oshishi lozim bo‘lgan hozirgi va kelgusidagi sharoitlar taqoza qiladimi? Hukumat ana shu ikki nisbat o‘rtasidagi omillarni qanday me’zonlar bilan tanlashi lozim?

³ Государственное стратегическое управление. Общ.ред. проф. Ю Кузнецова. Питер, 2014. С134

• **Yo‘nalish** – nimaga erishishni hoxlaymiz, belgilangan, istalgan maqsad va natijalar qanday? Bu o‘z navbatida keyingi harakatni belgilaydi:

• **Harakat** – hukumat va idoralar belgilangan maqsadga erishishning qanday rejasiga ega: strategiyada ifodasini topgan tamoyillar qanday qonunlar va dasturlarda kafolatlanmoqda, jamiyatni qanday omillar yetaklaydi, rag‘batlantiruvchi kuch nimada? Mazkur harakatlar ko‘tilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lganligi uchun strategiya ta’limga bog‘liq bo‘ladi:

• **Ta’lim** – jamiyat tasavvurlarini shakllantirish tizimi sifatida tanlangan yo‘nalishni va shuningdek, maqsadni qayta ko‘rib chiqish, imkoniyatlarni belgilash asosida qanchalik amaliy natijalarga erishilayotganligi hamda qaysi sohalarda imkoniyatlar boy berilayotganligini aniqlash, taqqoslash, qiyoslash indekatorlarini (ilmiy uslublarni)joriy etish talab etiladi.

Davlatning strategik boshqaruvi tizimi belgilangan maqsaddan kelib chiqilgan yangi yo‘nalishlarni tanlashdan, shunga muvoffiq hokimiyat organlarining qayta tashkillashtirilishidan hamda umum ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik maqsad yo‘lida jamiyat kuchlarini safarbar etish bilan belgilanadi. Davlat strategik boshqaruvi tizimi indekatorlari mazmuni quyidagi savollarga javob topishga qaratiladi.

1. Qachon, qayerda va nega?

2.Ijtimoiy va madaniy ahamiyatga molik maqsadlarni aniqlash (**nimaga?**).

3.Insoniy, tabiiy, texnik-texnologik, moliyaviy, ishlab chiqarish resurslarini aniqlash (**nima uchun, qanday qilib, nima bilan?**).

4.Aholi bunyodkorligi va tashabbuskorligini oshirishda tegishli moddiy ta’midot asoslarini yaratish (**qancha va qanday sifatda?**).

5.Malakali mutaxassislarni tayyorlash (**qancha, qanday harajat va qiyomatda?**).

6. Ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyati organlarini o‘z vaqtida isloh etish (**qanday qilib va qanday vositalar bilan?**)⁴

Davlat strategiyasining funsional vazifalari turli bo‘lishga qaramasdan, ularning mazmun-mohiyati uchta asosiy funksiyaning elementlari hisoblanadi. Ularsiz boshqaruv tizimlari, ayniqsa, strategik rahbarlik va boshqaruv tizimlari to‘liq samarali ishlay olmaydi. Bular strategik rejalashtirish, strategik rag‘batlantirish hamda strategik monitoring va nazorat.

Birinchi element aniq istiqbolli siyosatni shakllantirish jarayonini qamrab oladi. Uning dastlabki ustuni sifatida mazkur siyosatni omma e’tiboriga havola etish, ongiga singidirish, tadbiq etish vazifalarini belgilashga, imkoniyatlarni hisobga olishga qaratiladi. Ya’ni rejalashtirish.

Ikkinci element maqsadga erishish yo‘lida moddiy va ma’naviy resurslarni

⁴ Юрина А. О стратегии государственного управления. www.odn2ru.

to‘g‘ri taqsimlash, ketma-ket bog‘liq vazifalarni aniqlash orqali erishilinadi. Bunda asosiy e’tibor rejalarini amalga oshirish faoliyatini to‘g‘ri rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb qiladi.

Uchinchi element faoliyat natijalarining monitoringini tashkil qilish, samarali omillarni takomillashtirib borish, nazoratni ko‘chaytirish lozim, deb qaraydi. Mazkur unsurlar yaxlit jarayon sifatida biri ikkinchisini mustahkamlashga xizmat qiladi.⁵ Agar birinchi vazifalar ta’milanmasa, qolgan bosqichlar amalga oshmaydi. Yoki rasmiyatchilik holati vujudga keladi. Shu sababdan ushbu qonuniyatlar bir-biri bilan ziddiyatlarga ham kirishishi mumkin. Bunday vaziyatlar strategiya jamiyat sohalarini to‘liq qamrab olishga erishmaganligidan dalolat beradi. Masalan, fantazimni rivojlantirmay turib yuqori texnologiyaga erishib bo‘lmaydi. Yoki tadbirkorlik va xususiy mulk vakolatlarini kafolatlamasdan turib, iqtisodiyot, investisiya sohalarini rivojlantirib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda strategiya, bu – fundamental fan hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari va ilmiy kategoriyalari har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari asosida takomillashtiriladi hamda muvofiqlashtiriladi. Ammo, har qanday strategiya – strategiyalash ob’yektidan qat’i nazar, umumiylab tabiatga ega va, demak, umumiylab nazariy asoslarga ega bo‘lishi lozim. Shu sababli strategiyaning yaxlit tizimi milliy, mintaqaviy, sohaviy va korparativ strategiyalarni integratsiyalashuvni jarayonlaridan hosil bo‘lib boradi.⁶

2.3. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g‘oyasi va uning mohiyati.

Har bir davr o‘ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir davrning o‘z ta’limoti va yondashuv tamoyillari yuzaga keladi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo‘l-yo‘riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Rivojlanishning o‘z qonuniyatları mavjud bo‘lgani kabi, favqulotda ijtimoiy o‘zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqacha qilib aytganda, inqilobiy ta’sirni jamiyatning o‘zi inkor qiladi. Tadrijiy ta’limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg‘un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga yo‘naltirilishi, infratuzulmalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, mulkdorlar qatlamining o‘sib borishi bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta’milanadi. Shu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta’limotlarga to‘liq mos keladi. Ular respublikamizning bosib o‘tgan

⁵ Джофф Малган. Искусство государственной стратегии. М.: изд. институт Гайдара. 2011. С 232

⁶ Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й.42 б.

taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davrida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishda namoyon bo‘lmoqda. Inchinun, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining kompleks dasturini ilgari surdi. Bu hujjat «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»⁷ deb nomlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yillik tantanalariga bag‘ishlangan ma’ruzalarida muhtaram Prezident –“ Asosiy qomusimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovation va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda⁸ deb, ulkan o‘zgarishlarga dahildor yangi g‘oyalarni ilgari so‘radi.

Mazkur dastur nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa bo‘lgan munosabatini o‘zgarganligida namoyon bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ham mavjud o‘tkir muammolarga e’tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo‘llari ko‘rsatib berildi. 2017 yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e’lon qilinishi, 2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovation g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash” yillarida amalga oshirilgan islohotlar asosida «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan insonparvar g‘oya izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy chora-tadbirlari belgilandi. Bu borada davlat organlari hamda fuqarolarning o‘zaro munosabatiga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etildi. Mazkur erishilgan natijalar zaminida 2019 yil “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” sifatida davlatning strategik yo‘nalishlari yanada samarali, mustahkam va izchil qarorlar bilan boyitildi.

Ushbu vazifalar avvalo demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining ma’muriy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 yil 7 февралдаги Фармони. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривоjlantirishning бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”// Веб-сайт Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси – www.lex.uz.

⁸ Xalq сўзи. 2018 yil 8 dekabr.

nazorati mexanizmalarini amalda tadbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini oshirishga yo‘naltirilgan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga qaratiladi. Bu yo‘nalishlar qo‘yidagi strategik tamoyillarda o‘z ifodasini topdi:

O‘ZBEKISTON HARAKATLAR STRATEGIYASI

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

II. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash:

2.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish:

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish:

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish:

3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini

takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

4.4. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish:

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish: V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o‘zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokamativ vazifasini ham bajarishi mumkin. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ob‘yektiv tahlil qilish, o‘z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishslash mexanizmlarni yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilish talab etiladi.

Harakatlar strategiyasining yetaklovchi lakomativ kuch - bu davlat va uning organlari. Undan chiqdi, islohotlarning garovi va kafolati layoqatli hokimiyatning faoliyati bilan bog‘liq hodisa. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmsandan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo‘lmaydi. Modernizatsiya o‘z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko‘tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga

oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqoza qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezident Sh.Mirziyoyev “Murojaat”ida parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijo hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma’muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo’llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalg etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas’uliyatini qayta ko’rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalari belgilanadi.⁹

Boshqaruva daadolatli davlat boshqaruvi tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari – ikkinchi uzviy bog‘lanuvchi muhim tamoyil ta’minalanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalashning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud – oliv hakam sifatida jamiyatning yaxshi - yomoni, foyda – ziyonini belgilab beruvchi ma’naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan kura bunyodkorlik qilish avfzalligi ustuvorlik kasb qiladi. Shu ma’noda Prezident Sh.Mirziyoyev sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning mushtarakligini ta’minalashga qaratiladi.¹⁰

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi shubhasiz iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlash, tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovation texnologiyalarining tadbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya’ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko‘ra, yangi sifat bosqichga ko‘tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo‘ladi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёвнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёвнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni tadbiq etishni talab qiladi. Natijada mavjud salohiyatidan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘sish sur’atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o‘zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongingin in’ikosi. Fuqaro qanday ezgu amallar ma’rifati bilan qurollangan (tarbiyalangan) bo‘lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to‘lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o‘rinnarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladiki, tabiiy ravishda aholining real daromati va shunga muvoffiq ijtimoiy himoyasi, turmush darajasi ham oshib boradi.

Harakatlar strategiyasining samarali natijasi bevosita mamlakatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat samaradorligi bilan bog‘liq hodisa. Bunday deyishimizga sabab, tashqi siyosat ichki siyosatga, ichki siyosat tashqi siyosatning natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Inchinun, millat ulug‘ maqsadlari yo‘lida sobitqadam va mushtarak bo‘lsalar, faoliyat amallari yuksak bo‘lsa, bunday xalq jahon xamjamiyatning munosib a’zosiga aylanib borishi bilan o‘z qudratini ham mustahkamlab boradi.

Dasturlarda belgilangan harakatlar strategiyasi barcha yo‘nalishlari tahlili bir-biriga bog‘liq uzviy qonuniyatlar bilan bog‘langanligini ko‘rsatib turibdi. Ular davlat boshqaruvi tizimlarining murakkablashuvi asnosida fuqarolarning ijtimoiy hayotga ishtirokini soddallashtirilishida, talab va ehtiyojlarga mos ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvida, son ko‘rsatgichlarning o‘sishida, jamiyatning strukturaviy o‘zgarishlarida, ijtimoiy sohalarning rivojlanishida namoyon bo‘lmoqda. Albatta, startegiyaning muvoffaqiyatli joriy etilishi faqatgina undagi iqtisodiy va texnologik omillar bilan belgilanmaydi, bunda yetakchilar va qaror qabul qiluvchi rahbarlarning obro‘sni, insoniy fazilatlari, strategiyaga doir shijoati ham muhim rol o‘ynaydi.¹¹ Eng katta va hal etuvchi kuch – bu xalqning irodasi bo‘lib qoladi.

Nazorat savollari

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sон Farmoni qabul qilinishining bosh maqsadi va ahamiyati.
2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlat boshqaruv va jamiyat tizimi.
3. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi hokimiyatining ustuvor tamoyillari.

¹¹ Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й.41 б.

4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi hamda jamoatchilik nazoratining ahamiyati.
5. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoa tashkilotlari yoki siyosiy partiyalarning o‘rni va ahamiyati.
6. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining ixtisoslashuvi va uni yanada takomillashtirish zaruriyati.
7. Tadbirkorlik sub’yektlari huquq va manfaatlarini himoya qilishda iqtisodiy sudlar tashkil etilishining ahamiyati.
8. “Xabeas korpus” institutining mazmun-mohiyati.
9. Fuqarolar murojaatlarini hal etishda virtual qabulxonalarining o‘rni va ahamiyati.
10. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish samaradorligi.
11. Mamlakatimizda diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari va ularning ahamiyati.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati.
13. Jamiatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezoni.
14. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlashda O‘zbekistonning o‘rni.
15. Ta’lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzlusiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash borasidagi islohotlar hamda ularning ahamiyati.

3-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni. (2 soat).

Reja:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).**
- 2. Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.**
- 3. Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, olib borilayotgan chora-tadbirlar.**

Tayanch so‘zlar: Konstitutsiya, davlat boshqaruvi, mintaqaviy boshqaruv, davlat boshqaruvi usullari, boshqaruv funksiyalari, davlat organlari, boshqaruv shakli, hukumat, davlat vakolatlari, tizimli boshqaruv, funksional boshqaruv,

byurokratik apparat, veto, ishonchsizlik votumi.

3.1. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniyligi e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda alohida ta’kidlandi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Xalq - davlat hokimiyatining birdan-bir manbai O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo‘lmish parlament a’zolari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o‘laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonuning yangi tahriri bevosita umumxalq referendumida - to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qilindi. Shu ma’noda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o‘zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi bиринчи бандида «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatichiliги prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston — inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; «odamlar tashvishi bilan yashash», xalqimizning qonuniy talab-istiklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyatni institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul

qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi.

Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Ya’ni bu Konstitutsiya, tom ma’noda, o‘zbekona “Inson huquqlari to‘g‘risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

Ikkinci tamoyil - demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqat. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqda “inson qadr-qimmati” tushunchasi har bir inson hurmatga loyiq ekanini tushunishga asoslangan tenglik va shaxsiy erkinlik tushunchalari bilan uzviy bog‘liq.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarda ta’kidlanganidek, erkinlik - shaxsning o‘z huquqlarini amalga oshirishida davlat aralashuvining yo‘qligini anglatadi. Shu ma’noda, konstitutsiyaviy islohotlarda huquqiy, ijtimoiy davlat imperativini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Birdamlik, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari ustuvorligiga tayanildi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko‘paydi. Eng muhimi, Asosiy Qonunimizda birinchi marta “O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” (1-modda), degan norma belgilandi.

Ijtimoiy davlat, deganda, avvalo, o‘z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi O‘zbekistonning asosiy maqsadi - har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashdan iborat.

Uchinchi tamoyil - hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglash (avlodlar huquqlari tengligi prinsipi), shuningdek, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil intilish.

Hozirgi vaqtida ko‘pgina rivojlangan davlatlar, global iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda, o‘z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo‘limlarni kiritmoqda. Jumladan, dunyoning 100 dan ortiq davlati Konstitutsiyalarida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ehtiyojlariga javob beradigan ekologik huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari mustahkamlangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yangi xususiyatlarining tahlili bu boradagi normalar mustahkamlangani va yanada kuchaytirilganini ko'rsatadi. Xususan, Asosiy Qonunimizning 115-moddasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini, 49-moddasida esa har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash belgilangan. Davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, shuningdek, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralarni amalga oshirish sohasidagi majburiyatlari ham shular jumlasidandir.

To'rtinchchi tamoyil - davlatchiligimiz rivojinining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanish.

O'zbek xalqining tarixi asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ortiq davrni qamraydi. Yurtimiz hududida o'z davrida gullab-yashnagan - Katta Xorazm, Baqtriya, So'g'd, O'rta asrlardagi Movarounnahr, Turkiston kabi davlatlar; Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent, Xiva, Shahrisabz singari o'nlab noyob qadimiylar shaharlar jahon madaniyatida yorqin iz qoldirgan. Ana shu boy o'tmishimiz sivilizatsiya jarayonlari va falsafiy qarashlar, ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot, astronomiya, geografiya, matematika, geodeziya va arxitektura sohalari rivojiga, madaniy va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga sezilarli darajada hissa qo'shdi.

Shu bilan birga, xalqimiz tarixi, turmush tarzi va an'anaviy madaniyatida ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va huquqiy qadriyatlarni muhim o'rin tutgan. Ulug'ajdodlarimizning ma'naviy yuksalishga da'vat etuvchi ezgu amallari, diniy-axloqiy, huquqiy e'tiqodi Konstitutsiyamizni ma'naviy boyitdi.

Konstitutsiyada xalqimizga xos mehr-oqibat, o'zga millat vakillariga hurmat, bilimga intilish, or-nomus va qadr-qimmat, bag'rikenglik va hayo kabi fazilatlar o'z ifodasini topdi. Unda muqaddas Vatanimiz xalqiga xos adolat, rostgo'ylik, oljanoblik, mardlik va saxovat kabi yuksak fazilatlar ham mujassam etildi.

Beshinchchi tamoyil - O'zbekistonning jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilish.

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 142 mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan bo'lib, 100 dan ortiq xalqaro tashkilot va tuzilmalarga a'zo hisoblanadi. Shu bilan birga, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda ochiq va tinch, pragmatik va faol tashqi siyosatning mutlaqo yangi modeli amalga oshirilmoqda.

Mazkur modelning eng muhim vazifalari - milliy rivojlanish maqsadlariga so‘zsiz erishish uchun barcha ichki va tashqi resurslarni birlashtirish hamda safarbar etish, mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi muhitni shakllantirish, milliy manfaatlarni xalqaro maydonda samarali ilgari surish va izchil targ‘ib qilish hamda milliy rivojlanish maqsadlariga erishish va mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligi ortib borishini ta’minlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishdir.

Bu vazifalarni amalgalashda Yangi O‘zbekistonning barcha xorij davlatlari bilan munosabatlarni o‘rnatishda pragmatik yondashuvni mustahkamlash, ko‘p tomonlamalik tamoyilini ilgari surish, global mashuvning ijodiy jarayonlarini rivojlantirish, o‘zaro manfaatli va teng huquqli xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, davlatimizni dunyoning faol va tadbirkor mamlakatlaridan biriga aylantirishga qaratilgan tashqi siyosati asosiy omil bo‘ladi.

Buni 2017-2022-yillarda birgina BMT doirasida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta’lim, ma’naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarda 30 dan ortiq tashabbus ilgari surilgani ham tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan keyingi yillarda BMT Bosh Assambleyasining 7 ta rezolyusiyasi qabul qilindi va bularning barchasi, albatta, BMTga a’zo davlatning eng faol va samarali rahbari sifatida e’tirof etilgan Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatining bemisl muvaffaqiyatidir.

Oltinchi tamoyil - fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlash.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurish, unda tenglik va teng huquqlilik prinsiplarini hayotga tatbiq etish, fuqarolar, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitmaslik g‘oyaligiga asoslanadi. Bunda yurtimizda inson huquqlari madaniyati tobora yuksalayotgani, inson hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat ruhi shakllanayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.

3.2. Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadidan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan.

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutusiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi

tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Quyida Kun.uz nazaridagi eng muhim o‘nta yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlar hujjatdagi ketma-ketlik bo‘yicha keltirib o‘tiladi.

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlesi quyidagicha o‘zgartirilmoqda:

• *O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.*

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliv organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. **Suveren davlat** – o‘z hududida to‘la-to‘kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo‘lish demakdir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta’milchanishini ko‘zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliv organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta’milaydi.

O‘zbekiston o‘zini **ijtimoiy davlat** deb e’lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiyadolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash,adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta’lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e’tiqodidan qat’i nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozisiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy

respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

2. Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo‘sishimcha qo‘sildi:

- *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.*

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo‘llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat‘i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarmoqda:

- *Eski: Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*
- *Yangi: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko‘p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

- *Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.*

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi **avvalgi konstitutsiyada** quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

• *Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.*

• *Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.*

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo‘shildi:

• *Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.*

Huquqlar cheklanishiga doir bu me’yorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so‘z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya’ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta‘minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin.

Ta’kidlash lozim, “ijtimoiy axloq” tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo‘yicha inson huquqlari “jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida” cheklanishi bo‘yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta‘minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o‘rtasidagi oltin o‘rtalik aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o‘rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o‘tish o‘rinli. Bu modda avvalgi holida, o‘zgarishlarsiz saqlab qolindi:

• *Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.*

6. O‘qituvchilar alohida e’tirofda

Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat:

• *O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash,*

xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

- *Davlat o‘qituvchilar ning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.*

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o‘qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudylar, prokuratorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

7. Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin

O‘zbekistonda 2022 yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtida, o‘tgan yili e’lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

- *Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.*

Bosh qomusning o‘tgan yili e’lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlanı kiritish taklif etilgan edi: “*Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi*”. Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko‘rinish oldi:

- *Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.*

- *Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.*

Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo‘lgan: “*Xususiylashtirish natijalari qayta ko‘rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi*” degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o‘tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo‘q.

8. OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladi

Avvalgi konstitutsianing “Ommaviy axborot vositalari” nomli bobি bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: “*Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Syenzuraga yo‘l qo‘yilmaydi*”.

Yangi konstitutsiyaga ko‘ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi:

• *Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.*

• *Syenzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sinqilik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.*

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to‘sinqilik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJtK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinadi, lekin ularning barchasi og‘izda va qog‘ozda qolib ketmoqda.

Endilikda, referendumda qabul qilingan qonunga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi konstitutsiyaga moslashtirish dasturini 2 oy muddat ichida ishlab chiqib, parlamentga kiritishi kerak.

9. Davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo‘ldi

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

▪ **Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.** Prezidentning “davlat boshlig‘i” maqomi saqlab qolindi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo‘lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar ham o‘zgarishsiz qoldirildi. Ma’lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011 yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

▪ **Bosh vazir nomzodini endi g‘olib partiya emas, prezident taqdim etadi.** Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatosi prezident taqdim etgan nomzodni ko‘rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko‘pi ma’qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqlidir. Eslatib o‘tamiz, avvalgi tartibga ko‘ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko‘p o‘rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma’qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

▪ **Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi.** 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o‘zgarish 2024 yilda bo‘ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatosi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmslikka, o‘zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi.

▪ **Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda**

Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiylar sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o'tamiz, ishonchsizlik votumi e'lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

▪ **Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi.** Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdarlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqib ma'qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo'yicha prezident bilan maslahatlashuv o'tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo'ldi.

▪ **Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi.** Unga ko'ra, endilikda Senat qonunni ma'qullah yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz (14 kun) qoldirildi.

▪ **Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi.** Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi). Shuningdek, jiddiy voqealar ro'y berganida, ikki palata qo'shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruvi o'tkazishi mumkinligi yozib qo'yildi.

▪ **Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi.** Konstitutsiyaga qo'shilgan bu norma bo'yicha ham huquqiy sharhga zarurat bor. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "hisobdor" tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o'zlarini chiqargan qarorlari bo'yicha hisobdor bo'lmasligi odil sudlovni ta'minlashga qanday ta'sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu kabi mavxum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ'ibotida ko'p marta aytilgan va hujjatning o'zida ham belgilangan to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qonun bo'lishini savol ostida qoldiradi.

▪ **Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi** va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o‘rnbosari, Sudyalar oliv kengashining raisi va o‘rnbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo‘ldi.

Referendumda qabul qilingan qonunning **7-moddasi** bilan, barcha darajadagi davlat mansabdorlarining ayni paytga qadar egallab kelgan muddatlari nollashtirildi. Ular lavozimlarini egallab kelayotganining surunkali muddatlari sonidan qat’i nazar, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda xuddi shu lavozimlarga saylanish va tayinlanishga haqli, deb belgilandi.

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoxda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

- **viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo‘yicha;**

- **tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab.**

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to‘g‘ridan to‘g‘ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

- **mahalliy budjetni ko‘rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;**

- **hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;**

- **hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitish.**

Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- **konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish;**

- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish.

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Yuqoridagilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko'plab normalar ham qo'shilgan, jumladan:

- O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi.
- Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.
- Qonunni buzgan holda olingen dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.
- Har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.
- Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Eslatib o'tamiz, prezident Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021 yil 6 noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o'tgan edi. Davlat rahbari o'sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo'llagan tabrigida: "konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylash" zarurligini ta'kidlagan edi. 2022 yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi.

Rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992 yil 8 dekabr sanasi e'tirof etiladi, 8 dekabr – bayram sanasi o'zgarmadi.

3.3. Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Bosh qomusimiz Muqaddimasida O'zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan, «fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida» qabul qilgani alohida ta'kidlangan. Shu ma'noda, Asosiy Qonunimiz - biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo'llanma, balki milliy g'urur-iftixor, kerak bo'lsa, ushbu zaminda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya hisoblanadi.

To'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan Asosiy Qonun

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida davlat qurilishining yangi strategik maqsadi - suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat’iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Ayniqsa, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangani e’tiborga sazovor.

Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning: birinchidan, mamlakatning butun hududida oliv yuridik kuchga egaligi; ikkinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi; uchinchidan, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo‘yildi. Eski tahrirdagi matnda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga doir ushbu mexanizmlar mavjud emasdi.

Bosh qomusimizning “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” bobidagi 15-16-moddalarning yangi va eski matnidagi normalari o‘zaro qiyoslansa, bu fikrlarimiz qanchalik haqqoniy ekani o‘z tasdig‘ini topadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliv yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”. Shu o‘rinda 2023 yil 8 may kuni Prezidentimizning “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganini ta’kidlash lozim. Ushbu muhim hujjat talablari: yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish; unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish; davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish; fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta’minlash maqsadlariga qaratilgan.

Farmonda belgilanganidek, “yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliv yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llaniladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat’iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va

xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz”.

Muxtasar aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Konstitutsiyamizda Yevropa, Osiyo, Sharq va Amerika mintaqalarida joylashgan dunyo davlatlarining ijobiy konstitutsiyaviy tajribasi o'z aksini topgan. Asosiy Qonunimiz huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, ko'plab xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan sinchiklab o'rganilgan bo'lib, unga inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq normalari qo'shimcha ravishda uyg'unlashtirilgandir.

Ishonchimiz komilki, xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar xolis va to'g'ri ta'kidlaganlaridek, O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi "Inson sha'ni va qadr-qimmati uchun" tamoyili asosida xalq farovonligini yanada yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyati va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Bu yil yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami "Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi!" degan bosh g'oya asosida keng nishonlanadi. Yangi O'zbekiston hayotining turli sohalarida izchil davom etayotgan keng ko'lamli va shiddatli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ahamiyati beqiyos.

O'zbekiston Prezidentining "Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'llarini keng ochib berdi", deb ta'kidlagani zamirida g'oyat ulug'ver haqiqat mujassam. Konstitutsiyamizda davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz yangi O'zbekistonni buniyod etish yo'lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar qat'iy belgilab berilgani bu fikrning yaqqol isbotidir.

Ma'lumki, 2021-yilgi O'zbekiston Prezidenti saylovi jarayonida barcha nomzodlarning elektorat vakillari bilan uchrashuvlari chog'ida hayotiy talabdan kelib chiqqan va mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo'lgan muhim taklif ilgari surildi. Bu — konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirish.

O'z navbatida, 2021-yil 6-noyabrdagi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida so'zlagan nutqida konstitutsiyaviy islohotning nazariy asosi sifatida Yangi O'zbekiston

taraqqiyot strategiyasi belgilab berildi. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ham konstitutsiyaviy islohotga alohida bir fasl bag‘ishlangan. Unda saylovoldi uchrashuvlari paytida xalq bilan muloqot jarayonida o‘rtaga tashlangan muhim taklif va tashabbuslar, bugungi taraqqiyotimiz hamda istiqbol rejalariga oid xulosalar o‘z aksini topgan.

Shu ma’noda, O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning bosh g‘oyaviy ilhomlantiruvchisi, shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi. Konstitutsiyaviy islohotning asosiy tashabbuskori esa mamlakatimiz aholisining keng qatlamidir.

Zamonga mos harakat va o‘zgarishlarni talab etayotgan bugungi shiddatli davr mezonlariga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo‘lish — milliy davlatchilik an’analarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ishdir. Dunyo mamlakatlarining rivojlanish amaliyoti ham konstitutsiyaviy qonunchilik izchil va muttasil takomillashib borishi zarurligini ko‘rsatadi.

Huquqiy davlatda Konstitutsiya bilan jamiyat rivoji o‘rtasida uzilish bo‘lmasligi kerak. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi talabiga ko‘ra, milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda “inson — jamiyat — davlat” tamoyilini mustahkamlash lozim.

Shu ma’noda, Konstitutsiyaviy islohot — Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi taqozosiga aylandi. Binobarin, “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Konstitutsiyani jamiyatdagi bugungi real voqelikka moslashtirish yurtimizdagi izchil islohotlar talabi sifatida maydonga chiqdi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasidagi keng ko‘lamli vazifalar, xususan, adolatli va xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta’minalash kabi ulug‘vor maqsadlar bu borada zarur huquqiy asosni ta’minlovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo‘ydi.

Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishi va faoliyati

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi va Qonunchilik palatasi Kengashining 2022-yil 20-may kuni bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, uning tarkibi va vazifalari belgilandi. Komissiyaga aholining barcha qatlamidan Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni olish borasida vazifalar qo‘yildi.

Komissiya tarkibiga deputatlar, senatorlar, O‘zbekistonning barcha hududidan vakillar, fuqarolik jamiyati institatlari, huquqshunoslar, siyosatshunoslar va mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya o‘z faoliyatida “Jamiyat — islohotlar tashabbuskori” degan g‘oyaga tayandi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Konstitutsiyaviy komissiya faoliyatining uchta bosqichi aniq belgilab berildi. Shu asosda Konstitutsiyaviy komissiya:

birinchidan, Konstitutsiyani o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni qabul qilish, jamlash va tahlil qilishni tashkillashtirish;

ikkinchidan, Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ishlab chiqilgan yangilangan Konstitutsiya loyihasini keng jamoatchilik ishtirokida ko‘rib chiqish va umumxalq muhokamasini o‘tkazish;

uchinchidan, umumxalq muhokamasi natijasida maromiga yetkazilgan Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qonun loyihasini referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilish bosqichlari doirasida izchil faoliyat olib bordi.

Davlatimiz rahbari bu haqda to‘xtalar ekan, jumladan, shunday dedi: “konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi — haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘ladi”.

Shu asosda Konstitutsiyaviy komissiya konstitutsiyaviy islohotning 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendumgacha bo‘lgan barcha tashkiliy-huquqiy tadbirlarida bosh-qosh bo‘ldi.

Umumxalq muhokamalari

Birinchi navbatda, mamlakatimiz siyosiy partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari tomonidan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi atroflicha muhokama qilingani muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayni jarayonda fuqarolarimiz, keng jamoatchilik vakillari, ayniqsa, yoshlar befarq bo‘lmasdan, o‘z taklif va mulohazalari bilan faol qatnashdi.

O‘tkazilgan sosiologik tadqiqot respondentlarning 88 foizi Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish yuzasidan qanday takliflar bildirilganidan xabardor ekanini ko‘rsatdi.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Asosiy qonunimizni takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Komissiya faoliyatiga ilmiytadqiqot muassasalari, tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislari, soha ekspertlari keng jalb qilindi, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasi chuqr o‘rganildi.

Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Takliflar soni

tobora oshayotgani tufayli umumxalq muhokamasi muddati bir necha bor uzaytirildi.

Umumxalq muhokamasi davrida vazirlik, idora va tashkilotlarda, respublika bo'yicha barcha tuman va shaharlarda, shuningdek, Oliy Majlis deputatlari va senatorlar, siyosiy partiyalar, mahalliy Kengash deputatlari ishtirokida 20 mingga yaqin tadbirlar tashkil etildi. Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgarishlar hamda olib borilayotgan ishlarni aholining keng qatlamiga yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali ko'plab materiallar chiqarildi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha uchta xalqaro jamoatchilik eshituvi o'tkazildi. Bulardan biri — Konstitutsiyalarda xotin-qizlar huquqi to'g'risidagi qoidalarning aks etishi; yana biri — Konstitutsiyalarda bola huquqlarining kafolatlanishi va keyingisi — Konstitutsiyalarda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining mustahkamlanishi bilan bog'liq mavzularga bag'ishlandi.

Xalqaro jamoatchilik eshituvlarida O'zbekistonda yaratilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlar xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va bolalarning fundamental huquqlarini samarali muhofaza qilishga imkon berishi ta'kidlandi. Konstitutsiyaviy islohot davomida bu boradagi ibratli xorijiy va xalqaro tajribalarni o'rghanish muhimligiga e'tibor qaratildi.

O'z navbatida, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun talablari asosida loyiha berilgan takliflarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish ishlari davom ettirildi. Mehnat jamoalari, oliyohollar, mahalla faollari va ziyorilar bilan bo'lib o'tgan muhokamalarda ham yana qariyb 10 mingta qo'shimcha taklif kelib tushdi. Ayni paytda xalqaro-huquqiy hujjatlar va 193 davlat tajribasi o'rGANildi.

Shu tariqa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangilash bo'yicha jami 222 ming 715 ta taklif olindi. Umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan nafaqat fuqarolarning yakka tartibdagi, balki ko'plab jamoaviy takliflari ham Konstitutsiyaviy komissiyaga kelib tushdi.

Bularning hammasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlami manfaatlari inobatga olingani, yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida butun jamiyat jipslashgani, Bosh qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi bo'layotganidan dalolat beradi.

Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni Asosiy qonun matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi 7 turdag'i nazariy va amaliy, ilmiy va huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Ayniqsa, ilmiy muassasa va ta'lim tashkilotlari

yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi yuzasidan takliflar kiritish borasida alohida peshqadamlik ko'rsatdi. O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohot jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tegishli tuzilmalari, ayniqsa, faol hamkorlik qildi.

Xalqaro hamjamiyat namoyandalari O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotning o'ziga xos modelini yaratish uchun betakror tajriba to'plaganini e'tirof etdi. Asosiysi, mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohot yuqori baholanib, bu borada O'zbekistonning tutgan yo'li to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol va munosib qatnashdi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimmi, endi islohotlarimiz yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, "inson — jamiyat — davlat" degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz".

Referendum tashkil etilishi

Dastavval, 2023-yil 9-10-mart kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qaror qabul qilindi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendumni o'tkazish sanasi — 2023-yil 30-aprel deb belgilandi.

Deputatlar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining referendumni o'tkazish to'g'risidagi qarori yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi xulosasini olish to'g'risidagi masala ham qo'llab-quvvatlandi. 2023-yil 13-mart kuni mazkur qarorning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarori qabul qilindi.

Ya'ni Konstitutsiyaviy sud tomonidan tegishli Konstitutsiyaviy qonun loyihasini referendumga qo'yishga to'sqinlik qiluvchi holatlar aniqlanmadи. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini referendumga qo'yish Konstitutsiyaga muvofiq deb topildi. Konstitutsiyaviy sud qarori Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatiga yuborildi.

Shundan so'ng "O'zbekiston Respublikasining referendumni to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi 2023-yil 14-mart kuni Oliy Majlis Senatida ko'rib chiqildi. Majlisda ta'kidlanganidek, konstitutsiyaviy islohot mamlakat hayotining barcha jabhasida kechayotgan tub o'zgarishlarning uzviy qismi bo'lib, ularning mustahkam huquqiy asosini yaratadi hamda Asosiysi

qonunimizni jamiyatdagi bugungi real voqelikka va shiddatli islohotlarimiz mantig‘iga moslashtiradi.

Markaziy saylov komissiyasining tegishli qaroriga ko‘ra, referendumda ovoz beruvchilarning 84,51 foizi ishtirok etgani inobatga olinib, 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha referendum O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq haqiqiy, deb topildi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan, deb hisoblandi.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni ushbu qaror rasmiy e’lon qilinganidan keyin kuchga kirdi. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kunning o‘zida uning ijrosini tashkil etish uchun Oliy Majlis palatalariga va Prezidentga yuborildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — amalda!

O‘tgan vaqt davomida yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi doirasida mamlakatimizda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta’minalash, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo‘lga qo‘yish borasida izchil hamda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Chunki Konstitutsiya va qonun ustunligi barqaror taraqqiyotning asosiy mezoni hisoblanadi.

Bu haqda so‘z borganda, birinchi navbatda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” nomli navbatdagi kitobini alohida ta’kidlash lozim. Chunki davlatimiz rahbari ushbu salmoqli siyosiy asarida xalqimizning xohish-irodasiga binoan Asosiy Qonunimizda o‘z aksini topgan tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqarish va ularni hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan qator asosiy chora-tadbirlar haqida batafsил to‘xtalgan.

Xalqimizning xohish-irodasiga binoan yangilangan Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan hayotiy tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqarish va hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish zarur. Binobarin, O‘zbekiston Prezidenti qayd etganidek, “Biz keyingi vaqtarda “Qonun — muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!” degan ezgu tamoyilni jamiyatning har bir a’zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayotiy qoidaga aylantirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqdamiz”.

O‘zbekiston Prezidentining dasturiy ma’ruza va nutqlari hamda Farmon va qarorlari, milliy taraqqiyot strategiyalari va davlat dasturlarida yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini mamlakatimiz hayotining barcha sohasiga izchillik bilan joriy etishning tub siyosiy-nazariy mohiyati, tashkiliy-amaliy mexanizmlari chuqr ochib berilgan.

Shu o'rinda 2023-yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Unda belgilanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliv yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan to'g'ri va so'zsiz qo'llaniladi.

Farmon asosida o'nlab qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiqlashtirildi. Ushbu Farmon bilan "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi.

Bugungi kunda yangilangan Asosiy Qonunimizning konstitutsiyaviy normalari jamiyatimiz va davlatimiz, ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatimizda yashaydigan har qaysi inson hayotida amal qilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi davrda bo'lib o'tgan ikkita saylovni olib ko'raylik. Avvalambor, 2023-yili bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jamiyatimizning siyosiy yetukligini, yangi O'zbekistonni qurish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar qo'llab-quvvatlanayotganini yana bir bor baralla namoyon etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlariga 2024-yil 27-oktyabr kuni bo'lib o'tgan saylovlar — bu borada navbatdagi muhim qadamdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning zamonaviy konstitutsiyaviy normalari va umume'tirof etilgan xalqaro saylov standartlari asosida milliy saylov qonunchiligi tubdan takomillashtirilgani ushbu saylov jarayonlarining yanada ochiq va oshkora o'tishini ta'minladi.

Har ikki saylov mamlakatimizda demokratik davlatchilik amal qilayotganining yorqin namunasi bo'ldi. Ushbu muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fuqarolarning saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda, davlat organlarini milliy qonunchilik va xalqaro saylov standartlariga to'la mos ravishda demokratik tarzda shakllantirishda hamyurtlarimizning yanada faol qatnashishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qisqacha aytganda, har qanday qonun, avvalo, uni bilish va hurmat qilish, unga so'zsiz rioya etish orqali tom ma'noda qonuniylik hamda amaliylik kasb etadi. Konstitutsianing normalarini ham aynan ana shu ongli itoatkorlik harakatga keltiradi.

Bu, avvalambor, mansabdor shaxslarning ham, fuqarolarning ham Konstitutsiyani bilishlarini qat'iy talab etadi. Yuksak huquqiy madaniyasiz Konstitutsianing boy salohiyatini to'liq amalga oshirish mumkin emas. Ammo

Konstitutsiyani bilishning o‘zi bilan ham kifoyalanib bo‘lmaydi. Shu bois jamiyatda konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu ma’noda, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash bilan bog‘liq xayrli an’ana Asosiy Qonunimizda belgilangan demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirishga xizmat qilishini ta’kidlash o‘rinli. Bu borada davlat rahbarining Konstitutsiya kunini nishonlashga oid farmoyishlarini tasdiqlash amaliyoti alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu kunlarda Prezidentimizning 2024-yil 17-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan joylarda qiziqarli ma’naviy-ma’rifiy va huquqiy tadbirlar tashkil etilayotgani o‘z samarasini bermay qolmaydi. Jumladan, “Konstitutsiya oyligi” doirasida umumiyo‘rtta, o‘rtta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarida barcha o‘quvchi va talabalarni qamrab olgan holda o‘tkaziladigan Konstitutsiya darslari katta ahamiyatga ega bo‘lishi muqarrar.

Nazorat savollari

1. “O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).
2. Konstitutsiya XXI asr zamonaliviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.
3. Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, olib borilayotgan chora-tadbirlar.
4. Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishi va faoliyati
5. Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishi va faoliyati
6. Referendum tashkil etilishi.
7. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — amalda!

4-mavzu: 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institatlari. (2 soat).

Reja:

1. **2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.**
2. **“Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.**
3. **O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.**
4. **Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institatlari**

Tayanch so‘zlar: siyosiy partiya, ko‘ppartiyaviylik tizimi, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, nomarkazlashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish, nodavlat notijorat tashkilotlar, harakatlar, uchinchi sektor, yashillar, manfaatlar guruhlari, jamg‘armalar, huquqiy davlat, davlat hokimiyati, institutlar, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson manfaatlari, artikulyasiya, integratsiya, inson huquqlari, ijtimoiy tabaqa (qatlam), erkinlashtirish.

4.1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.

Strategiya - bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika - strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob‘yektning mayog‘iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning echimi bo‘yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat - bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Pandemiyadan keyingi dunyoda sodir bo‘layotgan mintaqaviy harbiy mojarolar, iqtisodiy inqirozlarning yuqori xavflari va boshqa keng ko‘lamli o‘zgarishlar davrida, sanoat, korporativ va individual munosabatlarda istalgan yuqori natijalarga erishish vositasi bu to‘g‘ri strategik rejalahtirishdir.

Strategik rejalahtirish davlat miqyosidagi maqsadlarga erishishning muhim vositasidir. Shu sababdan, so‘nggi **10 yil** ichida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davlat boshqaruvini strategik rejalahtirish tizimi keng joriy etildi.

Davlat boshqaruvini strategik rejalahtirish – mamlakat, uning mintaqalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini barqaror **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning** asosiy yo‘nalishlari, maqsadli parametrlari, ustuvor vazifalarini aniqlashdan iborat bo‘lib, buning uchun zarur bo‘lgan **dasturiy ta’midot qurilmalari** va “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga qamrab oladi.

Jahon iqtisodiyotining o‘sish darajasini o‘zaro bog‘lagan holda davlat boshqaruvi mexanizmlarini raqamlashtirishni o‘z ichiga olgan strategik

rejalashtirish yetakchi rivojlangan davlatlar: AQSH, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, makro, mezo va mikro darajada boshqaruv amaliyotiga qat’iy kirdi. Bu mamlakatlarda barcha prognozlar statistik ma’lumotlarga asoslanadi va chuqr ilmiy tahlil o’tkaziladi.

Mamlakatimizda 1997-yildan boshlab strategik xarakterdagi joriy (yillik) iqtisodiy dasturlar ishlab chiqila boshlandi. Biroq, mamlakatning uzoq muddatli strategiyasi birinchi marta 2017-yilda ishlab chiqilgan – 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi hisoblanadi. Keyinchalik yangi O‘zbekistonning **2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi** va “**O‘zbekiston – 2030**” strategiyasi qabul qilindi.

Qabul qilingan strategiyalar doirasida joriy va keyingi yillarda amalga oshirilishi rejalahtirilgan asosiy strategik islohotlar holati, davlat rahbarining doimiy nazorati ostida joriy yilning 13-fevralida tegishli taqdimot shaklida taqdim etildi.

So‘nggi yetti yil ichida asosan ijtimoiy-madaniy sektor, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, innovasion sektorni qamrab olgan **80 ta strategiya** va **islohotlar** qabul qilindi.

Biroq, ular maqsad va vazifalar, konseptual apparat nuqtai nazaridan, bir-biri bilan bog‘liq emas, ular yagona strategik rejalahtirish tizimini tashkil etmaydi. Yagona qonun hujjatlarining yo‘qligi, garchi urinishlar allaqachon qilingan bo‘lsada, 2019-yilda “Strategik rejalahtirish to‘g‘risida” gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra moliyaviy, mehnat va tabiiy resurslarni yo‘qotish, mintaqalararo nomutanosibliklarni yanada chuqurlashtirish uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Shu munosabat bilan, xorijiy mamlakatlarning (Avstraliya, Germaniya, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Gresiya, Rossiya, Belarus) jahon amaliyoti va tajribasiga asoslanib, **O‘zbekistonning 50-70 yilga mo‘ljallangan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi dasturini** qabul qilish zarurati mavjuddir. Quyida uning asosiy ustunlari aniqlanib:

1.Kelajakka yo‘naltirilgan davlat. Davlatning asosiy maqsadi uzoq muddatli qarashlar va davlat boshqaruvi organlarining faol rahbarlari ishtirokida ijtimoiy davlatni yaratishni o‘z ichiga oladi. Ya’ni har kimga munosib yashash sharoitlarini, ijtimoiy xavfsizlikni va shaxsning o‘zini o‘zi anglashi uchun teng boshlang‘ich sharoitlarni ta’minlaydigan davlat maqsadlarini tasdiqlash;

2.Shaffof va xizmat ko‘rsatuvchi hukumat. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash hamda aholi va tadbirkorlik subektlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, shu jumladan, turli xil ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, aholining barcha guruhlari uchun xizmatlar va ijtimoiy xizmatlar tizimini

yaratish;

3.Ta’limning yuqori darajasi. Mavjud ta’lim dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularning tahlili asosida talabalarining individual iste’dodlarini erta ochib berishning zamonaviy mexanizmlarini yaratish. Ta’lim muassasalarini tadbirkorlik va innovatsiyalar inkubatorlariga qayta formatlash, so‘ngra “aqli markazlari”ni yaratish. Ixtirochilar va olimlarning yangi avlodini tarbiyalash va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

4.Ilg‘or ilmiy-tadqiqot dasturlari. Barcha davlat organlarida ularning tarmoq faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha kichik ilmiy-tadqiqot guruhlarini tashkil etish va keyinchalik ularni akademiyaga aylantirish. Ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va umumlashtirish maqsadida mamlakat Prezidentiga hisobot beradigan yagona respublika organini tashkil etish;

5.Diversifikatsiyalangan iqtisodiyot. Milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirish, milliy kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va istiqbolli sohalarga, ayniqsa innovatsiyalar, tadbirkorlik va ilg‘or sohalarga istiqbolli sarmoyalar kiritish, iqtisodiyot va sanoat kelajagini belgilovchi milliy strategiyani ishlab chiqishda davlat organlari faoliyatini birlashtirish;

6.Baxtli va boy jamiyat. Ijtimoiy davlat baxtning eng yuqori darajasiga, ijobiy turmush tarziga va yuqori hayot sifatiga erishishga intiladigan boy, xavfsiz, bag‘rikeng, milliy va axloqiy jamiyatni yaratishni o‘z ichiga oladi. Aholini mahallalar ishiga keng jalb etish, o‘z xavfsiz mintaqasini yaratish, yoshlarni “Ustoz – shogirt” tamoyili asosida tarbiyalash borasidagi barcha sa’y-harakatlarni yo‘naltirish, toza va obod tuman yaratish;

7.Aholining ijtimoiy zaif toifalarini ijtimoiy himoya qilish. Aholining barcha ijtimoiy zaif toifalarini istisnosiz ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish, jamiyatning barcha a’zolari uchun ijtimoiy sug‘urtani ta’minlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu turdagи hujjatlar allaqachon xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan: **Xitoy – 2050 strategiyasi, BAAning 2071-yildagi yuz yillik rejasи, Qozog‘iston – 2050 strategiyasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur va Malayziya** va boshqa ko‘plab davlatlarda 10, 20, 30 va 40 yillarga mo‘ljallangan strategik hujjatlar qabul qilingan.

O‘zbekistonda strategik rejallashtirishni shakllantirishning yangi bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasini uzoq muddatli istiqbolli rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va vazifalarini aniqlash hamda rejallashtirishni ko‘zda tutuvchi yaxlit tizimni joriy etish, “Maqsad – harakat – natija” zanjiri asosida barcha yo‘nalishlarda faoliyatni samaradorlikka yo‘naltirish hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida davlat organlari va tashkilotlarining maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishda uyg‘unlikda harakatlanishini ta’minlash

maqsadida tegishli davlat Rahbari darajasidagi hujjat qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minalash maqsadida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni qabul qilindi. Xo‘sish ushbu farmon bilan nimalar maqsad qilingan, ushbu strategiyaning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat, ushbu maqolada shu kabi savollarga javob beramiz.

Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minalash “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining asosiy go‘yalari hisoblanadi.

Har qanday rivojlangan davlatning poydevori bu ta’limdir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham birinchi galdegisi e’tobor ta’limga qaratilgan bo‘lib, Bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minalash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish, 100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minalash, 1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish, 500 ming nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish, ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish, nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minalash, O‘zbekiston Global Innovation Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishini ta’minalash 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida belgilandi.

4.2. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

2016 yilda Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat Prezidenti etib saylanishi, Prezident tomonidan “**xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak**” prinsipini e’lon qilinishi, davlat boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati talablariga mos holga keltirish uchun “O’zbekistonda Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi”ni qabul qilinishi O’zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish maqsad va vazifalari, bu sohadagi muammolar ustida to’xtalib, quyidagi fikrlarni bildirdi: “Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o’rni va roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlash joiz. Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017 yilda ‘Nuroniy’ jamg‘armasi, Yoshlar ittifoqi, O’zbekiston fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim sa’y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o’rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo’llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta’minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig‘ilishlar o’tkazish bilan mashg‘ul bo‘lib qolmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, o’z faoliyatida burilish yasaydi, deb ishonamiz”¹².

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi farmoni bilan “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni tasdiqlanishi va uni hayotga tatbiq etilishi natijasida fuqarolik jamiyati institutlari demokratik prinsiplar asosida rivojlanishi boshladi.

“Harakatlar strategiyasi”ning “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” nomli birinchi ustuvor yo‘nalishida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish masalasi birinchi o‘rinda qo‘yilib, bir yilning o‘zida davlat boshqaruvi tizimini isloq qilish yo‘nalishida – 7 ta qonun, 3 ta farmon, 7 ta qaror va 4 ta dastur, jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish yo‘nalishida esa 6 ta qonun, bitta farmon, bitta qaror va 2 ta dastur ishlab chiqilishi belgilandi. “Harakatlar strategiyasi”ning birgina ustuvor yo‘nalishi –

¹²Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатнома. 22 декабрь 2017 й.-Т.: Ўзбекистон, 2017.-Б.34-35.

davlat va jamiyat qurilishi bo‘yicha 2017 yilning o‘zida 18 ta qonun loyihasini tayyorlandi.

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”ga binoan “hududlarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy sheriklik loyihalari bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish ko‘lamini kengaytirish, viloyatlardagi mahalliy vakillik organlari huzurida fuqarolik jamiyatni institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoat fondlarini tashkil etish”, shuningdek, “hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo‘lib, davlat hokimiyati organlari faoliyatini o‘rganib, tahlil qilishi, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda tegishli xulosalar berishi”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senating joylarda ishlarning holatini o‘rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo‘shma qarori loyihasini ishlab chiqishi” kabi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq huquqiy asoslar va amaliy o‘zgarishlar rejalarini muham ahamiyat kasb eta boshladi.

Shuningdek, Harakatlar strategisiyaga muvofiq mamlakatda “Elektron parlament” tizimini ishlab chiqish, “Elektron hukumat” tizimini yanada rivojlantirish, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish maqsadida siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish, davlat va xususiy sheriklik tushunchasi, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari, ishtirokchilari doirasi, ularning huquq va majburiyatlar, bu boradagi loyihalar amalga oshiriladigan ustuvor sohalarni tartibga soladigan huquqiy asoslar ishlab chiqish, har bir tuman (shahar)da jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha «Xalq qabulxonalari»ni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, 2018-2020 yillarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish Dasturini ishlab chiqish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatda fuqarolik jamiyatni qurish uchun shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatda fuqarolik jamiyatni qurishning muqarrar ekanligini anglatadi.

«Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari» tamoyilini ijtimoiy-siyosiy hayotga qo‘llash vositasida siyosiy hokimiyat organlarining mahalliy tizimini mustahkamlash, ularga markaziy hokimiyat vakolatlarini bir qismini berib borish asnosida nomarkazlashtirish islohotlarini o‘tkazish, ijroiya hokimiyat tizimlarini vakillik organlari va nodavlat tashkilotlari tomonidan kuchli nazorat etish mexanizmi va huquqiy asoslarini yaratishga doir islohotlarni amalga oshirish fuqarolik jamiyatni qurishning shart-sharoitlarini yaratish yo‘lidagi ilk qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillar asosidagi huquqiy asoslari shakllandi. Qisqa davr ichida mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning poydevori - konstitutsiyaviy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Islohotlar natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi. Muhimi, «uchinchi sektor» bilan davlat hamkorligi natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

XXI asr boshlariga kelib O‘zbekiston davlati va xalqi ilg‘or rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarga erkinlik bag‘ishlagan, shaxsning erkin kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan, jamiyatning hamma jabhalarini demokratiyalashtirishga qobil bo‘lgan, o‘zida xalqchil milliy meros va an’analarni ifodalagan fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi islohotlarning yangi bosqichini chuqurlashtirishga kirishdi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, Xalq davlat idoralari emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar ham o‘rin olgan bo‘lib, Mahallaning mablag‘larini aholining ovoziga ko‘ra, infratuzilma loyihamaliga yo‘naltirish amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdorini kamida 3 barobar ko‘paytirish, aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag‘larni 24 trillion so‘mga yetkazish, mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini “bir qadam”da ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirib, har bir mahallada “elektron xizmat nuqtalari”ni ishga tushirish, fuqarolarning davlat xizmatharidan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratish, davlat organlari rahbarlarining o‘zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish, davlat nazorat funksiyalarini fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini qat’iy ta’minalashga yo‘naltirish bu sohada 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida belgilandi.

Konstitutsiyamizga ko‘ra, O‘zbekiston bu ijtimoiy davlatdir. Davlat ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha bosh islohotchi hisoblanadi. Bu borada ham bir qator ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi to‘liq qamrab olinishiga erishish, ijtimoiy xizmatlarni majmuaviy amalga oshirish uchun respublikaning barcha tuman va shaharlarida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini

tashkil qilish, nogironligi bo‘lgan muhtoj shaxslarning sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta’minlash darajasini 100 foizga yetkazish, 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqasizlik madaniyatini shakllantirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish bu sohaning samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

4.3. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat kelgusi 7-yilda O‘zbekistonning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanib, 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Uning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari aholi tomonidan oson qabul qilinib, tushunish uchun qulay shaklda bayon etilgan.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Unda turli sohalardagi islohotlar, iqtisodiy o‘sish, ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashtirilishi, ekologik barqarorlikni ta’minlash va davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Strategiya xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadlariga xizmat qiladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi o‘zida quyidagi asosiy g‘oyalarni aks ettirgan:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat:

- har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;
- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

Prezident farmoni bilan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilangan. Unga ko‘ra, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalar bajarilishi ta’milanadi.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi O‘zbekistonda har bir yilga beriladigan nomlardan kelib chiqib qabul qilinadigan Davlat dasturlari asosida amalga oshirib boriladi. Strategiyani to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlarni tayyorlash va ijrosini muvofiqlashtirish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklangan.

Bugun yurtimiz hayotining barcha jahbalarida o‘zgarish, islohotlar epkini kuzatilmoqda. Yangi zamon ruhi kirib bormagan, inson manfaatiga ustuvor ahamiyat qaratilmayotgan biror-bir soha yo‘q. Ayniqsa, so‘nggi yetti yildagi tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, ularning mazmun-mohiyatida xalqimiz xohish-irodasi, yillar davomida fuqarolarning tinchlik-xotirjamligiga to‘siq bo‘layotgan og‘riqli muammolar yechimi turgani yanada ahamiyatlidir. Bir so‘z bilan aytganda, bunday tarixiy evrilishlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Mazkur islohotlar zamirida aniq va rejali maqsad, qat’iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam.

2023 yil 30 aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingani Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur hujjat yurtimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va ulkan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 11 sentyabrida imzolangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga tayanch vosita bo‘lib xizmat qildi deyish mumkin. Zero, farmon muqaddimasida “yangilangan konstitutsiyaviy-

huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda”, deb alohida ta’kidlangani beziz emas. Natijada yurtdoshlarimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minalash ustuvor maqsad sifatida belgilangani qayd etildi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqlarini yodga olsak:

“Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

Mana shunday huquqiy asosda “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uyg‘un bo‘lib, biz o‘z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to‘la va qat’iy bajarmoqdamiz”.

Ma’lumki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

O‘z navbatida, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ushbu hujjatning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minalashga qaratilgan. Strategiyada belgilangan yo‘nalishlarning barchasida aholi, ya’ni xalq va mamlakat manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yildi.

Jumladan, Strategyaning IV bobi “Qonun ustuvorligini ta’minalash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishiga bag‘ishlandi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha 16 ta maqsad (74-89-maqsadlar) doirasida 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani o‘zida qamraydi. Bunda mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, fuqarolik jamiyati institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalariga oid 41 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihibalarini tayyorlash nazarda tutilgan. Xususan, “Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar” hamda “Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimidagi islohotlar” kabi bandlarda bir qator vazifalar belgilandi:

– Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish;

– “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi – “Raqamli hukumat” tizimiga o’tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta’minlash;

– Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratish.

Muxtasar aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat yurtimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, balki uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjatdir. Unda belgilangan maqsadlarning ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanishi esa davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori inson huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy himoyani kafolatlash bilan bog‘liq xalqimiz va davlatimiz rivojlanishi tarixidan muhim joy oladigan hujjatlar bo‘ldi.

Uning muhimligi va o‘ziga hosligi shundaki, Strategiyada aks ettirilgan 5 ta asosiy g‘oyaning 4 tasi bevosa aynan aholi, fuqarolar manfaatlari bilan bog‘liq. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish borasidagi strategik maqsad-vazifalar partiyamiz oldiga qo‘ygan qator dolzarb masalalarga amaliy yechim bo‘ladi.

Strategiyadagi ustuvor yo‘nalishlardan biri har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yogda chiqarish uchun munosib sharoit yaratish masalasidir. Buning zamirida katta ezgu maqsadlar mujassamlashgan. Xususan, 2024 yil 1 yanvardan boshlab, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berilishini yo‘lga qo‘yish majburiyatini olmoqda. Bu birinchi o‘rinda farzandlarimiz salomatligiga e’tibordir. Jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetgan shaxslar, tabiiyki, sog‘lom fikrlab, hayotda o‘z o‘rnini topa oladi va yurt taraqqiyoti uchun hissa qo‘sha oladi.

Xorazm viloyatining Qo‘siko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim planshetlari bilan ta’minlanishi, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilanganligi ham yosh avlodning salohiyatini yuzaga chiqarish qanchalik muhimligini anglatadi.

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab 10-sinf o‘quvchilari uchun tegishli hududlarda talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlargacha o‘rgatish kurslari joriy etish, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy o‘rta ta’lim

muassasalari uchun “tayanch maktab” etib belgilanayotgani, ya’ni umumiyoq o‘rtalim muassasalari o‘qituvchilari “tayanch maktablar” tomonidan yangi ta’lim dasturlari, dars o‘tishning ilg‘or metodikalari va o‘quvchi bilimini baholashning zamonaviy usullariga o‘rgatilishi ta’limning umumyuksalishiga asos bo‘ladi. Bu O‘zbekistonda har bir insonning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar ta’lim olish kafolatlari mustahkamlanayotganidan dalolatdir.

Yana bir muhim masala. 2023 yil 1 oktyabrdan boshlab og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo‘lgan har bir oila bo‘yicha alohida “ijtimoiy xizmat ishi”ni yuritish tartibi amaliyatga joriy etilayotgani ham partiyamiz elektorati uchun quvonarli yangilikdir. Bu orqali ushbu oilalarda sharoitni yaxshilash, ularni davolash, dori vositalari bilan ta’minlash, farzandlarini maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlariga joylashtirish, moddiy yordam berish kabi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish nazarda tutilmoqda.

Ushbu vazifalar ijrosi to‘g‘ri tashkil etilsa, minglab oilalar, yoshlar, xotin-qizlarning og‘irini yengil qilishga erishgan bo‘lamiz. O‘z navbatida ularning ijtimoiy faolligi, farovonligi ham oshadi. Strategiyani 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorda fuqarolarning sog‘lig‘ini asrash, salomatligini tiklash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

2024 yil 1 yanvardan boshlab, virusli gepatitning “S” turi bilan kasallangan bemorlarni, gemotopoyetik suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi muolajasiga muhtoj onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni to‘liq Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan davolash yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, rehabilitatsiya hamda dori vositalari bilan ta’minlash ishlari “vaucher” tizimi asosida bosqichma-bosqich tashkil etilishi ko‘zda tutilmoqda. Bunda nogironligi bo‘lgan shaxslarga tovar va xizmatlarni o‘zları tanlagan yetkazib beruvchidan xarid qilish imkoniyati yaratilib, ularning xarajatlari Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

Natijada imkoniyati cheklangan qanchadan-qancha fuqarolar davlat va jamiyat madadiga ega bo‘ladi, o‘ziga va hayotga ishonchi mustahkamlanadi. Yillarni, butun umrini farzandini davolash uchun mablag‘ topishga sarflayotgan ota-onalar qalbiga yengillik kiradi, oxiri yo‘qdek tuyulgan muammolarga barham beriladi.

Mazkur hujjatning barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi doirasida ham qator muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, 2024 yil 1 yanvardan e’tiboran qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sug‘urtalashda sug‘urta mukofotining 50 foizi miqdorida subsidiya berish tartibi joriy etilishi belgilangan. Mana shu bitta chora ortida dunyodagi murakkab vaziyatda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash, aholini sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta’minlashdek muhim maqsad turibdi.

Xalq demokratik partiyasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan

barcha maqsad-vazifalarni qo'llab-quvvatlagan holda, birinchi navbatda ularning mazmun-mohiyatini keng aholi qatlami, elektorat vakillariga yetkazish bo'yicha choralar ko'radi. Joriy yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vazifalarning bajarilishi bilan bog'liq jarayonlarda parlamentdagi fraksiyasi, butun deputatlik korpusi va barcha darajadagi tashkilotlari hamkorligida faol ishtirok etadi.

2023 yil sentyabr oyida Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan tasiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi e'lon qilindi. Mazkur hujjat bilan mamlakat kelajagi, taraqqiyot trayektoriyasi hamda erishilishi lozim bo'lgan aniq indikatorlar belgilab berildi.

Aholimizning takliflari va fikr-mulohazalari bayon etilgan hamda keng jamoatchilik tomonidan chuqur muhokama etilgan strategiyada mamlakatimiz yoshlari uchun sifatli ta'lim tizimi, jumladan oliy ta'lim tizimi barpo etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovni kamida **50 foizga** yetkazish, ta'lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o'zgarishlar, texnologik jarayonlarga mos tashkil etish, oliygohlardagi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish orqali **10 ta** O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli "**TOP-1000**" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish hamda **30 ta** oliygochlarning ta'lim dasturlarini **xalqaro akkreditatsiyadan** o'tkazishga erishish maqsadlari belgilangan.

Shuningdek, "**TOP-500**"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda **50 ta** qo'shma ta'lim dasturlari asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish va kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan. Ushbu maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish, ularni hayotga tatbiq etish orqali xalqaro standartlarga javob beradigan hamda dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la oladigan mutaxassislarini tayyorlashga erishiladi.

Qolaversa, keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarini kamida **1 million ta** zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish, qo'shimcha **120 ming** o'rinni o'quv binolari hamda **150 ming** o'rinni talabalar turar joylarini qurish va foydalanishga topshirish natijasida oliy ta'lim muassasalarining o'quv infratuzilmasiga hamda talaba-yoshlarning turar joyga bo'lgan ehtiyojlari qoplanib, oliygochlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi.

Bularning barchasi esa yoshlarimizning intellektual salohiyatini oshirish, ularning akademik va ilmiy faoliyatini rag'batlanirishga xizmat qilishiga aminman.

Ishonaman, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlash bilan birga aholimiz hayotini yanada yaxshilash hamda yoshlarimizning ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji va talablariga mos ravishda ularni o'z sohasining yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa, Yangi mamlakat kelajagini ta'milash hamda

O‘zbekistonni barpo etishga etishga zamin yaratadi.

O‘zbekiston 10-15 yildan keyin qanday bo‘ladi, mintaqalar, tarmoqlar, hududlar kontekstida istiqbolga strategik nuqtai nazardan qarashda qanday jihatlarni hisobga olish kerak? Yangi yo‘nalishlarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, iloji bo‘lsa, shu kunlarda bashorat qilingan har qanday omillarning salbiy ta’sirini oldini olish uchun bugun nima qilish kerak? Bular yurt taqdiriga befarq bo‘lmagan inson tomonidan beriladigan savollardir. Ularning aksariyatiga javoblar “O‘zbekiston-2030” strategiyasi loyihasida berilgan. U yetti yilga mo‘ljallangan bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston” ni yaratish bo‘yicha beshta yo‘nalish va 100 ta aniq maqsadni qamrab oladi. Xalqimizning erkin va obod, qudratli Yangi O‘zbekiston qurish irodasini ta’minalash, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini yuksaltirish, sog‘lom, bilimli va ma’naviyatli avlodni voyaga yetkazish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, muhim bo‘g‘inga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida global ishlab chiqarishda, shuningdek kafolatlangan adolat , qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlik tasdiqlangan“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi., Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonida to‘plangan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan. Yangi dasturiy hujjat sodda va hamma uchun tushunarli shaklda tayyorlangan va rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 100 ta maqsadni aniq shakllantirgan. Ularning 44 tasi har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Ayni paytda ta’lim va sog‘liqni saqlash, yoshlar siyosati hamda ijtimoiy-ma’naviy sohalardagi islohotlarga e’tibor qaratilmoqda. Rivojlanishning yana bir ustuvor yo‘nalishi – barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minalash bo‘lib, shu maqsadda bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, shuningdek, aholi daromadlarini oshirish uchun bir qator ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi. Strategyaning yana bir ustuvor yo‘nalishi suv resurslarini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratishdir. Qonun ustuvorligini ta’minalash, xalqqa xizmat qiladigan davlat boshqaruvini barpo etish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan. Ular “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 16 ta maqsadida o‘z ifodasini topgan. Ta’kidlash joizki, yuqoridaq islohotlarni amalga oshirish ko‘p jihatdan yurt ichidagi tinchlikka bog‘liq. Bu masalalar faol va ochiq tashqi siyosat yuritish, milliy xavfsizlikni mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan yana bir yo‘nalishda o‘z ifodasini topdi.

Prezident o‘z saylovoldi dasturida 2030-yilgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini tubdan yaxshilash vazifasini belgilab berdi. “O‘zbekiston 2030” strategiyasida maktabgacha ta’lim, maktab, kasb-hunar va oliy ta’lim

muassasalarida yetti yil davomida erishilishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar o‘z ifodasini topgan. Xususan, 2030-yilga borib mактабгача та’лим muassasalari bilan qamrovni 80 foizdan 100 foizga oshirish rejalashtirilgan. Pedagogik kadrlar maqomini oshirish, ularning bilim va malakasini xalqaro andozalarga moslashtirish maqsadida mingdan ortiq pedagoglar xorijda malaka oshirmoqda. Shuningdek, respublikamizning chekka va borish qiyin bo‘lgan hududlaridagi 715 ta umumta’lim maktablari o‘quvchilarini bepul avtobuslar bilan ta’minalash ko‘zda tutilgan. Ushbu strategiya doirasida oliv o‘quv yurtlariga kiruvchi talabalar ulushini hozirgi 9 foizdan 50 foizga oshirish ko‘zda tutilgan. Soha uchun yana bir muhim masala oliv o‘quv yurtlarini talabalar turar joyi bilan ta’minalash masalasi ekanligini ham e’tiborga olish joiz. Shu munosabat bilan yaqin yetti yilda 150 mingta talabalar turar joyi qurilib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Aholi salomatligini mustahkamlash, sifatlari tibbiy xizmat ko‘rsatish mamlakatimizning ustuvor yonalishlaridan biridir. Hujjatda o‘rtacha umr ko‘rishni 78 yoshga yetkazish, bolalar va ayollar o‘limini kamaytirish, saraton kasalligini kamaytirish, 55 va undan katta yoshdagagi aholini yiliga kamida ikki marta profilaktik skrining va sog‘lomlashtirish dasturlarini o‘tkazish kabi asosiy vazifalar belgilangan, hamda sog‘lom turmush tarzi va to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib qilish. Bundan tashqari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ijtimoiy sohaga ham katta e’tibor qaratilgan: 2026-yilga qadar qashshoqlikni ikki baravar kamaytirish va 2030-yilga qadar uni keskin qisqartirish choralarini ko‘riladi. Sanoat rivojlanishi hisobiga ham yoshlar ishsizligining qisqarishi kutilmoqda. Biroq, bu maqsadlarning barchasiga o‘z vaqtida erishish katta miqdordagi investisiyalarni jalb qilishni talab qiladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida davlat-xususiy sheriklik doirasida 250 milliard AQSH dollari, shundan 110 milliard AQSH dollari xorijiy investisiyalar, 30 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya jalb etish ko‘zda tutilgan. Bu O‘zbekistonning tashqi sheriklar uchun ochiqligini va iqtisodiy hamkorlik sohasida hamkorlikka tayyorligini tasdiqlaydi. “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasi mamlakatimiz taqdiridan manfaatdor bo‘lgan har bir respublikamiz fuqarosi uchun muhim dasturdir. Uning maqsadi Vatan taraqqiyoti va barcha fuqarolar manfaatlarini ta’minalashdan iborat. Belgilangan maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sa’y-harakatlarni kuchaytirish, butun jamiyatning hamjihatligi zarur.

2023-yil 11-sentyabrda Prezidentning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Shu asosda tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsadni o‘z ichiga qamrab olgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya

tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalqqa xizmat qilishi shart bo‘lgan adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabi g‘oyalar aks etgan.

Strategiyadagi jami 100 ta maqsad quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha taqsimlangan.

Birinchi ustuvor yo‘nalish: Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan 44 ta maqsad, ya’ni 1-maqsaddan – 44-maqsadgacha ushbu ustuvor yo‘nalish tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim, tibbiyat, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma’naviyat masalalariga taalluqli 156 ta amaliy chora-tadbir va 70 ta vazifa qamrab olingan bo‘lib, 130 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish belgilangan. Shuningdek, 38 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash va qabul qilish ko‘zda tutilgan.

Ikkinci ustuvor yo‘nalish: Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash bilan bog‘liq 17 ta maqsad (45-61-maqsadlar) doirasidagi 68 ta amaliy chora-tadbir va 55 ta vazifani qamrab olgan. Mazkur ustuvor yo‘nalishda YAIM, budget, sanoat, investisiya, bank, “yashil iqtisodiyot”, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, eksport, monopoliyalar, IT, turizm, xizmatlar, infratuzilma, uy-joy masalalariga oid 75 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 29 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash belgilangan.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish: Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan 12 ta maqsad (62-73-maqsadlar) ushbu ustuvor yo‘nalish tarkibiga kiradi. Bunda 31 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifa qamrab olingan bo‘lib, 39 ta maqsadli ko‘rsatkich ishlab chiqiladi hamda 15 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari tayyorlanadi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish: 16 ta maqsad (74-89-maqsadlar) doirasida qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish borasida belgilab berilgan 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani o‘zida qamraydi. Bunda mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, fuqarolik jamiyatni institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalariga oid 41 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash nazarda tutilgan.

Beshinchi ustuvor yo‘nalish: “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishga qaratilgan 11 ta maqsad (90-100-maqsadlar) doirasida 63 ta chora-tadbir va 23 ta vazifa bajariladi. Xususan, tashqi siyosat, Jahon savdo tashkilotiga a’zolik, xorijdagi vatandoshlar, mehnat migratsiyasi, Qurolli kuchlar, favqulodda vaziyatlar, millatlararo totuvlik masalalariga aloqador 21 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 11 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash talab etiladi. **Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash**

“Biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024 yil yakuniga qadar kompleks qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali 2 mln aholini biznesga jalg qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali 5 mln aholining bandligini ta’minlash uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

2024 yil 1 iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlari bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalarga:

- xalqaro standartlarni joriy etish va ekologik sertifikatlash xarajatlari qoplab beriladi;

- nufuzli xalqaro brendlari ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo‘lgan barcha xom ashyolar mahalliylashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidani ozod etiladi;

- nufuzli xalqaro brendlardan jalg qilingan texnolog, dizayner, marketolog kabi mutaxassislardan O‘zbekiston hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomasi berilganligi uchun to‘lovlar undirilishi bekor qilinadi.

Hujjat bilan 2024 yil 1 maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik sub’yeqtisi uchun yangi majburiy to‘lovlar va yig‘imlarni faqatgina qonunda belgilash amaliyotini kiritish nazarda tutilgan.

Fuqarolar hayoti sifatini yaxshilash

Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi doirasida 2024 yilda:

- Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning bilimlarni baholash tizimini qo‘srimcha 1 000 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilib, fanlardagi amaliy mashg‘ulotlar ulushini 60 foizgacha oshirish;

- 6,7 mln nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida yurak-qon tomir, qandli diabet, o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash bo‘yicha profilaktik ko‘riklar tashkil etish;

- 7,5 ming nafar yoshlar zamonaviy kasblarga o‘qitilishini, xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari bo‘yicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilishini ta’minlash;

- 10 mln nafar aholini marafon va sport musobaqalarini tashkil etish orqali ommaviy sportga jalg qilish choralarini ko‘rish;

- 2024 yilda Parij shahrida o‘tkaziladigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun kamida 140 ta lisenziyani qo‘lga kiritish maqsadida 15 ta olimpiya va paraolimpiya markazida hamda Toshkent shahri, Andijon va Toshkent viloyatlaridagi 14 ta sport bazasida barcha sharoitlarni yaratish rejalashtirilmoqda.

2024/2025 o‘quv yildan boshlab:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 1 tadan tumanida (shahrida) sinov tariqasida “Mening makkabim” loyihasi amalga

oshiriladi. Buning doirasida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan maktablarga BHMning 150 barobarida mablag‘ ajratilib, ushbu mablag‘ 5–11-sinf o‘quvchilari tanloviiga ko‘ra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktablar uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilanadi;

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarini menejerlik bo‘yicha sertifikatlashtirish tizimi joriy etiladi. Bunda, direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilanib, ular har besh yilda bir marotaba attestatsiyadan o‘tkaziladi.

2025 yil 1 yanvardan boshlab Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyot hamda tarix fanlari bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan va ushbu fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo‘srimcha ustama to‘lanadi.

2024 yil 1 sentyabrdan boshlab Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida umumiy o‘rta ta’lim maktablariga olis hududlardan qatnaydigan o‘quvchilar uchun autsorsing asosida bepul avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

2024 yil yakuniga qadar ehtiyojdan kelib chiqib, viloyatlar markazlari, shuningdek, Toshkent va Nukus shaharlarida kamida bittadan og‘ir gematologik, onkologik va klinik immunologik kasalliklari bor bemorlarga palliativ yordam ko‘rsatuvchi xospislar tashkil etiladi.

Ekologik muammolar qanday hal qilinadi

Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi doirasida:

• 2024 yilda “Yashil makon” umummilliyl loyihasi doirasida kamida 200 mln tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish, respublikada 444 ta yashil bog‘lar barpo etish;

• 2024 yil 1 martga qadar suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariga Davlat byudjetidan qo‘srimcha ajratilgan 500 mlrd so‘m mablag‘lar doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash ishlarini yakunlash choralarini ko‘rish rejalashtirilmoqda. O‘zbekistonda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan **uchta strategik** taraqqiyot dasturi:

• 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi;

• 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi;

• “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi uning 5ta yo‘nalishi BMT tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘la hamohang ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu ma’noda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari uyg‘unligida o‘z oldimizga Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadimiz fikrimizning tasdiqidir.

• Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatini taqazo etib, davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 11 sentyabrida ushbu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror imzolanib, mamlakatimizning kelgusidagi taraqqiyot yo‘lining aniq yo‘nalishlari belgilab olindi.

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida:

• “Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

• Mana shunday huquqiy asosda “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uyg‘un bo‘lib, biz o‘z zimmamizga oлган barcha majburiyatlarni to‘la va qat’iy bajarmoqdamiz” degan edi.

• Ma’lumki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

• O‘z navbatida, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ushbu hujjatning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minalashga qaratilgan. Strategiyada belgilangan yo‘nalishlarning barchasida aholi, ya’ni xalq va mamlakat manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yilib, davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi borasida qat’iy pozisiyalar ifoda etilgan.

• Jumladan, Strategiyaning IV bobi “Qonun ustuvorligini ta’minalash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishiga bag‘ishlandi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha 16 ta maqsad doirasida 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani o‘z ichiga oladi.

• Bunda mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, fuqarolik jamiyati institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalariga oid 41 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash nazarda tutilgan. Xususan, “Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar” hamda “Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar” kabi bandlarda bir qator vazifalar belgilandi:

• – Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish;

• – “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi – “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta’minlash;

• – Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratish.

• Muxtasar aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat yurtimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, balki uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjatdir. Unda belgilangan maqsadlarning ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanishi esa davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonda siyosiy partiyalarga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
2. O‘zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi?
3. Nodavlat notijorat tashkilotlari deganda nimani tushunasiz?
4. Nodavlat notijorat tashkilotlarning qanday turlari mavjud?
5. O‘zbekistonda NNTga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
6. O‘zbekistonda qanday xorijiy nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritadi?
7. NNT jamiyatda qanday funksiyalarni bajaradi?
8. O‘zbekistonda NNTning rivojlanish suratlari qanday kechmoqda?

IV AMALIY MASHGULOT MATERIALARI

1-amaliy mashg‘ulot: Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

Reja:

1. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.
2. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-sherikchilik.
3. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.
4. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari. Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan - “Veyen diagrammasi”, “Konseptual jadval” interfaol usullaridan foydalilanildi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1-topshiriq: Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar

2-topshiriq: O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-sherikchilik nimalardan iborat.

3-topshiriq: O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi namunalari.

4-topshiriq: Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish

5-topshiriq: YUNESKO tashabbuskorligi bilan O‘zbekistonda o‘tkazilgan tarixiy ahamiyatga molik anjumanlar va ularning ahamiyati.

ЮНЕСКО Ўзбекистонда

ЮНЕСКОнинг Ўзбекистондаги Вакалатхонаси Ташкилотнинг Ўзбекистондаги вакиллиги ҳисоболаниб, ўз малакаси ва ваколати доирасида мамлакатнинг тараққиёт соҳасидаги саъй-ҳаракатларини қўллаб-қувватлашда эксперт кўмакни кўрсатади. ЮНЕСКО ўзининг фаолиятини БМТ Агентликларининг Ўзбекистондаги Мамлакат Гуруҳи аъзоси сифатида мамлакатдаги тараққиёт жараёнинг кўп томонлама ва икки томонлама қатнашчилари билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнататиш орқали амалга оширади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Агентликларининг Мамлакатдаги Гуруҳи таркибига Ўзбекистонда иш юритаётган БМТ вакиллари, унинг 14та ихтисослашган агентликлари ва дастурлари киради.

ЮНЕСКО тинчликни ўрнатиш, қашшокликни камайтириш, барқарор ривожланиш ва маданиятларо мuloқотни қўйидагилар орқали тарғиб қиласди:

- Таълим;
- Табиий ва ижтимоий фанлар;
- Маданият;
- Коммуникация ва ахборот;

* Ўзбекистон ЮНЕСКОга 1993 йилда аъзо бўлди. ЮНЕСКОнинг Ўзбекистондаги Вакалатхонаси эса 1996 йилда очилди.

2-amaliy mashg‘ulot: 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlari.

Reja:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari.

2. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati.

3. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).

4. Konstitutsiya XXI asr zamонавиyo O‘zbekistonining asosiy qonuni.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

5. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarining ochilishi va Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Klaster” interfaol usulidan foydalaniladi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1-topshiri. Quyidagi tayanch tushunchalarga izoh bering:** tashqi siyosat, O‘zbekistonning geosiyosiy holati, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, O‘zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash, mintaqada tinchlik, SHHT, MODHT, MDH.
- 2-topshiriq:** 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalarini **izohlang**.
- 3-topshiriq:** O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini dunyo siyosiy xaritasi orqali bayon qiling.



- 4-topshiriq:** Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati izohlang.
- 5-topshiriq:** O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023-y. 30-aprel).
- 6-topshiriq:** 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni izohlang.
- 7-topshiriq:** O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarining ochilishi va Xalq qabulxonalarining faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar.

3-amaliy mashg‘ulot: Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Reja:

1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati.
 2. O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.
 3. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.
- «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilashga oid huquqiy-normativ hujjatlarning mazmun mohiyatini o‘rganish. qabul qilinishi.
- Mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalarga assoslanib yangi pedagogik texnologiyalar: “Aqliy hujum”, “Savol-javob” va “bahs- munozara”, “Davra suhbati” metodlaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar

1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati nima?
2. O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mohiyati.
3. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish ahamiyati nimadan iborat?
4. O‘zbekistonda Xalqaro reyting va indekslar yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib boruvchi organ qaysi?

4-amaliy mashg‘ulot: Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

Reja:

1. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat.
2. Ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalardagi o‘zgarishlar.
3. Turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va

tavsiyalarga asoslanib yangi pedagogik texnologiyalar: “Savol-javob”, “Bahsmunozara”, “Muammoli vaziyat”, “Klasster”, “Davra suhbati”, “BBB” va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar

1. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat izohlang.
2. Ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalardagi o‘zgarishlar faoliyatini izohlang.
3. Turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar roli nimadan iborat.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar (jadvaldagি tushunchalar mazmun mohiyatini izohlang):

| T/r | Maqsad | 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari |
|--|--|---|
| I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH | | |
| 1.1. Ta’lim tizimi islohotlari | | |
| 1. | Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minalash. | Bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minalash orqali tarbiyanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish. 100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minalash. |
| 2. | Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish. | Olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minalash. |
| 3. | Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish. | 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish. Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish. |

| | | |
|----|---|--|
| | | <p>Ta’lim tashkilotlariga har yili 500 nafar “til egalari” bo’lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish.</p> <p>Barcha umumiyo’rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlarga o’rgatish kurslarini joriy etish.</p> <p>Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta’lim metodikasini barcha umumiyo’rta ta’lim muassasalarining o’quv jarayonlariga joriy qilish.</p> |
| 4. | Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. | <p>1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.</p> <p>Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiyo’rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o’rtacha ish haqini 2 barobar oshirish.</p> <p>500 ming nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiyo’rta ta’lim muassasalari xodimlarining malakasini uzlusiz oshirish.</p> <p>Ehtiyoj yuqori bo’lgan yo’nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta’lim yo’nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish.</p> |
| 5. | Umumiyo’rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish. | <p>Nodavlat umumiyo’rta ta’lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish.</p> <p>Kelgusi besh yilda nodavlat umumiyo’rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo’lga qo‘yish uchun 1 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish.</p> <p>2024-yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan umumiyo’rta ta’lim muassasalari qurilishi bo‘yicha shartnomalar tuzish.</p> <p>Nodavlat umumiyo’rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish.</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro</p> |

| | | |
|----|---|--|
| | | moliya institutlaridan jalg qilinadigan mablag'lar hisobidan 2 milliard dollarlik umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish. |
| 6. | Profesional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish. | <p>700 ta professional ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish.</p> <p>14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish.</p> <p>O'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo'nalishlarida 100 foizga yetkazish.</p> |
| 7. | Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish. | <p>Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish.</p> <p>Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash.</p> <p>30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.</p> <p>"Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish.</p> <p>10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1 000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.</p> <p>Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish.</p> |
| 8. | Oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, | <p>5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish.</p> <p>Qo'shimcha 120 ming o'rinali o'quv binolari hamda 150 ming o'rinali talabalar turar joylarini</p> |

| | | |
|-----|---|--|
| | ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash. | qurish. Kutubxonalarni kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish. |
| 9. | Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi bilan yo'nalishlar boyitish. | Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratish. Fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so'm ajratish. |
| 10. | Iqtisodiyotning ♦ng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish. | Amaliy tadqiqotlarga Davlat budgetidan 4 trillion so'm mablag' yo'naltirish. Iqtisodiyot tarmoqlarining "drayver" yo'nalishlarida 850 turdag'i innovation mahsulotlar ishlab chiqarish. Amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish. Transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishslash, mashinasozlik va elektronika yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish. |
| 11. | Yosh tadqiqotchilarining ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash. | 40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarining ulushini kamida 60 foizga yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqini o'rtacha 2 barobarga oshirish. Ilmiy, amaliy, innovation va startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yillik tanlovlardan sonini 20 taga yetkazish. Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish. |
| 12. | Barcha yo'nalishlarda | O'zbekiston Global Innovation Indeksida Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga |

| | | |
|--|--|--|
| | innovation faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovation tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash. | kirishini ta'minlash. Har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish. Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovation ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish. |
| 1.2. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar | | |
| 13. | Aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish. | O'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish. Tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish. Onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha erta o'limni 2,5 barobar kamaytirish. Sil kasalligi bilan kasallanish darajasini 100 ming aholiga nisbatan hozirgi 34 nafardan keskin kamaytirish. |
| 14. | Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish. | 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish. Tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish. Respublikada gemodializ o'rin joylari bilan bemorlarni to'liq qamrab olish. |
| 15. | Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish. | Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarni 2 barobarga qisqartirish. Chaqaloqlarda irsiy kasalliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovini kamida 50 foizga oshirish. |
| 16. | Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash. | Homiladorlik aniqlangan vaqtidan boshlab tug'uruqdan so'ng 42 kun ichida ayollar, go'daklar va besh yoshgacha bolalar orasidagi o'limni 2 barobarga kamaytirish. Tug'uruq o'rinlari sonini 35 foizga oshirish. 6 — 23 oylik bolalarni mikronutriyent kukuni, 2 — 10 yoshdagilari |

| | | |
|-----|---|--|
| | | <p>bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar, 3 — 15 yoshdagi bolalarni yod preparati, 15 — 35 yoshdagi xotin- qizlarni polivitamin, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlash.</p> <p>Bolalar orasidagi yuqumli va yuqumli bo'limgan kasalliklarni 20 foizga qisqartirish.</p> |
| 17. | Onkologik kasalliklarni aniqlash va ko'rsatkichini kamaytirish. | <p>30 — 69 yoshdagi aholi orasida onkologik kasalliklarni profilaktik ko'rikarda, erta bosqichlarida aniqlab, 5 yillik umr davomiyligi ko'rsatkichlarini 2 barobar oshirish, 1 yilgacha o'lim ko'rsatkichini 2 barobar kamaytirish.</p> <p>120 ming nafar onkologiyasi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlash.</p> |
| 18. | Yuqumli bo'limgan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish. | <p>Yuqumli bo'limgan kasalliklarni erta aniqlash darajasini 70 foizga yetkazish.</p> <p>Katta yoshdagi (40 yosh va undan yuqori) aholi orasida qandli diabet va arterial gipertoniya kasalliklarining erta bosqichida aniqlash ko'rsatkichini 2 barobarga oshirish.</p> <p>30 — 69 yoshdagi aholi orasida har 100 ming aholiga nisbatan yurak-qon-tomir, qandli diabet, surunkali respirator kasalliklaridan o'limni 30 foizga kamaytirish.</p> |
| 19. | Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash. | <p>Har yili 55 va undan katta yoshdagi aholini 100 foiz tibbiy profilaktik ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish.</p> <p>Katta yoshdagi (40 yosh va undan yuqori) aholi orasida jismoniy faol aholi ulushini 2 barobar oshirish.</p> |
| 20. | Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish. | <p>Me'yordan ortiq tuz iste'mol qiladigan aholi ulushini 32 foizga, yetarlicha jismoniy faollikka ega bo'limgan aholini 22 foizga, ortiqcha vaznga va semizlikka ega katta yoshdagi aholini tegishinchcha 32 foiz va 23 foizga qadar kamaytirish.</p> |

| | | |
|-----|---|---|
| | | <p>5 yoshgacha bolalar orasida bo'y o'sishi kechikishi mavjud bo'lganlar, vazn og'irligi yetishmasligi mavjudlar va ortiqcha vazni mavjud ulushini o'rtacha 2 barobarga kamaytirish.</p> <p>Ta'lim va tibbiyot muassasalariga tarkibida transyog', tuz va shakar miqdori ko'p bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, tayyorlash, sotilishini 100 foiz cheklash.</p> |
| 21. | Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish. | <p>Tibbiyot muassasalarini raqamlashtirishni 100 foizga yetkazish.</p> |

1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar

| | | |
|-----|--|---|
| | Professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish. | <p>Ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi to'liq qamrab olinishiga erishish.</p> <p>Ijtimoiy xizmatlarni majmuaviy amalga oshirish uchun respublikaning barcha tuman va shaharlarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil qilish.</p> |
| 23. | Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish. | <p>Nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarning sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish.</p> <p>Nogironligi bo'lgan shaxslarni munosib ish bilan ta'minlash orqali ular bandligini 2 barobarga oshirish.</p> <p>Nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarni reabilitatsiya xizmatlari bilan to'liq qamrab olish.</p> <p>Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mavjud infratuzilma holatini baholash tizimini joriy qilib, qulay va maqbul muhitni yaratish.</p> <p>"To'siqsiz turizm" dasturi doirasida har bir viloyatdan yiliga 1 000 nafardan nogironligi bo'lgan</p> |

| | | |
|-----|---|--|
| | | shaxslarning Samarqand, Buxoro va Xivaga be pul sayohatlarini tashkil qilish. |
| 24. | Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish. | <p>Jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka toqasizlik madaniyatini shakllantirish.</p> <p>Ota-onal qaramog'isiz qolgan bolalarni parvarishlash bo'yicha muqobil noinstitutionallashgan shakllarni joriy qilish.</p> |
| 25. | Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash. | <p>Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish.</p> <p>Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash.</p> <p>"Ayollar daftari" bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish.</p> |
| 26. | Nuroniyarlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash. | <p>Har yili 1 milliondan ortiq nuroniylar uchun respublika bo'ylab diqqatga sazovor joylar, xususan tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning so'lim go'shalariga sayohatlar tashkil etish.</p> <p>Nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar qamrovini kamida 30 foizgacha oshirish.</p> |
| 27. | Mamlakatda kambag'allik darajasi ^{♦i} qisqartirish. | <p>2026-yilga qadar kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish.</p> <p>Kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish.</p> <p>Ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash.</p> |
| 28. | Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, | Mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta'minlash orqali ishsizlik |

| | | |
|-----|--|---|
| | ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish. | <p>darajasini 7 foizgacha tushirish.</p> <p>Homiladorlik va tug‘ish, vaqtincha mehnatga qobiliyasizlik, ish beruvchi yuridik shaxs tugatilganda va tugatilayotgan korxonaning to‘lovlar uchun mablag‘lari mavjud bo‘lmagan hollarda ishdan bo‘shatish nafaqalari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatidagi sug‘urta to‘lovlarini kafolatlangan ijtimoiy sug‘urta tizimi orqali amalga oshirishni tashkil etish.</p> |
| 29. | Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. | <p>2 million nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish.</p> <p>Kasbga o‘qitish markazlarining 1,6 ming nafar o‘qituvchilarini xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish.</p> <p>Kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish.</p> |

1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar

| | | |
|-----|--|--|
| 30. | Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minalash uchun har bir viloyatda 1 tadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jaib qilish. | <p>Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minalash uchun har bir viloyatda 1 tadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jaib qilish.</p> <p>Maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minalash.</p> |
| 31. | Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish. | <p>Ilmiy va innovation faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jaib etish orqali kamida 2 million nafar yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.</p> <p>Har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish.</p> |
| 32. | Yoshlarning ijtimoiy himoyasini | 400 ming nafar yoshlarning bandligini ta’minalash va muammolarini hal etishga erishish. |

| | | |
|-----|---|---|
| | kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish. | Yoshlarning ishsizlik darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish. |
| 33. | Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish. | <p>IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta’minlash.</p> <p>Maktab o‘quvchilarini xalqaro IT bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasblarga o‘rgatish.</p> <p>“Bir million dasturchi” loyihasini kengaytirish va har yili 15 ming nafar eng iqtidoqli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.</p> |
| 34. | Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish. | <p>Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish.</p> <p>Sport bilan shug‘ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish.</p> <p>Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishi uchun kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalarini barpo etish.</p> |
| 35. | Respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish. | <p>Sport-ta’lim muassasalarida muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar sonini 1 million nafarga yetkazish.</p> <p>130 ming nafarga yaqin yoshlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishiga imkoniyat yaratish.</p> |
| 36. | Milliy jamoalarga terma yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish. | <p>2030-yil Dohada (Qatar) bo‘lib o‘tadigan navbatdagi Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarining umumiy jamoa hisobida kuchli TOP-5 talik davlatlar qatoriga kirishiga erishish.</p> <p>Razryadli va unvonli sportchilar sonini 25 ming nafarga yetkazish.</p> <p>Sport sohasida oliy ma’lumotli xodimlar ulushini 85 foizga yetkazish.</p> <p>Sohani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot va izlanishlar sonini 140 taga yetkazish.</p> |
| 37. | Olimpiya va | Olimpiya va paralimpiya o‘yinlarida |

| | | |
|---|---|---|
| | paralimpiya harakatini rivojlantirish. | kuchli 15 ta mamlakat qatoridan o‘rin egallashga erishish. |
| 1.5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar | | |
| 38. | Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash. | <p>Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash.</p> <p>Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish.</p> <p>O‘zbek xalqining milliy qadriyatları va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish.</p> <p>Ilmiy va sosiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish.</p> |
| 39. | O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish. | <p>Kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish.</p> <p>Har yili 100 ta eng yaxshi badiiy asar hamda bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 50 ta badiiy kitoblar yaratish.</p> <p>“O‘zbek adabiyoti xazinasidan” ko‘p jildlik, “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” 100 jildligini o‘zbek tilida nashr qilish.</p> <p>40 millionga yaqin kitob fondini raqamlashtirish.</p> |
| 40. | Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish. | <p>40 ta teatr binolarini ta’mirlash va jihozlash.</p> <p>6 ta yangi teatr binolarini qurish, davlat teatrlariga tomoshabinlarning yillik tashrifini 5 millionga yetkazish.</p> <p>2 ta yangi qo‘g‘irchoq teatrlarini tashkil etish.</p> <p>Zamonaviy teatr va sirk san’ati</p> |

| | | |
|-----|---|---|
| | | yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish. |
| 41. | O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish. | <p>Maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo‘nalishlarida kamida 10 ta xalqaro festival va anjumanlar o‘tkazish.</p> <p>Sohada ta’lim berishga kamida 20 nafar yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalg qilish.</p> |
| 42. | Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish. | <p>San’atshunoslik instituti, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti arxividagi 3 ming tadan ortiq arxiv materialini zamonaviy formatga o‘tkazish.</p> <p>Kamida 3 ta noyob nomoddiy madaniy meros namunasini YUNESKOning xalqaro ro‘yxatlariga kiritishga erishish.</p> <p>30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish.</p> <p>158 ta madaniy meros obektini asrashga doir ishlarni bajarish.</p> <p>Muzeylarga yillik tashrifni 5 millionga yetkazish.</p> <p>2,5 million muzey ashyosini raqamlashtirish.</p> |
| 43. | Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish. | <p>2024 — 2030-yillarda 432 ta ta’mirtalab madaniyat markazlarida xususiy sektorni jalg qilgan holda qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish.</p> <p>13 ta bolalar musiqa va san’at maktablarini jihozlash, to‘garaklar sonini 7 mingtaga yetkazish.</p> <p>Hududlarning madaniyat va istirohat bog‘larida 64 ta zamonaviy yozgi kinoteatrlar va 24 ta buk-kafelar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.</p> |
| 44. | Milliy kinematografiyanı rivojlantirish. | <p>Dunyodagi eng ommabop 10 ta internet platformasiga milliy filmlarni joylashtirish.</p> <p>2024 — 2030-yillarda 50 ta kinoloyihadan iborat davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy,</p> |

| | | |
|--|--|--|
| | | <p>madaniy va ma’naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarish hamda xorijda, xususan kinofestivallar va telekanallarda namoyish etish.</p> <p>Milliy qahramonlar haqida 10 ta multiplikasion film va seriallar ishlab chiqarish.</p> |
|--|--|--|

II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOI FAROVONLIGINI TA’MINLASH

| | | |
|-----|---|--|
| | | <p>Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish.</p> <p>Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash.</p> <p>Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflatsiyani 5-6 foiz darajasida ta’minlash.</p> <p>Iqtisodiyotda transformatsiya va institusional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investision ishbilarmonlik muhitini ta’minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish.</p> <p>Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish.</p> <p>Asosiy kapitalga kiritiladigan investisiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishini ta’minlash.</p> |
| 45. | 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish. | <p>Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo‘lgan miqdorda bo‘lishini ta’minlash.</p> <p>“Natijaga yo‘naltirilgan</p> |
| 46. | Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish. | |

| | | |
|-----|---|---|
| | | <p>budjetlashtirish” amaliyotiga o‘tish.</p> <p>“Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo‘srimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish.</p> <p>Markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma’murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirish.</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni daromadliligi va Davlat budjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo‘nalishlari bo‘yicha boshqarish tizimini joriy etish.</p> |
| 47. | Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish. | <p>Sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish.</p> <p>Qayta ishlash sanoatida mehnat unumdoorligini 2 barobar oshirish.</p> <p>Yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo‘lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin — 1,5 barobar, kumush — 3 barobar, uran — 3 barobar oshirish.</p> <p>Kon zaxiralarini baholashda ilg‘or xalqaro standartlarni keng joriy qilish.</p> <p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida yirik kimyo-polimer klasterlarini tashkil etish va yuqori qo‘silgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish.</p> <p>Avtomobilsozlik sohasida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini 1 million donaga yetkazish.</p> <p>Elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnikani ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishga 1,5 milliard dollar investisiya jalb qilish.</p> <p>Tadbirkorlarga “tayyor biznes” shaklida</p> |

| | | |
|-----|---|--|
| | | <p>bino berish mexanizmlarini nazarda tutuvchi sanoat ipotekasi tizimini joriy etish.</p> <p>Tog‘-kon metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, to‘qimachilik kabi sohalarda ilg‘or muhandislar mакtablarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yirik korxonalarda o‘zlarining kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etish.</p> <p>Metallni qayta ishslash, mashinasozlik va elektronika, transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik yo‘nalishlarida 8 ta ilmiy-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish.</p> <p>Elektrotexnika, mashinasozlik, to‘qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, metallni qayta ishslash, geologiya, energetika, biotexnologiya, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash, transport va logistika kabi yo‘nalishlarda “Izlanish va rivojlantirish” (R&D) markazlarini tashkil etish.</p> |
| 48. | Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning salohiyatini ishga solish. | <p>Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish.</p> <p>Yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish.</p> <p>Har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish.</p> <p>Respublikaning 60 ming kvadrat kilometr maydonida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish.</p> <p>To‘qimachilikda ip kalavani qayta ishslash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish.</p> |

| | | |
|-----|--|---|
| | | <p>Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va yangi turdagি energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish.</p> <p>Farmasevtika sohasida dori vositalariga ehtiyojni 70 foizga ichki ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash.</p> <p>Charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo‘shilgan qiymatni 5 barobarga oshirish.</p> <p>Mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko‘paytirish.</p> |
| 49. | Mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish. | <p>Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investisiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investisiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investisiyalarni jalb qilish.</p> <p>Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish.</p> <p>Umumiyligi 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish.</p> <p>Hududlarning investision reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish.</p> <p>Pay va vechur jamg‘armalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali portfel investisiyalar hajmini 2 barobarga oshirish.</p> <p>40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini “Xalq IPO”siga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish.</p> <p>Chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish.</p> |

| | | |
|-----|---|---|
| | | Barcha iqtisodiyot zonalarda zarur infratuzilmadan (yo‘l, elektr energiyasi, suv va oqova tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish. |
| 50. | Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish. | <p>Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish.</p> <p>Banklarni xususiyashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish.</p> <p>Banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me’yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish.</p> <p>Kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish.</p> <p>Sudga kiritilgan da’volar bo‘yicha kreditlarga oshirilgan foiz va jarima hisoblashni to‘xtatish mexanizmlarini joriy qilish.</p> |
| 51. | “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish. | <p>Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish.</p> <p>Sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish.</p> <p>3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish.</p> <p>Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonardonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.</p> <p>Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish.</p> <p>Iqlim o‘zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish.</p> <p>Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot</p> |

| | | |
|-----|--|--|
| | | birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish. |
| 52. | Iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash. | <p>Iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyoji uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdorini 120 milliard kVtga yetkazish.</p> <p>Tabiiy gaz qazib olish hajmini 62 milliard kub metrga yetkazish.</p> <p>Iqtisodiyot tarmoqlarining energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish.</p> <p>Energiya resurslari bozorini tartibga solish bo'yicha mustaqil regulyatorni tashkil etish, elektr energiyasini sotib olish, sotish va yetkazib berish funksiyalarini ajratish.</p> <p>Elektr energiyasi va tabiiy gazni taqsimlash, generatsiya qilish va iste'molchiga yetkazish infratuzilmasini modernizatsiya qilish.</p> <p>Uglevodorodlar xomashyosi zaxiralarini ko'paytirishga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlariga xorijiy investorlarni jalb qilish.</p> <p>Barcha turdagи energiya resurslari hisobini yuritishni to'liq raqamlashtirish.</p> <p>O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashiga erishish.</p> |
| 53. | O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish. | <p>Respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish.</p> <p>Shimoliy yo'nalishda temiryo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 foizga qisqartirish.</p> <p>Yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish.</p> <p>Elektrlashgan temiryo'llari ulushini 65 foizga yetkazish.</p> <p>Aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish.</p> <p>56 ming kilometr yo'llarni qurish va ta'mirlash.</p> <p>Temiryo'l, havo yo'llari transportida yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari tariflari shakllanishida bozor tamoyillariga</p> |

| | | |
|-----|---|---|
| | | <p>o‘tish hamda sohaga xususiy va xorijiy operatorlarni jalg qilish.</p> <p>Tuman markazlaridan qishloq aholi punktlarigacha jami 5,5 ming kilometr syement-beton qoplamlari yo‘llar qurish.</p> <p>Toshkent — Samarcand va Toshkent — Farg‘ona vodiysi yo‘nalishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida avtomobil yo‘llarini qurish.</p> <p>Shahar va tumanlarni jamoat transporti bilan to‘liq qamrab olish, yangi avtobuslar sonini 5 mingtaga va elekrobuslar sonini 2 mingtaga yetkazish.</p> <p>Toshkent — Samarcand, Samarcand — Navoiy — Buxoro yo‘nalishlarida yangi tezyurar temiryo‘llarini qurish, tezyurar poyezdlarda yo‘lovchi tashish sonini 2,5 barobar ko‘paytirish.</p> <p>Samaradorligi past bo‘lgan hududiy ayeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga berish.</p> <p>Respublikaning 6 ta yirik ayeroportini, shu jumladan davlat-xususiy she?iklik asosida modernizatsiya qilish va xususiy aviakompaniyalar sonini 10 taga yetkazish.</p> <p>Barcha ayeroportlarda strategik hamkorlar bilan “Ochiq osmon” rejimini joriy qilish, respublika aviaparkini 100 taga yetkazish.</p> |
| 54. | <p>Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish.</p> | <p>Bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish.</p> <p>Qishloq xo‘jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish.</p> <p>Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investisiyalarni jalg qilish.</p> <p>Hosildorlik ko‘rsatkichlarini paxta bo‘yicha o‘rtacha 45 — 50 syentnerga, g‘alla bo‘yicha — 80 — 85 syentnerga yetkazish.</p> <p>Qo‘sishma 300 ming hektar yer</p> |

maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashtirish va mazkur yerdarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish.

Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini **qayta ishslash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash.**

Respublika hududlarida **2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari** faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning eksport salohiyatini **1 milliard dollarga** yetkazish.

Yer munosabatlarini isloh qilish doirasida **yer maydonlari ijara huquqini garovga qo'yish** mexanizmini joriy qilish.

Ko'chatchilik xo'jaliklari reyestrini yuritish va **ko'chatlarni sertifikatlash** tizimini joriy qilish.

Har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy **agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni** tashkil qilish.

Dehqon va fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga barcha subsidiyalarni yagona "**Agrosubsidiya**" platformasi orqali "**bir qadam**" tamoyili asosida taqdim etish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va **chorvani sug'urta qilish tizimini** isloh qilish, **alohipa sug'urta jamg'armasini** tashkil etish va unga **100 million dollarni** jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining **50 foizini subsidiyalash** tizimini joriy qilish.

| | | |
|-----|--|---|
| | | <p>Chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta'minlash.</p> <p>Pillachilik sohasida klaster tizimi asosida 105 ming hektar yangi tutzorlarni barpo qilish va 1 milliondan ortiq yangi ish o'rinalarini yaratish.</p> |
| 55. | Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish. | <p>Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish.</p> <p>Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish.</p> <p>Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish.</p> <p>Dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish.</p> <p>"Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.</p> |
| 56. | Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish. | <p>Iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish.</p> <p>Respublikada 17 turdag'i davlat monopoliyasini bekor qilish, ushbu sohalarga xususiy sektorni keng jalb qilish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog'liq sohalarni saqlab qolish.</p> <p>Temiryo'lida tashish, avtomobil yo'llarini</p> |

qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xizmatlarini xususiy sektorga olib berish.

Irrigatsiya, chiqindilarni qayta ishslash, ijtimoiy obektlarda energetika va issiqlik ta'minoti tizimini boshqarish kabi davlat monopol sohalarida xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish.

Mahalliy tadbirkorlik subektlariga strategik foydali qazilma konlarini berish amaliyotini kengaytirish, oltin, kumush, rangli metallar, volfram, ko‘mir hamda noruda konlarga berilgan ruxsatnomalar sonini 4 barobar oshirish.

Soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida **biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil** davomida oshirilmasligini kafolatlash.

Soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, **rasmiy sektor — nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi** uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash.

Kichik va o'rta biznesning **xalqaro bozorlarga chiqishiga** imkoniyatlarni kengaytirish, **mikro moliyalashtirishni rivojlantirish**, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish.

Oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta'minlashda oddiy "**qo'l mehnati**" dan — **sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga** o'tish, uskuna sotib olish uchun imtiyozli kredit miqdorini **100 million so'mgacha** oshirish.

Tadbirkorlik subektlariga **barcha xizmatlarni "yagona darcha"** tamoyili asosida onlayn portal orqali ko'rsatish va xizmat

| | | ko‘rsatish barobarga qisqartirish. | vaqtini o‘rtacha 3 |
|-----|---|---|---------------------------------|
| 57. | Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish. | <p>Barcha aholi punktlarini internet bilan to‘liq qamrab olish va uning tezligini 10 barobar oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini 5000 Gbit/s.ga yetkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100 foizga yetkazish.</p> <p>IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish.</p> <p>BMTning Elektron hukumat reytingida top-30 talikka kirishga erishish.</p> <p>IT-park rezidentlari sonini 10 barobar oshirish, ular tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,2 foizga yetkazish va ularda yaratilgan ish o‘rinlari sonini 100 mingtaga yetkazish.</p> <p>IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi”ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari sonini 1000 taga yetkazish.</p> <p>Startap loyihalarni IT-parkning akseleratsiya (rivojlantirish) dasturi orqali qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan milliy bozor kapitallashuvini 1 milliard dollarga teng birinchi (Unicorn) startap loyihasini chiqarish.</p> <p>“Raqamli hukumat” dasturi doirasida 300 ta ustuvor loyihalarni ishga tushirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog‘i bilan qamrab olish.</p> <p>Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarni to‘liq mobil internet bilan ta’minlash.</p> | |
| 58. | O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali | <p>Xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyoohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish.</p> <p>Xususiy investisiyalarni jalb qilish hisobiga</p> | |

| | | |
|-----|---|--|
| | <p>sayyoohlar sonini oshirish.</p> | <p>respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o‘rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog‘li hududlarda 25 ta dor yo‘llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish.</p> <p>Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish.</p> <p>Xorijiy turistlar uchun barcha xalqaro ayeroportlarda respublikadan sotib olingan va rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun “Tax freye” tizimini joriy etish.</p> <p>“Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros obektini restavratsiya qilish, yodgorliklarda “o‘chiq osmon muzey”larini tashkil etish.</p> <p>Mamlakatimiz miqyosida shaharlararo avtobus qatnovini ta’minlaydigan kompaniyalarni tashkil etishni yanada rag‘batlantirish.</p> <p>Jami 1 000 dan ziyod elektr quvvatlash stansiyalari, ovqatlanish va hordiq chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini tashkil qilish.</p> |
| 59. | Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish. | <p>Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish.</p> <p>O‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta’lim, tibbiyot, yuridik, san’at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish.</p> <p>Shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarning 233 mingta bo‘sh yer</p> |

| | | |
|-----|--|---|
| | | <p>maydonlarini ausion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish.</p> <p>O‘rtalik shahar markazlarida xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalarni tashkil etish orqali 36 mingta savdo va servis obektlarini tashkil etish.</p> <p>“Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida 6 mingta savdo va servis obektlarini qurish.</p> <p>Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalgan qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish.</p> |
| 60. | Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish. | <p>Urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish choralarini ko‘rish, Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, 300 mingdan ko‘p bo‘lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish, barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish.</p> <p>Hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo‘srimcha 200 mingta oilaga mo‘ljallangan uylarni barpo etish, respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish.</p> <p>Tuman (shahar)larning bosh va master rejalarini 3 ta toifali (renovatsiya, rekonstruksiya va konservatsiya) zonalarga ajratib, soddalashtirilgan tartibda hamda aholi va tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqish amaliyotini joriy etish.</p> <p>Xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan massivlar va eskirgan uy-joylarni yangilash maqsadida keng jamoatchilik fikri asosida renovatsiya dasturlarini ishlab chiqish, aholi zich bo‘lgan hududlarda “bo‘yiga o‘stirish”</p> |

| | | |
|-----|---|---|
| | | <p>tamoyili asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish.</p> <p>Joylarda muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni qurishda hududning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishini inobatga olgan holda amalga oshirish.</p> <p>Rivojlangan davlatlarning bino-inshootlar bo‘yicha qurilish xavfsizligi me’yorlari asosida yangi standartlarni joriy qilish.</p> <p>Qurilishda montaj ishlarini baholash, tekshirish va qabul qilish tizimiga xususiy sektorni keng jalb qilish.</p> <p>Qurilishda o‘rtta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqib, yiliga 20 ming nafar professional usta tayyorlash.</p> <p>Ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obektlarini ulush kiritish asosida qurishni tartibga soluvchi qonuniy asoslarni shakllantirish.</p> |
| 61. | Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minalash. | <p>Xalqaro moliya institutlari bilan O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg‘armasini tashkil etish.</p> <p>“Infratuzilma obligatsiyalari”ni chiqarish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.</p> <p>Barcha aholi punktlarini toza ichimlik suv va oqova xizmatlari bilan kafolatli ta’minalashning moliyaviy mexanizmlarini joriy qilish.</p> <p>Suv ta’minoti korxonalarini laboratoriyalarini ichimlik suv sifatini doimiy monitoring qilish uchun zamonaviy laboratoriya jihozlari va reaktivlar bilan jihozlash.</p> <p>Markazlashgan kanalizatsiya tizimiga ega bo‘limgan chekka hududlarda mahalliy tozalash inshootlarini tashkil etishni ta’minalash.</p> |

III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

3.1. Suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar

| | | | |
|-----|---|--|----------------------------|
| | | Suv samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerkarning umumiylarini 2 mln getktargacha , shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming getktargacha yetkazish. | ishlatish |
| 62. | Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish. | <p>Tuproq qoplamlari kanallarni beton qoplama hamda ichki sug'orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koyeffisiyenti ko'rsatkichini 0,73 gacha yetkazish.</p> <p>Uzoq muddatga mo'ljallangan respublikaning suv resurslari balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring o'rnatish tizimini joriy qilish.</p> <p>Suvni qayta ishslash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan obektlarni tadbirkorlar (fermer xo'jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish.</p> <p>Qo'shi davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish.</p> <p>Suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining yillik quvvatini 300 ming getktarga yetkazish.</p> | Barcha ichimlik suv |

| | | |
|-----|--|---|
| | | <p>iste'molchilariga hisoblagichlar o'rnatishni ta'minlash.</p> <p>Ichimlik suv sifati, ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi, suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalarini samaradorlik ko'rsatkichlarini joriy etish.</p> |
| 63. | <p>Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash.</p> | <p>18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kmga yoki 46 foizgacha yetkazish.</p> <p>Melioratsiya obektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish.</p> <p>Irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va beton qoplamali kanallar ulushini 46 foizgacha yoki 13,2 ming kilometrga oshirish.</p> <p>Kuchli va o'rta sho'rangan sug'oriladigan yer maydonlarini 430,0 min♦ gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo'lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish.</p> |
| 64. | <p>Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish.</p> | <p>Kamida 100 ta yirik suv xo'jaligi obektlarida avtomatlashтирilган boshqарув tizimini joriy qilish.</p> <p>Tuyamo'yin suv ombori hajmini qo'shimcha 1 milliard kub metrga kengaytirib, 1,2 million gektarda suv ta'minotini yaxshilash va ichimlik suv zaxirasini yaratish.</p> <p>Irrigatsiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish hisobiga xususiy investisiyalar oqimini ko'paytirish.</p> |
| 65. | <p>"Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining</p> | <p>Nasos stansiyalaridagi eskirgan 1 069 ta nasos va 1 079 ta elektrosvigatellarni energiya tejamkorlariga almashtirish.</p> <p>Energiya tejamkor qurilmalar o'rnatish,</p> |

| | | |
|---|---|---|
| | elektr energiyasi iste'molini kamaytirish. | nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, ularning yillik elektr energiyasi iste'molini 30 foizga kamaytirish. Elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish hisobidan nasos stansiyalarini muqobil energiyaga o'tkazish. |
| 3.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar | | |
| 66. | Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish. | <p>Yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini o'rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilish.</p> <p>Shaharlar bosh rejalarini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda "yashil maydon"larni aholining soniga mutanosib bo'lishini ta'minlash.</p> <p>Atrof muhitga ta'sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagи obektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.</p> <p>Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish tizimini rivojlantirish.</p> <p>Qarovsiz hayvonlarni identifikasiyalash va vaksinatsiya lash tizimini joriy qilish, ularni saqlash bilan shug'ullanuvchi 14 ta pitomniklar faoliyatini yo'lga qo'yish.</p> <p>Sanoat oqova suvlari darajasi va sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda rasmiy veb-saytlarda va ommaviy axborot vositalarida jamoatchilik uchun e'lon qilib borish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> |
| 67. | Ekologik vaziyatni | Har yili 200 million tup darax♦ ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 |

| | | |
|-----|--|---|
| | barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish. | <p>foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sug‘orish tizimini yaratish.</p> <p>1 984 ta yashil bog‘lar barpo etish, shu jumladan 112 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan o‘z va tutash hududlarida uch yil davomida 30 million tup ko‘chatdan iborat “yashil belbog”lar barpo etish.</p> <p>Barcha davlat idoralari, korxonalar, ta’lim muassasalari hududlarida “yashil bog‘lari”ni tashkil etish.</p> <p>Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko‘paytirib, 5 ming gektarga yetkazish.</p> <p>“Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida ayerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.</p> <p>Shahar va tuman markazlarida har 50 — 100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil etish.</p> |
| 68. | O‘rmonlar maydonini kengaytirish. | <p>Yerlarni eroziyadan va melioratsiya obektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun 26 200 gektar ihota daraxtzorlarini barpo etish.</p> <p>Respublikada o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni 6,1 million gektarga yetkazish, daraxt va buta urug‘lari tayyorlashni 840 tonnaga oshirish.</p> <p>O‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish, cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish.</p> <p>O‘rmon xo‘jaliklari va milliy tabiat bog‘lari, tog‘li va cho‘l hududlari hamda suv obektlarining suvni muhofaza qilish zonalarida ekoturizm, tog‘, ov va safari turizmini joriy qilish.</p> |
| 69. | Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni | <p>Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 2,3 million gektarga yetkazish.</p> <p>Orol dengizining qurigan tubida</p> |

| | | |
|-----|---|--|
| | barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish. | qo'shimcha 600 ming hektar yashil maydonlarni barpo etib, ularning umumiyligi hajmini 2,6 million hektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish. “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg‘armalarning bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish. Xalqaro hamkorlar bilan “Orol dengizi havzasining quyi oqimidagi degradatsiyaga uchragan yerlar holatini yaxshilash” loyihasini amalga oshirish. |
| 70. | Iqlim o‘zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish. | Cho'llanish, qurg‘oqchilik, chang-qum bo‘ronlari va haroratning ko‘tarilishiga qarshi chora sifatida jami 600 ming hektar maydonda “yashil qoplamlar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etish. Xavfli gidrometeorologik hodisalar to‘g‘risida barvaqt ogohlantirishlar darajasini 100 foizga yetkazish, tog‘ daryolari oqimi proqnozlarining ishonchliligi darajasini 98 foizga yetkazish. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining rivojlanishi va hosildorligi haqidagi agrometeorologik proqnozlarning ishonchlilik darajasini 96 foizga yetkazish. Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 6 075 hektar yer maydonlarini rekultivatsiya qilish. Suvsizlik va qurg‘oqchilikka chidamli , har bir hududning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni 30 — 35 foizga oshirish. |
| 71. | Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini | Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, 2 million hektar hajmda tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o‘simliklarini |

| | | |
|-----|--|--|
| | ta'minlash. | <p>biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish.</p> <p>Dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklarni yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha har yili 25 ming hektar maydonda madaniy plantatsiyalarni tashkil etish.</p> <p>Hayvonot va o'simlik dunyosi obektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirish.</p> <p>Toshkent, Termiz va Farg'ona davlat hayvonot bog'larida musodara qilingan yovvoyi hayvonlarni vaqtinchalik saqlash, ularni davolash va parvarish qilish bo'yicha reabilitatsiya markazlarini tashkil etish.</p> |
| 72. | Qattiq chiqindilarni va olib xizmatlari yaxshilash. | <p>Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 100 foizga, chiqindilarni qayta ishslash darajasini 65 foizga oshirish.</p> <p>Kuydiriladigan chiqindilar ulushini 35 foizga yetkazish, maishiy chiqindi poligonlarini kamida 50 foizga qisqartirish.</p> <p>"Nol chiqindi" tizimi doirasida maishiy chiqindilarni shaharlardan olib chiqish, qayta ishslash va ulardan ekologik toza energiya va boshqa mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan klasterlar joriy etish.</p> |
| 73. | Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo'yicha keskin choralar ko'rish. | <p>Atmosferaga chiqarib tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini 10,5 foizga kamaytirish.</p> <p>Atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I va II toifaga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subektlardagi ifloslantiruvchi texnologiyalarni to'liq modernizatsiya qilish, 249 ta sanoat korxonalarida lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish.</p> |

IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar

| | | |
|----|--|--|
| | Aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'prik"ka aylantirish. | <p>Mahallaning mablag'larini aholining ovoziga ko'ra, infratuzilma loyihalariga yo'naltirish amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini kamida 3 barobar ko'paytirish.</p> <p>Aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag'larni 24 trillion so'mga yetkazish.</p> <p>Mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini "bir qadam"da ko'rsatishni yo'lga qo'yish.</p> <p>Mahallalarda aholi bilan ishslashga qaratilgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirib, har bir mahallada "elektron xizmat nuqtalari"ni ishga tushirish.</p> |
| | Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam "ovoziga" aylantirish. | <p>Hokimlarning mahalliy kengashga rahbarlik qilish amaliyotini to'liq bekor qilib, kengash raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari hamda javobgarlik doirasini aniq belgilash.</p> <p>Mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, ularning faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish.</p> <p>Mahalliy kengashlarning 300 dan ortiq funksiyalarini qayta ko'rib chiqib, o'ziga xos bo'Imaganini bekor qilish.</p> <p>Mahalliy kengashlar faoliyatiga oid 500 dan ortiq qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish.</p> |
| 76 | Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini | Viloyat va tuman (shahar) darajasidagi hokimliklar vazifa va funksiyalarining aniq chegarasini belgilash. |

| | | |
|-----|---|--|
| | transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish. | Mahalliy ijro organlarini demokratik asosida shakllantirish, ularni muddatidan oldin lavozimidan ozod etishning huquqiy asoslarini yaratish. |
| 77. | Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish. | Hokimliklarning hududiy ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilashdagi rolini oshirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar (funksiyalar) bo‘yicha “ vakolatlar reyestri ”ni shakllantirish. Hokimliklar va vazirliklar bo‘linmalarining bir-birini takrorlovchi 70 dan ortiq funksiyalarini optimallashtirish. Hokimliklarga yuklatilgan 500 dan ortiq vazifa orasidan ular faoliyatiga xos bo‘limganlarini bekor qilish. Hokimliklar faoliyatiga oid 500 dan ortiq qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish. Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish. Faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar ulushini 50 foizgacha yetkazish. Kompozit va proaktiv tarzda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini kamida 40 taga oshirish. Kamida 300 ta davlat xizmatlarini xususiy sektorga o‘tkazish. Lisenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini kamida 20 foizga qisqartirish hamda 50 foizini soddalashtirish. Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning 300 taga yaqin tartib-taomillarini soddalashtirish. Davlat xizmatlarini “ 3 qadam ”, “ foydalanuvchi uchun moslashtirilgan ”, “ barchasi bir mobil ilovada ” tamoyillari asosida raqamlashtirish. Davlat xizmatlarining 40 foizini xususiy |

| | | |
|----|---|---|
| | | <p>sektorga o‘tkazish va fuqarolarning shaxsiy ishtirokini 2 barobarga qisqartirish.</p> <p>“Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi — “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta’minlash.</p> <p>Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratish.</p> |
| 78 | Davlat boshqaruvi faoliyatini xizmatidagi tamoyili tashkil etish. | <p>Sog‘lijni saqlash, qurilish, transport, ta’lim sohalarida xususiy sektor ulushini kamida 3 barobar oshirish.</p> <p>Davlat boshqaruvida mavjud bo‘lgan 5 mingga yaqin funksiyani amalga oshirish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish.</p> <p>Majburiy talablar yagona elektron reyestriga kiritilgan majburiy talablarni kamida 20 foizga kamaytirish.</p> <p>Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funksiyalarini mahalliy ijro organlariga o‘tkazish.</p> <p>Davlat organlari rahbarlarining o‘zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo‘l qo‘ylgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish.</p> <p>Davlat nazorat funksiyalarini fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini qat’iy ta’minalashga yo‘naltirish.</p> |
| 79 | Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis | Parlament va uning organlari ish jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish, shu jumladan ular tomonidan qarorlar qabul qilish va e’lon qilish jarayonlarini 100 |

| | | |
|----|--|--|
| | palatalari va siyosiy partiylar rolini yanada oshirish. | foiz raqamlashtirish. Saylovchilar bilan elektron muloqot qilish, deputat so‘rovini elektron tarzda yuborish va nazorat qilish imkoniyatini ta’minlash. Qonunchilikka oid takliflarni kiritish va ko‘rib chiqish tartibini joriy qilish. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish. |
| 80 | Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institusional asoslarini rivojlantirish. | Qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining samarali monitoringi qamrovini 100 foizga yetkazish. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihibalarining tartibga solish ta’sirini baholash hajmini kamida 2 baravarga oshirish. Huquq tizimi raqobatbardoshligini oshirish , aholi va tadbirkorlik subektlari uchun qulay bo‘lgan sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish. |
| 81 | Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish. | Kadrlar bilan ishslash bo‘yicha 2 mingdan ortiq tarkibiy tuzilmalar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish. Davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish. |

| | | |
|----|---|--|
| | | <p>“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan davlat fuqarolik xizmati tizimini to‘liq ishga tushirish doirasida ushbu tizim bilan 70 dan ziyod davlat organlari qamrab olinishini ta’minlash.</p> <p>Milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida ming nafarga yetkazish.</p> <p>Davlat organlari rahbarlari va ularning o‘rnbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.</p> |
| 82 | Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish. | <p>Davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog‘oz shaklida ro‘yxatga olish amaliyotini bekor qilish.</p> <p>Barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy bo‘linmalariga elektron shaklda, shu jumladan tegishli mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish.</p> <p>Murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini ta’minlash.</p> <p>Takroriy murojaatlar ulushini kamida 2 barobar qisqartirish.</p> <p>Hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o‘zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish.</p> <p>Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdar shaxslarining qabullarida masofadan videoaloqa vositasida ishtirok etish imkoniyatlarini 100 foizga yetkazish.</p> |
| 83 | Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish. | <p>Ommaviy axborot vositalarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirib, ularning professional faoliyatiga to‘sinqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish.</p> <p>Ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishning kafolatli ta’minlash.</p> |

| | | |
|---|--|--|
| | | <p>Ijtimoiy sheriklikda amalga oshiriladigan loyihalar sonini kamida 3 baravarga ko‘paytirish.</p> <p>Davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat-tashkilotlari sonini kamida 80 taga yetkazish.</p> |
| 4.2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar | | |
| 84 | Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish. | <p>Aholi punktlarida ikki va undan ortiq polosali tartibga solinmagan piyodalar o‘tish yo‘laklarini (tugmali) svetoforlar bilan to‘liq jihozlash.</p> <p>Ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirish.</p> <p>Sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim prosessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobarga oshirish.</p> |
| 85 | Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma’muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish. | <p>Ma’muriy sndlarga bevosita murojaat qilishga to‘sinqlik qilayotgan omillarni to‘liq bartaraf etish.</p> <p>Sudga qadar bosqichda nizolarni hal qilish samaradorligini 50 foizga oshirish.</p> <p>Sudga qadar hal etilishi mumkin bo‘lgan nizolar yuzasidan sndlarga kelib tushadigan ishlar sonini 50 foizga kamaytirish.</p> <p>Ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarini yo‘l harakatini tartibga soluvchi belgilar va ishoralarga to‘liq tatbiq etish.</p> |
| 86 | Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish. | <p>Ma’muriy huquqbazarliklarga oid ishlarni ko‘rib chiqish natijalari ustidan sndlarga yuborilayotgan shikoyatlarning 50 foizini elektron shaklda kelib tushishiga erishish.</p> <p>Tadbirkorlik subektlariga nisbatan ko‘rilayotgan jinoyat ishlarining 100 foizida himoyachi yoki jamoat himoyachisi ishtirokini ta’minlashga erishish.</p> |

| | | |
|----|--|--|
| | | <p>Sud tizimini boshqarishga sudyalarining o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini to‘laqonli joriy etish hamda sudyalar hamjamiyati organlari tizimini to‘liq shakllantirish.</p> <p>Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksi bo‘yicha 0,64 ballni to‘plashga erishish.</p> <p>Boshqaruv sifati indikatorlarining Huquq ustuvorligi yo‘nalishi bo‘yicha 61,5 ballni to‘plashga erishish.</p> |
| 87 | Huquqni muhofaza organlarning faoliyatini manfaatlari, qimmati huquqlarini qilishga yo‘naltirish. | <p>Yagona elektron reyestr yaratish orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo‘lgan jarayonni individual raqam va QR kodi orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy qilish.</p> <p>Dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish.</p> <p>Sud va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ishlar toifasining kamida 30 foizini xususiy sektor yordamida ijro etishni yo‘lga qo‘yish.</p> <p>Jiddiy oqibatlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari sonini kamida 50 foizga kamaytirish.</p> <p>100 foiz jinoyat ishlari va materiallarning elektron shakldagi nusxasini yuritish va ushbu ishlar bo‘yicha elektron hujjat almashinuvini ta‘minlash.</p> |
| 88 | Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish. | <p>Advokatura institutini o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta‘minlash.</p> <p>Advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobililik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish.</p> |

| | | |
|----|--|---|
| | | Advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko‘paytirish. Fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy ishlar bo‘yicha advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o‘rtasida elektron hujjatlar almashinuvi darajasini kamida 50 foizga yetkazish. |
| 89 | Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish. | “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish. Davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish. 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “ korrupsiyadan xoli qonunchilik ” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash. |

V. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH

5.1. Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha islohotlar

| | | |
|-----|---|--|
| 90. | Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish. | Dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo‘shnichilik tashqi siyosati olib borilishini izchil davom ettirish. Hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o‘rnatish. |
|-----|---|--|

| | | |
|-----|---|--|
| | | Barcha qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo'nalishlardagi ikki va ko'p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish. |
| 91. | Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish. | <p>Mintaqada turli ustuvor yo'nalishlar, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish.</p> <p>Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish.</p> <p>Markaziy Osiyo davlatlari hududida fuqarolar erkin harakati, shuningdek, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun'iy cheklovzlarsiz aylanishiga bosqichma-bosqich erishish, shuningdek, umumiyy sayyoqlik makonini shakllantirish ishlarini davom ettirish.</p> <p>Afg'oniston bilan ko'p qirrali va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko'maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shish.</p> |
| 92. | An'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish | <p>Milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish.</p> <p>MDH mamlakatlari bilan an'anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklik aloqalarini bundan buyon ham samarali kengaytirib borish.</p> <p>Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investisiyaviy va</p> |

| | | |
|-----|---|--|
| | zanjirlariga qo'shilish. | <p>tehnologik hamkorlikni rivojlantirish, keng ko'lamli sheriklik va amaliy hamkorlikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash.</p> <p>Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, mintaqa bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini ko'paytirish hamda mamlakatimizga investisiyalar oqimini oshirish.</p> <p>Janubiy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Afrika mintaqasidagi mamlakatlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish, yangi va istiqbolli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, keng mintaqalarni bog'lovchi va O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish.</p> <p>Amerika mamlakatlari, xususan, AQSH bilan yangi davrda strategik sheriklik va har tomonlama hamkorlik aloqalarini tobora kengaytirish, investisiya, eksport va ilg'or texnologiyalar sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish.</p> |
| 93. | Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish. | <p>Milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini Jahon savdo tashkilotining qoida, me'yor va bitimlariga moslashtirish.</p> <p>Yiliga kamida 10 ta xorijiy davlat bilan bozorga kirish muzokaralarini yakunlash.</p> <p>Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo'yicha muzokaralarini tizimli olib borish va a'zo bo'lish jarayonini samarali yakuniga yetkazish.</p> |
| 94. | Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish. | <p>Vatandoshlar tomonidan tashkil etilgan jamoat birlashmalari faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish va ularning sonini 300 taga yetkazish.</p> <p>O'zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san'at va hunarmandchilik yo'nalishidagi oliygochlarda xorijdagi vatandoshlar uchun 200</p> |

| | | |
|-----|---|---|
| | | <p>ta grant ajratish.</p> <p>Vatandoshlar ishtirokida tibbiyot, ta’lim va ilm-fan sohalarida 100 ta loyihani amalga oshirish.</p> <p>Vatandoshlar jamoat birlashmalariga yetkazib beriladigan badiiy adabiyotlar sonini 100 mingtaga oshirish.</p> |
| 95. | <p>Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘rsatish.</p> | <p>Ishga joylashtirish bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan kelishuvlar sonini 30 taga oshirish.</p> <p>Fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillariga o‘qitish doirasida 2 mingta xorijiy kompaniyalar bilan kasbga o‘qitish va ish bilan ta’minalash tizimini tashkil etish.</p> <p>Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan, ularning bandligini ta’minalash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish.</p> <p>Noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.</p> |

5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar

| | | |
|-----|---|---|
| 96. | <p>Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish.</p> | <p>Milliy axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta’minalash, axborotdan foydalananish madaniyatini yuksaltirish hamda aholini yot va destruktiv ma'lumotlar ta’siridan himoya qilish, radikallashuvning oldini olish.</p> <p>Internet jahon axborot tarmog‘idan to‘siqlarsiz foydalananish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta’minalash hamda fuqarolarning internetdan foydalananish borasidagi savodxonligini oshirish.</p> |
|-----|---|---|

| | | |
|-----|---|--|
| | | <p>Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish.</p> <p>Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish.</p> |
| 97. | | <p>Qo'shirlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shirlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish.</p> <p>Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish.</p> <p>Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish.</p> |
| 98. | Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish. | <p>Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimi bilan integratsiyalashuv asosida Respublikada kuchli zilzilalar haqida barvaqt ogohlantirish milliy tizimini joriy qilish.</p> <p>Suv omborlari va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan obektlarda favqulodda vaziyatlar monitoringi va ularni oldindan prognoz qilish tizimini yaratish.</p> <p>Yagona global xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish salohiyatini kuchaytirish va mintaqaning barcha davlatlari bilan tezkor axborot almashish, qo'shma o'quv mashg'ulot o'tkazish kabi yo'naliishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish.</p> |
| | Chegaralar xavfsizligini | Davlat chegarasini qo'riqlash tizimiga zamonaviy texnologiyalar, |

| | | |
|------|--|--|
| | mustahkamlash. | kommunikatsiya vositalari va texnik (muhandislik) inshootlarni keng joriy qilish. Davlat chegarasi xavfsizligini ta'minlash jarayonini sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yanada avtomatlashtirish. Chegara buzuvchilari harakatlarini sustlashtirish va qiyinlashtirish jihatdan jihozlanganlik darajasini oshirish. |
| 100. | Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish. | "Yosh kitobxon" tanlovini qo'shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman) o'tkazish. Ta'lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini 2 baravarga oshirish. Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish. Do'stlik jamiyatları sonini 60 taga yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini 2 baravarga oshirish. |

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-ko‘chma mashg‘ulot. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAQSADI

- Inson huquqlari va uning himoyasi bo‘yicha sud organlarining rolini o‘rganish.
- Sud tizimining inson qadrini himoya qilishdagi ahamiyatini tushunish.
- Inson huquqlarini ta’minlashda fuqarolik jamiyatni va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni tahlil qilish.
- Real sud jarayonlari va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilish orqali huquqiy bilimni oshirish.
- 2. Ko‘chma mashg‘ulotni tashkil etish bosqichlari

1-bosqich: Sud jarayonlarini kuzatish

- Nima qilinadi?
- Real sud jarayonlarida ishtirok etish.
- Sud muhokamalarini kuzatib, suda, prokuror, advokat va jabrlanuvchilarning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilish.
- Sud muhokamalarida inson huquqlari ta’minlangani yoki buzilgani yuzasidan fikr almashish.
- Nima o‘rganiladi?
- Sud tizimining xolisligi va qonuniyligi.
- Himoya va ayblov pozitsiyalarini baholash.
- Sud jarayonining inson huquqlariga ta’siri.
- 2-bosqich: Huquqiy treninglar va muhokamalar
- Nima qilinadi?
- Sudyalar, prokurorlar, advokatlar ishtirokida mahorat darslari.
- Sud hujjatlarini tahlil qilish.

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar muhokamasi.

❖ Nima o‘rganiladi?

- Konstitutsiya va xalqaro huquq normalari.

Sudya va advokatning huquq va majburiyatlari.

Inson huquqlarini buzilishining oldini olish mexanizmlari.

3-bosqich: Arxiv hujjatlari bilan ishslash

❖ Nima qilinadi?

Sud ishlari va inson huquqlariga oid tarixiy hujjatlarni o‘rganish.

Ilgarigi sud islohotlari bilan tanishish va tahlil qilish.

Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

❖ Nima o‘rganiladi?

O‘zbekistonda sud islohotlarining rivojlanish tarixi.

Inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi.

Sud tizimining insonparvarlik tamoyillari asosida o‘zgarishi.

4-bosqich: Bahs-munozara va tahliliy muhokamalar

❖ Nima qilinadi?

Inson huquqlariga oid dolzarb muammolar yuzasidan bahs va muhokamalar.

Turli huquqiy masalalar bo‘yicha amaliy topshiriqlar bajarish.

Sud tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

❖ Nima o‘rganiladi?

Demokratik huquqiy davlatda fuqarolarning o‘rni.

Sud adolatliligi va inson huquqlarini ta’minlashdagi ahamiyati.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat o‘rtasidagi munosabatlar.

Bu mashg‘ulot ishtirokchilarga real sud jarayonlarini ko‘rish, sudya va huquqshunoslar bilan fikr almashish hamda arxiv hujjatlari asosida tahlil o‘tkazish imkonini beradi. Bahs-munozaralar esa ularning huquqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2-ko‘chma mashg‘ulot: Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamонавиј муносабат. Та’лим, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

1. Mashg‘ulotning asosiy maqsad va vazifalari

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlarni tarixi nuqtayi nazaridan o‘rganish. Ta’lim, tibbiyot, turizm va sport sohalaridagi islohotlarni o‘tmish islohotlari bilan taqqoslash. Arxiv hujjatlari, tarixiy materiallar va amaliy misollar bilan ishslash. Tarixiy tahlil qilish va hozirgi islohotlarning kelajak uchun ahamiyatini baholash.

1. Nazariy qism – Tarixiy tahlil va ma’ruza

- Yangi O‘zbekiston islohotlarining tarixiy konteksti
- ✓ O‘zbekistonda 20-asr va 21-asrda ijtimoiy sohadagi eng muhim o‘zgarishlar
 - ✓ Sovet davri va mustaqillik yillaridagi ta’lim, tibbiyat, sport va turizm taraqqiyoti
 - ✓ 2022-2026 yillar taraqqiyot strategiyasi va uning tarixiy asoslari

Mutaxassislar bilan uchrashuvlar

- ✓ Tarixchilar, ijtimoiy sohalar mutaxassislari, siyosatshunoslar va tadqiqotchilar bilan davra suhbatি
- ✓ "O‘zbekiston 2030" strategiyasi haqida tarixiy parallellar

2. Arxiv hujjatlari va manbalar bilan ishlash

O‘zbekistonda ta’lim, tibbiyat, sport va turizm tarixi bo‘yicha materiallar tahlili

- ✓ Sovet davri va mustaqillik yillaridagi ta’lim tuzilmasi va islohotlar haqidagi arxiv hujjatlari
- ✓ Tibbiyat va sog‘liqni saqlash tizimidagi tarixiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi hujjatlar
- ✓ Turizm rivojlanishiga oid tarixiy manbalar va 20-asrdagi sayyohlik siyosati Arxiv materiallarini hozirgi islohotlar bilan solishtirish
- ✓ Yangi maktablar va universitetlar tarixi
- ✓ Sovet davridagi tibbiyat tizimi va hozirgi islohotlar
- ✓ Sport va jismoniy tarbiyaga e’tibor tarixi

3. Amaliy tashriflar va kuzatuv ishlari

Ta’lim va tibbiyat muassasalariga tashrif

- ✓ Yangi qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan maktablar, universitetlar va tibbiyat muassasalariga tashrif
- ✓ Zamonaviy ta’lim metodikalari va tibbiy xizmatlar bilan tanishish
- ✓ Ilgari faoliyat yuritgan ta’lim va tibbiyat muassasalari tarixi bo‘yicha ma’lumot yig‘ish

Turizm va sport obyektlarini o‘rganish

- ✓ Turizm va sport rivoji haqidagi tarixiy ma’lumotlarni yig‘ish
- ✓ Sovet davridagi turizm siyosati va hozirgi sayyohlik rivoji
- ✓ O‘zbekistonda sport va olimpiya harakati tarixi

4.Tahliliy ishlar va bahs-munozaralar

Ishtirokchilar guruhlarga ajratilib, tarixiy tahlil ishlarni bajaradi

✓ 20-asr va hozirgi ijtimoiy siyosatni solishtirish

✓ Ijtimoiy sohadagi islohotlarni tarixiy davrlarga taqqoslash

✓ Yangi O‘zbekiston dagi ijtimoiy rivojlanish modelini o‘rganish

Guruh ishi va muhokamalar

✓ Har bir guruh bir sohani tanlab, o‘tmish va hozirgi holatni tahlil qiladi

✓ Mavzu bo‘yicha tadqiqot ishlari va xulosalar tayyorланади

3. Natijada quyidagilarga erishiladi?

Ishtirokchilar quyidagi natijalarga erishadi:

✓ Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlarni tarixiy nuqtayi nazaridan tahlil qila oladi

✓ Arxiv materiallari va tarixiy hujjatlar bilan ishslash ko‘nikmasi oshadi

✓ Sovet davri, mustaqillikning dastlabki yillari va hozirgi kunni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi

✓ Ijtimoiy islohotlarning tarixiy jarayonlar bilan bog‘liqligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi

✓ Tarixiy faktlar va hozirgi siyosiy-ijtimoiy strategiyalarni solishtirish tajribasiga ega bo‘ladi

Xulosa

◆ Bu mashg‘ulot ta’lim, tibbiyat, turizm va sport sohalarining tarixi va hozirgi holatini chuqr o‘rganish imkonini beradi.

◆ Ishtirokchilar ijtimoiy sohadagi islohotlarning tarixiy asoslarini tushunib, hozirgi siyosat bilan bog‘lashni o‘rganadilar.

◆ Arxiv hujjatlari, amaliy tashriflar va tahliliy muhokamalar natijasida yangi nazariy va amaliy bilimga ega bo‘ladilar.

V GLOSSARIY

| Termin | O‘zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|---------------------|---|---|
| Avtokratiya | Davlat boshlig‘i cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan boshqaruv. Ushbu tushuncha hozirgi davr lug‘atlarida hokimiyatga da‘vogarlik qiluvchi shaxs, guruhning cheklanmagan siyosiy hukmronlikka intilishi sifatida ifodalanadi. | An autocracy is a government in which the head of state has unlimited power. In modern dictionaries, this concept is expressed as a person claiming power, a group’s desire for unlimited political dominance. |
| Avtoritarizm | Davlatni boshqarish usullaridan biri. Yakka shaxsning davlatning o‘z ta’siri, obro‘sni, tashkilotchiligi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilimi asosida boshqarishi. Avtoritarizm, odatda, jamiyat o‘z taraqqiyoitining murakkab, qaltis va mas’uliyatli davrlarini boshidan kechirayotgan pallalarda saxniga chiqadi. XXasrda avtoritarizm asosan salbiy ma’noda namoyon bo‘ldi. Hozirgi darv avtoritarizmiga harbiy-polisiya fashistik tartibotlar “kazarmali kommunizm” shuningdek stalinizm kiradi. | <i>One of the ways of governing the state. The individual is the one who governs the state based on his influence, prestige, organization, enthusiasm, and good knowledge. Authoritarianism usually emerges at a time when society is going through difficult, dangerous and responsible periods of its development. In the twentieth century, authoritarianism has been largely negative. Today’s Darwinist authoritarianism includes military-policy fascist regimes, "barracks communism," as well as Stalinism.</i> |
| Agressiya | Bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga nisbatan territoriyani qo‘lga kiritish, uning mustaqilligini yo‘q qilish yoki cheklash, aholisini bo‘ysundirish maqsadida har qanday kuch ishlatish, to‘g‘ridan- | <i>Acquisition of territory by one state in relation to another, the destruction or restriction of its independence, the use of any force to subjugate its</i> |

| | | |
|--------------------|--|---|
| | to‘g‘ri qurolni agressiya | <i>population, direct aggression</i> |
| Bozor iqtisodiyoti | Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a’zolarini ishlab chiqarish va iste’mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko‘payishiga sababchi bo‘ladi. | <i>A set of economic relations that accyelerates the development of sociyety. The essencye of a market economy is that it turns all members of sociyety into regular participants through production and consumption. Therefore, a market economy allows production to improve day by day, product quality to increase, and quantity to increase.</i> |
| Vijdon erkinligi | Bu fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqidir. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” – BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjatdir. Bu xujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta’minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan. | <i>This is the right of citizens to beliyeve in any religion or not to beliyeve in any religion. The Universal Declaration of Human Rights is an international legal instrument adopted by the United Nations in 1948. This document defines the rights and freyedoms of the people, the rights and freyedoms that ensure their livelihood</i> |
| Global muammolar | Ushbu muammolar o‘zining daxshatli oqibatlari, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bumuammolarni jamiyat hayotida ro‘y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo‘lmaydi. Ular o‘zining ko‘lami va miqyoslariga ko‘ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo‘lib, | <i>These problems are somewhat different from any other problem in that they have dire consequencies and damage to crime. These problems cannot be compared to a single problem that occurs in the life of a sociyety. They are</i> |

| | | |
|-----------------------------|--|---|
| | ko‘pchilik mamlakatlar va xalqlar hayotiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. | <i>spread over a large part of the world due to their scale and scale, and have a strong negative impact on the lives of many countries and peoples. 'shows</i> |
| Fedarativ (murakkab) | Davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qisimlardan tuzilgan. | <i>States are made up of parts of the state, such as autonomous states, territorial units of state.</i> |
| Demokratiya | Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq hokimiyati ya’ni ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e’lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e’tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a’zolari hayotining asosiy qonuniushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi. | <i>An important feature of democracy is that it officially declares the rule of the people, that is, the subordination of the minority to the majority, and recognizes the freedom and equality of citizens. These conditions are reflected in the basic law of society and the life of its members - the constitution of the state.</i> |
| Integratsiya | Milliy iqtisodiyotdlarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo‘lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o‘zaro ta’sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustivor yo‘nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o‘rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator | <i>The process of economic integration and integration of national economies in order to have qualitatively new conditions and expand the country’s development potential. Economic integration cooperation is a priority in economic policy between the countries of production development, mainly production occurs separately, and in order to implement this process, countries take a number of</i> |

| | | |
|---------------------|---|--|
| | chora tadbirlarni qo'llaydilar integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga bog'liq hamda besh pog'onaga ajratiladi. | <i>measures depending on the level of development of the integration process and five gardens allocated to the mother.</i> |
| Impichment | Davlat jinoyatchilarini mansabdor shaxslarni hattoki davlat boshlig'i– Prezidentini konstitutsiyasida ko'rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo'li bilan mustahkamlangan. Ma'suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko'rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan. | Prosecution of state criminals and officials, even the head of state, for violating the provisions of the constitution enshrined in law. The legislature is difficult to account for, and the upper house is left to decide. |
| Inaguratsiya | Davlat boshlig'i lavozimiga kirishish oldidan o'tkaziladigan tantanali marosim. Yangi Prezident va vise Prezident hokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. Shuningdek haykallarni ko'rgazmalari ochilishida ham inagurayiyani ifodalaydi. | <i>Ceremony before the inauguration of the President. Ceremony of inauguration of the new President and Vice President. It also symbolizes inauguration at the opening of sculpture exhibitions.</i> |
| Korrupsiya | Korrupsiya – (lotincha "corruptio"- poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarni suiste'mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qayerda davlat bo'lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir. | <i>A crime of abuse of officye rights by an official for the purpose of enrichment. Corruption is one of the oldest sociyetiyes: Wherever there is a state, corruption is one of the most widespread crimes in various sectors of the state apparatus, from the bottom up.</i> |

| | | |
|-------------------|---|---|
| Lobbizm | Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko‘rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo‘lib ular manfatlarni ifoda etgan qonunlarni, zakazlarini, yordamga beriladigan mablag‘ni (subsidiyani) olish yo‘lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo‘lsa sotib olishi) yo‘lini tutuvchi tushuncha. | <i>Lobbying - a large monopoly agency or organizational group operating in the legislature, which doyes not forcye lawmakers to buy (if necyessary) laws, orders, aid (subsidiyes) that represent their interests. the concycept that holds the line.</i> |
| Mentalitet | Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muhim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti uning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi. | <i>Mentality - (Latin "mens" - mind, percyception) - the level of thinking of a sociyety, nation, unit or individual, the spiritual potential of the individual, their ability to analyze the laws of life, mental ability formed in important social conditions, mental strength , the mentality of a sociyety, nation, or individual also includes its specific traditions, customs, traditions, religious beliyefs, and superstitions.</i> |

VI. FOYDANILADIGAN ADABIYOTLAR.

Rahbariy adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

Asosiy adabiyotlar

- 9.Mustaqil O‘zbekistan tarixining dastlabki saxifalari. - Toshkent, 2000.
- 10.A. O‘zbekiston yo‘li. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
- 11.Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.
- 12.2017-2021 yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
- 23.Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
- 14.Noveyshaya istoriya Uzbekistana. Rukovoditel’ proyekta i redaktor: M.A.Raximov. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

Qo‘srimcha adabiyotlar

- 15.Azizzxo‘jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - Toshkent: 2001.
- 16.Azizzxo‘jayev A.A. Chin o‘zbek ishi. - Toshkent, 2003
- 17.Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
- 18.Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizasiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
- 19.Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
- 20.Usmonov Q.O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi. – Toshkent: Moliya, 2003.
- 21.O‘zbekiston mustaqillik yillarida. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
- 22.O‘zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiyl tahriri ostida. – Toshkent, 2005.

- 23.O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
- 24.O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
- 25.O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar:
- 26.R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
- 27.Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
- 28.Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuotkonsalt, 2009.
- 29.Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70 80-yillar misolida). Qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 1999.
- 30.Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.
- 31.G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O‘zbekiston. -Toshkent: Mehnat, 2001.

Axborot manbaalari

www.ziyonet.uz.

www.edu.uz.

www.google.uz.

www.gov.uz.